

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”
Ijtimoiy fanlar fakul'teti
dekani: _____ t.f.n. Sh.Xaydaraliyev
“ ____ ” _____ 2023-yil

TARIXIY O'LKASHUNOSLIK

fanidan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

| | |
|--------------------|--|
| Bilim sohasi: | 100000 – Gumanitar soha |
| Ta'lim sohasi: | 220000 – Gumanitar fanlar |
| Ta'lim yo`nalishi: | 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo`nalishlar bo`yicha) |

NAMANGAN – 2023

MUNDARIJA:

| № | Bo'limlar | Betlar |
|----------|--|--|
| 1 | Ma'ruza matni | – B. 4-42 |
| 2 | Seminar mashg'ulotlari ro'yxati | – B. 43-54 |
| 3 | Nazorat savollari | – B. 55 |
| 4 | Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari | – B. 56-62 |
| 5 | Glossariy | – B. 63-66 |
| 6 | Ilovalar: <i>Fan o'quv dasturi</i> <i>Testlar</i> <i>Baholash mezonlari</i> | – B. 63-93 – B. 67-81 – B. 82-91 – B. 92-93 |

O'quv uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligimimg 2018-yil 25-avgustdagi 744-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: A.A.Erqo'ziyev.

Taqrizchilar: Z.Sh.Madraximov, NamDU, tarix fanlari nomzodi, dotsent.
A.A. Sarimsaqov, NamDU, tarix fanlari nomzodi, dotsent.

O'quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashininig 2023- yil "_____" avgustdagi "_____" ____ son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

“TARIXIY O'LKASHUNOSLIK”

fanidan

MA'RUZALAR MATNI

| | |
|--------------------|---|
| Bilim sohasi: | 200000 – San`at va gumanitar soha |
| Ta`lim sohasi: | 220000 – Gumanitar fanlar |
| Ta`lim yo`nalishi: | 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo`nalishlar bo`yicha) |

NAMANGAN – 2023

1-MAVZU: FANNING PREDMETI, TADQIQOT DOIRASI, MAQSADI VA VAZIFASI

REJA:

1. Tarixiy o'lkashunoslik fanining fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi.
2. "Avesto" va qadimgi manbalarda o'lkamizning nomlari. Arab manbalarida o'lkamiz haqidagi ma'lumotlar va ularning ahamiyati.
3. IX–XII asrlarda o'lkadagi siyosiy va iqtisodiy hayot. Amir Temur va temuriylar davrida o'lkamiz tarixi. Shayboniylar davrida o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. Xonliklar davri o'lkashunosligi.
4. Tarixiy o'lkashunoslikning tarix fani tizimida tutgan o'rni. Tarixiy o'lkashunoslik fanining tadqiqot ob'yektlari, Turkistonda dastlabki ilmiy jamiyatlarning tashkil etilishi.

Tarixiy o'lkashunoslik fanining fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi.

Biror-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Mana shunday ekan bugungi kunda o'z-o'zimizni anglab milliy qadriyatlarimiz o'z o'rnini topib mustaqilligimiz kun sayin mustahkamlanib borayotgan bir vaqtda ona yurtimizning har bir farzandi o'z Vatani va tarixini sevish, o'ng asosiy burchimiz bo'lishi kerak. Shuning uchun ham o'tmish tarixiy va moddiy-madaniy yodgorliklarini o'rganish muhofaza qilishning rolini oshirish muammolarini hal qilishga hozirgi kunda katta e'tibor bermoqda.

«Tarixiy o'lkashunoslik» kursi quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi. O'zbek xalqining tarixiy-madaniy va me'morchilik yodgorliklarini va ularni har tomonlama ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish taqazo etadi. Bu vazifani amalga oshirishda biz arxeologik va etnografik ma'lumotlardan qanday tadqiqot natijalaridan, toponomika - joy nomlaridan arxiv va muzey fanlaridan xalq og'zaki ijodi va manbalardan keyin miqyosda foydalanamiz.

Tarixiy o'lkashunoslik fani asosan ikki maqsadni ko'zda tutadi:

1. O'z o'lkasining o'tmishi va hozirgi hayot tarixini har tomonlama ilmiy asosda o'rganish.
2. To'plangan tarixiy materiallardan o'quv-tarbiyaviy ishlarda samarali foydalanib yosh avlodni milliy mafkuramiz millatimiz ravnaqiga xizmat qiluvchi yetakchi g'oyalarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ko'zda tutadi.

O'rta Osiyo haqida ilk ma'lumotlar miloddan avvalgi V–IV asrda bu yerlarga sayohat qilgan yunonlar tomonidan yozib qoldirilgan. Ular Sirdaryo va Amudaryo o'rtasidagi yerlarni Transoksoniya (Transoxiana) deb ataganlar. Bizga tarixdan ma'lumki, o'lkamiz har xil nomlar bilan atalib kelgan. Qadimda Turon o'lkasi, Arablar bosqini davriga kelib Movaraunnahr, Rus bosqini davriga kelib Turkiston, deb atalib kelgan Turkistondan keyin O'rta Osiyo deb atalib kelmoqda. Bu atamalar bu yer O'zbekiston uchun emas O'rta Osiyo Respublikalarining hammasi shu nomlar atalgan, shu jumladan O'zbekiston ham.

Ushbu kursda o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, moddiy-ma'naviy manbalarini «O'lkashunoslikda arxeologiyaning roli», «O'lkashunoslikda etnografiyaning ahamiyati», «O'lkashunoslikni o'rganishda arxivshunoslikning o'rni», «O'lkashunoslikda antropologiyaning roli», o'lkaning jo'g'rofik holat, tabiiy iqlim sharoitlari, jo'g'rofik atamalar toponomika o'lka tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri sifatida, xalq og'zaki ijodi va yozma manbalarning o'rni, o'lkashunoslikda muzey eksponatlarining ahamiyati, maktab muzeyi va to'garaklar deb nomlangan qismlar orqali o'rganiladi, Arxeologiya yodgorliklari, bunga qadimgi shaharlar, qo'rg'onlar, qal'alar, qadimiy manzilgohlar, istehkomlar yo'llarining qoldiqlari, mozor qo'rg'onlar, Qoyatosh tasvirlari va boshqalarni o'rganadi.

Arxeologik manbalarni ikki turga bo'lib o'rganiladi:

1. Tabiiy manbalar (poleozoologiya, poleobotanika) - inson va hayvon suyaklari, o'simliklar qoldiqlari va geologik qatlamlar bo'lib ularni asosan zoologlar, botaniklar va geologlar o'rganadilar.

2. Inson tomonidan topilgan manbalar bo'lib, ular mehnat qurollari, yarog'-aslahalar, sopol idishlar, san'at va zeb-ziynat buyumlari yozuv hamda yozma manbalar va hokazolar.

Etnografik bunga xalq urf-odatlarini, moddiy va ma'naviy madaniyati, folklor va hokazolarni o'rganiladi. Etnografi ko'p qirrali ijtimoiy fan bo'lib, uning tadqiqot obyekti xalq va elatdir. Bu fan ularning xususiyatlari, o'zaro o'xshashligi va tafovutlari, kelib chiqishi va joylashishi, madaniy-maishiy aloqalari ijtimoiy va oilaviy turmush kabi ma'lumotlarni o'rganadi. Har bir etnos ayrim shaxslar, yosh va qari norasta va o'spirin, juvon va yigit, erkak va ayollardan tashkil topadi. Hech bir inson bir-biriga tabiati va xarakteri, xulq-atvori va his-tuyg'ulari bilan to'liq o'xshashlikka ega bo'lmagandik, etnoslar ham bir-biriga to'la o'xshamaydi. Shuning uchun buni o'rganib chiqishni talab qiladi.

Arxivshunoslikda, markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlaridan qolgan turli hujjatlar, foto-kino hujjatlari va tovush yozuvlari va hokozolar haqida ma'lumotlar beradi. Hozirgi kunda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida terang anglanishlar jarayoni kechayotgan bir davri tarixni o'rganish, uni xolis baholash va moziydan meros jamini qadriyatlardan ijodiy foydalanish o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Antropologiya, arxeologik qazishmalar jarayonini yangi antropologik ma'lumotlar yig'ish va ularni tadqiq etishni talab etadi. Ma'lumki, antropologlar turli tarixiy davrlarga oid odam suyaklarini o'rganish natijasida ularning tashqi qiyofalarini tiklab, qaysi antropologik irqqa oid ekanligini aniqlaydilar.

O'lkaning jo'g'rofiy holatida, o'lkaning geografik joylashuvi, iqlim sharoiti, iqtisodiy-siyosiy, tabiiy sharoitini aholisi va ma'muriy tuzilish xaritasini o'rganamiz.

Jo'g'rofik atamalar va toponomika o'lka tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Toponimika geografik nomlar kishi ismlarini o'rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponimikani zamin tili deb atashimiz ham mumkin. Geografik nomlar va zamin qa'rida o'rganilmayotgan nomlar insonlarga qo'yiladigan ismlar toponomikaning asosiy manbai hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi va yozma manbalar tarixiy manbalarda hozirgi O'zbekistonning xududida yashovchi elatlar eramizdan avvalgi V-IV asrlarda boy og'zaki poetik ijodga ega ekanligi to'g'risida ma'lumotlar bor. O'zbekiston umuman O'rta Osiyo tarixiga oid eng qadimgi yozma manbalar juda ko'p.

O'lkashunoslikni o'rganishda muzey eksponatlarining o'rni juda katta ahamiyat kasb etadi.

O'lkashunoslik manbalari orasida haqiqiy ilmiy va madaniy-ma'rifiy muassasaga aylanib qolgan muzeyning o'rni va ahamiyati kattadir.

U moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklarining asl nusxalarini arxeologiya, etnografiya, toponomikaga oid materiallarni to'playdi, saqlaydi va ilmiy asosda o'rganib tahlil qiladi.

Maktab muzeyning o'rni. Biz yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda vatanga sadoqat uyg'otishda tarixiy yodgorliklarni asrab-avaylab saqlashga tarixiy obidalarga mehr-muhabbat bilan qarashga o'rgatish, bu yodgorliklar faqat o'tmishni o'rganish uchungina emas, shu bilan birga ilm-fanni, xalq maorifi va madaniyatini yanada rivojlantirish uchun bebaho durdona ekanligini singdirish ruhida tarbiyalashimiz kerak.

“Avesto” va qadimgi manbalarda o'lkamizning nomlari. Arab manbalarida o'lkamiz haqidagi ma'lumotlar va ularning ahamiyati.

O'rta Osiyo g'arbda Kaspiy dengizi janub va sharqda Eron, Afg'onistonda, Islom Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Shimolda esa 45–32 Shimoliy kenglik bilan chegaralanadi. U qadimdan sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi. Bir necha bor jahon imperiyalarining markazi sifatida dunyo siysiy tarixida katta o'rin tutadi. O'rta Osiyo qadimgi Farb va Sharq o'rtasidagi iqtisodiy va savdo munosabatlarida vositachi rolini bajargan.

O'lkamiz haqida adstlabki ma'lumotlar «Avesto»da uchraydi. Qadimgi viloyatlarning nomlari berilgan Yasht kitobining uchinchi va Videvdatning birinchi bobida sanab o'tilgan. Yasht ro'yxatidagi birinchi mamlakat eroniy qabilalarning vatani - «Aryonam Vayjo»ni «Ariylarning Sayxon yerlaridan». U yurtda yaylovlarga ega baland tog'lar, keng va chuqur ko'llar bo'lgan. Keyingi mamlakatlar Porutu, Iskata, Mouru, Gava va So'g'da, Xvarizam.

Vedavdat kitobiga ko'ra, zardo'shtiylarning ulug' va donishmand xudsi Axuramazda payg'ambar Zratushtraga bunday xabar qiladi.

Birinchidan, Arg'nam Vayjoga asos soldim. Ikkinchidan, Axuramazda eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan Gava, So'g'da makoniga asos soldim. Uchinchidan, Mouruga asos soldim. To'rtinchidan, men Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan biri bo'lgan baland bayroqli go'zal Baxdiga asos soldim. Videvdatning birinchi bobida sanab o'tilgan mamlakatlar Yasht viloyatlari ro'yxatidan ancha farq qiladi.

Aryonom Vayxo, Gava, Mouru, Baxdi, Nisayyo, Ar'yo Vag'kereta, Urva Xnanta, Roga, Charxo, Varpo, nomsiz yetti hind viloyatlari va Ranxa daryosi boshlaridagi mamlakatlar sanab o'tilgan.

«Avesto» eng qadimgi mamlakatlar - O'rta Osiyo va O'rta Sharq, Afg'oniston, Eronning shimoli-sharqiy xududi bilan bog'lanadi. Aryonom Vayjo mamlakatini - bu keng xududda joylashgan o'lka deb tushunish mumkin. U yerdan baland tog'lar - Pomir, Hindiqush, Hisor, Tang' rito (Tyan-Shan), chuqur ko'llar - Kaspiy, Orol, Balxash, Issiqko'l, keng daryolar Amudaryo va Sirdaryo faraz qilinadi.

«Avesto» boblaridan boshlab yurtimiz yerlari qadimgi manbalarda turlicha - Aryonom Vayjo-Aryoshayyona, Turon, Movaraunnahr, Turkiston kabi nomlar bilan atalib kelgan. ayrim o'lkalar - yirik tarixiy-madaniy viloyatlar Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona, Xorazm, Ustrushona, Choch, Farg'ona kabi mashhur nomlar bilan atalgan. Bu xududning geografik markazi ikki daryo oralig'i bo'lib (Amudaryo va Sirdaryo), unga arablar tomonidan Movaraunnahr nomi qo'yilgan. Yevropa tarixshunoslari Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni «Transoksiana» deb ataganlar.

IX–XII asrlarda o'lkadagi siyosiy va iqtisodiy hayot. Amir Temur va temuriylar davrida o'lkamiz tarixi. Shayboniylar davrida o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. Xonliklar davri o'lkashunosligi.

O'rta asrlar davri mualliflari «Turon» geografik tushunchasini turlicha tasvirlaydilar. Ba'zi tarixchilar va geograflarning aytishicha, Turon – bu turklar, turkiy qabilalarning yurti degan ma'noni bildirib, keyinchalik «Turkiston» tushunchasiga aylangan. XVI–XVII asrlarga qadar tarixiy geografik adabiyotlarda, turkiston o'lkasi sifatida noaniq tasvirlanganlar. XIX–XX asr boshlarida adabiyotlarda Turkiston ikki geografik qismga bo'lib ko'rsatilgan. Sharqiy Turkiston (Sinszyan - uyg'ur o'lkasi) va Farbiy Turkiston (O'rta Osiyo).

Birinchi bor ishonchli geografik ma'lumotlar arablar hukmronligi davri (IX–X asrlar)ga to'g'ri kelib, ular Orol dengizi, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimidagi yerlarni yaxshi bilganlar. XI asrdayoq alloma Abu Rayhon Beruniy meridianlar o'zgarishining yangi yo'lini kashf etgan. Uchta yangi kartografik proyeksiyalar ishlab chiqib, uzunlik va kenglikni aniqlashning yangi uslubini tadbiq etgan.

Abu Rayhon Beruniy fanning deyarli barcha yo'nalishlari bo'yicha buyuk kashfiyotlar qilgan olimdir. U kishilik jamiyati, tarixida ilk bor yerning jumaloq shaklda ekanligini aniqlab, globusni yaratadi. Beruniyning yirik asarlaridan biri «Al asorul boqiya oqil qurunil xoliya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»)da alloma o'zining hayotiy kuzatuvlari asosida yunonlar, rimliklar, arablar va boshqa xalqlarning yilnoma (kalendar tizimlarini) bir-biriga taqqoslab, ularning kelib chiqish tarixini tahlil qilib beradi. Bu asarda yana Turon zamin xalqlarining urf-odati va madaniyatiga oid masalalar ham o'z ifodasini topgan.

XI asrda yashab ijod etgan Mahmud Qoshg'ariyning umumiy turkiy tillarni o'rganish, turkiy til shevalarining qiyosiy grammatikasini tuzish, folklor va etnografiya sohasidagi xizmatlari juda kattadir. Shu bilan birga u tabiiy fanlar terminologiyasini yaratishga va geografiya faniga ham katta hissa qo'shgan.

Qoshg'ariyning geografik merosi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. «Davon»da berilgan tabiiy geografik terminlar va ularning izohi;
2. «Devoni lug'otit turk»ga ilova qilingan dunyo kartasi;

3. «Devon»da uchraydigan joy nomlari va ularning izohi;

4. O'rta Osiyoda ayrim qabilalarning joylashish haqidagi «aholi geografiyasi»ga doir ma'lumotlar;

5. «Devon»dagi astronomik ma'lumotlar, kalendar sistemasi - lug'atlar va ularning tarixi.

O'rta Osiyo Mahmudning tasviriga, O'rta Osiyo yer yuzasi jihatidan tog'lik va tekislik qismlaridan iborat: uning tog'lik qismi hozirgi Qozog'iston va O'zbekiston o'lkalariga to'g'ri keladi. Shimoli-g'arbda faqat bitta tog' - Jabali Qorachuk yozilgan boshqalarning yozuvi yo'q. Yer yuzini ng markazi qilib Qoraxoniylar davlatining poytaxti, siyosiy, ilm-madaniyat markazi Bolosog'un shahri olingan.

Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» (Saodatga boshlovchi bilim) asaridan ham biz ancha narsani o'rganishimiz mumkin. Turkiy tilda yozilgan didaktik pandnoma - falsafiy «Qutadg'u bilig» asari muqaddima va xotimadan tashqari 73-bobdan iborat, unda ahloq, odob, ilm-ma'rifat, bola tarbiyasi, jamoat joylarida o'zini qanday tutish, so'zning a'amiyati va qadri, mehmondorchilik qoidasi, turmush tarzi va yana ko'pgina masalalar qalamga olingan.

XV asrda yashab ijod etgan Hofiz Abruning arabcha yozilgan jo'g'rofiya asari «Kitob al-masolik va almomolik» (Yo'llar va mamlakatlar kitobi) deb atalgan, uni «Ashkon al-aqolim» (Iqlimlar surati) deb ham nomlangan. Eng yirik shaharlar Hirot, Marv, Balh, Mashhad va boshqalarni ta'riflagan.

Asarda Samarqandning qisqacha tarixidan so'ng shahar va shahar atrofining, qal'alar, saroylar, machitlar, bog'lar, qishloqlar ta'rifi berilgan. Shovdor - Samarqandning janubida, durust havosi bor aholisi baquvvat va sog'lom. U Kohiyaning bo'yi (darozi) 10 farsang. Odamlari shuto'rdor (ot-ulovi ko'p). Dobusiya - kichik shahar. Buxoro bilan Samarqand orasida. Hozir aytdilarkim, uni sulton Jaloliddin qurgandir. Dobusiyaning Kushongacha 5 farsang, bundan tashqari Kesh, nahshab, Termez va boshqa joylar haqida ma'lumot berilgan.

XVI asrda yashab ijod etgan davlat arbobi Zahiriddin Bobur (1483- yil 14- fevral) o'lkamiz tarixiga oid «Boburnoma» asarini yozib qoldirgan. Umuman «Boburnoma»da bir mingga yaqin geografik nom – mamlakat, shahar, qishloq, qal'a, dasht, tog', devon, dara, daryo, ko'priq, kechik, ko'l, chashma, bog', yaylov, o'tloq va boshqa joylarning nomlari tilga olingan.

O'rta Osiyoda XVI asr oxirlarida yaratilgan muhim geografik asarlardan yana biri «Sharafnomai shohiy»dir. Bu Buxoro xoni Abdullaxon II ning (1533–1589) tarixi bo'lganligidan «Abdullanoma» nomi bilan mashhurdir. Uni buxorolik shoir, tarixchi va o'lkashunos Mir Muhammad Hofiz Tanish 1584-1591 yillar oralig'ida yozgan.

Bu asar geografik nuqtai-nazardan ham muhimdir. Chunki asarda XVI asrdagi O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi, shahar va qishloqlari bayon etilgan. Harbiy yurishlar, jang maydonlari, turli ko'priklar, kechik, qal'alar, manzil va quduqlar ta'riflangan.

Bu allamolardan tashqari Az-Zamaxshariy (1074–1144), Faxriddin Banokatiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Abdurazzoq Samarqandiy, muhammad Haydar Mirzo, Gulbadan Begim, Mahmud Fijduvoni, Said Muhammad Tohir, Mahmud Ibn Vali va boshqalar o'lkashunoslik fanimizning shakllanishiga o'zlarini ng katta hissalarini qo'shganlar.

Rus olimi M. V. Lomonosov o'z o'lkasini o'rganish uchun 1761- yilda 30 ta savoldan iborat javob varaqasini tuzib aholi o'rtasida tarqatgan edi. Ana shu vaqtdan boshlab o'lkashunoslik faniga asos solindi. O'lkani o'rganish masalasi O'rta Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham Rossiyadan ancha keyin, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Rus olimlari O'rta Osiyoni chorizm tomonidan bosib olinishidan oldin bu o'lkani o'rganish bo'yicha bir qancha ishlar qilingan edi.

O'rta Osiyo xududlarini kompleks ravishda o'rganish va kartalarga tushirish keyinroq bir muncha jonlandi. XVI–XVII asrlarda Rossiyada ishlab chiqilgan «Katta Chizma Kitobi» (Kniga Bolshogo Cherteja)da O'rta Osiyo mamlakatlari aniq berilgan. Orol dengizining xududi to'g'ri ko'rsatilgan.

1819- yilning oktyabrida ofitser N. N. Muravyev Xivaga diplomatik topshiriq bilan tashrif buyuradi. Elchilik natijalari o'laroq kam o'rganilgan «Turkman» cho'llari tadqiq etildi (B. Cherkasskiydan so'ng) va bu mamlakatlarning yanada aniq tuzilgan kartasi ishlandi. 1820- yilda

E. Eversman Buxoroga uyushtirilgan elchilikka qatnashadi. O'z elchiligining natijalarini hisob qilib chiqaradi. Oradan 4 yil o'tgach, Eversman F. F. Bergning Orol-Kaspiy harbiy-topografik ekspeditsiyasida ishtirok etadi. Ekspeditsiya o'lik Qo'ltiq va Orol oralig'idagi 242 verstli masofa aniqlandi.

1832 yilda G. S. Karstin Kaspiy dengizining shimoli-sharqiy qirg'oqlarini tadqiq etish maqsadida rus hukumating ekspeditsiyasiga boshchilik qildi. Bir necha oylik tadqiqotlardan so'ng avgust oyi boshida kuzatuvlar yakunlandi. Karstin Kaspiy dengizining shimoli-sharqiy xaritasini yaratadi. 1814- yilning mayida Orenburgdan Buxoroga ekspeditsiya jo'natildi. Uning tarkibida tog' injenerlari, tabiatshunoslar va bir qancha topograflar bor edi. Tabiatshunos A. A. Leman va topograf Ya. P. Yakovlevlar Buxorodan Samarqandga yo'l olishadi. Sentyabr oyida Leman o'zining sheriklari bilan yuqori Zarafshon vodiysiga - Fan daryo (68030 sharqiy kenglik)gacha borib Ko'li-Kulon ko'ligacha ko'tariladilar. Leman bu yerlarning go'zalligidan hayratlanib «Osiyoning Shveysariyasi» deb ataydi. U Panjkentda ham bo'ladi. Samarqandga qaytgach, Samarqanddan shimoli-sharqqa va janubga – Zarafshon tizmasining g'arbiy qismlarini tekshirishga kirishib shu tariqa 300 kilometr masofani bosib o'tadi.

Ya. P. Yakovlev Markaziy Buxoroning ilk xaritasini tuzadi. Bu karta s'yomkalar natijasida yaratilgan bo'lib, Turkiston tizmasi tuzilishi bir oz noto'g'ri berilgan. Zarafshonning g'arbiy qismi esa haqiqatga yaqinroq.

Orol dengizidagi s'yomkalarni amalga oshirish uchun harbiy dengizchi A. M. Butakov boshchiligidagi ekspeditsiya XIX asrning o'rtalarida Orolga yuborilgan. 1849–1850- yilning qishida Orenburgga qaytgan Butakov Orol dengizining birinchi qiyosiy xaritasini tuzadi. Ekspeditsiya hujjatlari va karta podshoga jo'natiladi. Aynan Butakov 1852- yilda Orol dengizida poroxod qatnovini tashkil etadi.

1856–1857- yillarda Tyan-Shan tog' o'lkasini ilk bor tadqiq etgan P. P. Semyonov Tyan-Shan tizmalarining sxemasini chizdi. Issiqo'lni tadqiq etib Sirdaryoning yuqolri qismini kashf etdi. Tangri toy guruhini va ulkan Xon-tangri cho'qqisini aniqladi. O'zining safari haqida «Tyan-Shanga sayohat» nomli asarini yozadi. P. P. Semyonov haqli ravishda «Tan-Shanskiy» nomiga sazovor bo'ldi. Shuningdek, u 1873- yildan toki 1914- yilgacha Rus geografik jamiyatiga raislik qildi.

Sirdaryoning yuqori oqimlarini tadqiq etib shunday yozgan edi: «...Shunday ulkan cho'qqilarning biridan oqib tushayotgan Norin irmoqlarini ko'rdik. Asosiy manbasi janubi-sharqqa joylashgan. Shunday qilib ulkan Yaksart daryo sistemasining manbalari yevropalik sayohatchilar tomonidan aniqlandi».

1859- yil martda Ch. Ch. Valixonov Markaziy Tyan-Shanga sayohat qiladi. O'z sayohati haqida u Sharqiy Turkistonning ilk tarixiy geografik, etnografik taqlimini ilmiy tarzda yozib qoldirgan. 1860–1861- yillarda Ch. Ch. Valixonov Osiyoning to'iyunigacha A. P. Fedchenko Zarafshon vodiysini tadqiq etdi. Bu yerdan u geografik va etnografik materiallar yig'di.

1870- yilda Fedchenko yana Turkistonga sayohat qiladi. Bu ekspeditsiya Iskandarko'l, Yag'not vodiysi tumanlarini tadqiq etishdan iborat edi. 1871- yilda Qo'qon xonligiga sayohat qildi. Ushbu ekspeditsiya janubiy Tyan-Shan, Farg'ona, Oloy va Pomir geografiyasi bo'yicha fanga boy va qiziqarli materiallar berdi. Ekspeditsiya so'nggida Qo'qon xonligi va Amudaryoning yuqori oqimi aks ettirilgan kartani yaratadi.

A. P. Fedchenko sayohatlarini ta'riflab, I. V. Mushketov shunday yozgan edi: «A. P. Fedchenko sayohati o'z marshrutlarining kengligi bilan emas, balki kuzatuvlarining ajoyib tashkil topishi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bosib o'tilgan yerlar ko'p emas, ammo qo'lga kiritilgan natijalari shunchalik ahamiyatli va muhimki, boshqa ko'p yillik va bir necha ekspeditsiyalar uchun sharaf bo'lur edi».

A. Butakov tadqiqotlaridan yarim asr o'tgach, 1900–1902- yillarda Orol dengizini kompleks ravishda biograf va ijtiolog L. S. Berg tekshirdi. U dengizning g'arbiy, sharqiy va shimoliy qirg'oqlarini kezdi. A. Butakov tuzgan kartaning bir necha joylarini yanada aniqlashtirdi. L. S. Berg dengiz maydoni 1908- yilda «Orol dengizi» nomli monografiyasini yozdi. Kitobga ikkita karta ham ilova qilindi. Shuningdek, Berg Orolning to'rtlamchi davrda Bolkashga quyilgani

haqida, Orol va Kaspiy dengizining XIII–XV asrlarda go'yoki yo'q bo'lgani haqidagi tasavvurlari noto'g'ri ekanini isbotladi.

1863- yilda rus harbiy-topografik deposi tomonidan «O'rta Osiyo kartasi» nashr etiladi. U yangi astronomik aniqliklar bilan ishlab chiqilgan edi.

Ahmad Donish «Biz obod qilish uchun daryo va dengizlarni tekshirib o'rganish uchun, yer yuzasidagi hamma boyliklarni ochish va undan foydalanish, dunyoning hamma qit'alari va aholisini bilish uchun tug'ilganmiz». Bu so'zlar (1827–1897) «Nodir voqealar» nomli risolasidan o'rin olgan (232-bet).

Ahmad Donishning butun ijodiy faoliyati geografik faniga bog'liq. U 1857- yilda Peterburgga borgan 1869, 1873-yy Rossiyaga safar qilgan. Ahmad Donish Buxoro shahrining kattagina sxema-planini chizgan, bu planda shaharning barcha darvozalari, ko'cha va ariqlarining nomlari yozib qo'yilgan.

Hoji Yusuf Hay'atiy Samarqanddagi O'zbekiston xalqlari tarix va madaniyati muzeyining XIX asr zalida katta bir globus turibdi. U XIX asrning 80-yillarida yasalgan. Xo'jandlik ma'rifatchi Xo'ja Yusuf Mirfayozov ishlagan «Globus» degan yozuv ilova qilingan.

2-MAVZU: O'ZBEKISTONNING TARIXIY GEOGRAFIK O'RNI VA TABIIY IQLIM SHAROITLARI

REJA:

1. O'lkamizning tarixiy-madaniy viloyatlari Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona, Xorazm, Ustrushona, Choch, Farg'onaning geografik o'rni.
2. Antik davrida o'lkamizning qadimgi davr tarixiy geografik o'rni. Kushonlar davri tarixiy geografiyasi.
3. Ilk o'rta asrlar davrida o'lkamiz tarixiy geografiyasi.
4. IX–XIII asrlar tarixiy geografiyasi. Amir Temur, temuriylar va shayboniylar davri tarixiy geografiyasi.
5. Xiva, Qo'qon xonliklari va Buxoro amirligining geografik o'rni.
6. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi va rel'efi. Iqlim sharoitlari. Suv resurslari.
7. Tabiiy o'simliklar qatlami va hayvonot olamining o'ziga xosligi. Tabiiy iqlim sharoitlari va landshaftlar tipi.

O'zbekiston Turkistonning markaziy qismida joylashgan, hududining asosiy qismi Amudaryo va Sirdaryo orasida bo'lib, mo'tadil va subtropik iqlim mintaqasida joylashgan. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi bilan eng baland janubiy nuqtalari orasidagi masofa 925 km, eng g'arbiy nuqtasi bilan eng sharqiy nuqtasi orasidagi masofa esa 1400 km.

O'zbekiston janubida sharqda Tojikiston bilan, sharqda Qirg'iziston bilan, shimoli va shimoli-g'arbda Qozog'iston bilan janubi g'arbda Turkmaniston bilan chegaradosh. Janubda Torshpa Surxon - Sherobod vodiysida Afg'oniston bilan chegaradosh. Bu yerda Afg'oniston bilan O'zbekiston chegarasi Amudaryo orqali o'tadi. O'zbekistonning geografik o'rniga ko'ra juda qulay. Chunki uning hududi Turkistonning markazidagi tabiiy sharoiti qulay va tabiiy boyliklarga serob bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonning ko'p qismining tekisliklardan iborat bo'lishi hamda serunum vohalarining - Chirchiq - Ohangaron, Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Quyi Amudaryoning mavjudligi jumhuriyat iqtisodiyotining rivojlanishida qulay sharoit yaratib beradi. O'zbekiston hududi janubi - sharqdan shimoliy g'arbg'a qarab cho'zilib, o'sha tomonga qarab pasayib boradi. Jumhuriyatimiz yer usti tuzilish jihatidan Tojikiston va Qirg'izistondan keskin farq qiladi. O'zbekiston hududining ko'p qismi (71№), (78№) dehqonchilik uchun qulay vodiylar, tekisliklar va tog'oldi tekisliklardan iborat. Tekislik yerlarining ko'p bo'lishi va bu joylardan Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa daryolarning oqib o'tishi iqlimning qulayligi sug'orma dehqonchilikning va ayniqsa, paxtachilikning juda qadimdan rivojlanishiga imkon bergan. O'zbekiston tabiiy sharoiti xilma-xil bo'lib, yozda ham qor va muz

bilan qoplangan balandligi 4688 (4643)ga yetuvchi Hazrati Sulton cho'qqisi ilan birga dengiz sathidan 12 metr past turuvchi Ming Buloq botig'i mavjud. O'zbekistonning tekislik qismi Turon tekislik bir qismi bo'lib, uning g'arbiy va shimoli - g'arbiy chekkasini Ustyurt platosi egallab yotadi. Orol dengizining janubiy-sharqiy qismida Qizilqum cho'li boshlanadi. Yer yuzasining tuzilishi xilma-xildir. Bu yerda past tog'lar - Bukantog', Tomdi tog', Ovmirza tog', Kuljuqtog', Yotimtog', uning g'arbiy qismida Sulton Uvays tog'i qumli va gilli tekisliklar orasida qad ko'tarib turadi. Tomdi tog'ning okean sathidan eng baland qismi 922 Mga yetadi. Qo'shni respublikalar hududida joylashgan Tyan-Shan va Hisor - Oloy tog' tizmalarining g'arbiy va janubiy tarmoqlar O'zbekiston doirasida joylashgan O'zbekistonning shimoli-sharqiy qismida Farbiy Tyan-Shanning bir qancha tizmalari (Qorajon toq, Ugan, Piskom, Chotqol, Qurama) joylashgan.

Farg'ona botig'ining chekka qismlari Qirg'iziston va Tojikiston hududlarida joylashgan. Botiqning shimolida Chotqol sharqda Farg'ona va janubda Oloy Turkiston tog' tizmalari joylashgan.

Zarafshon daryosi vodiysining janubida Zarafshon tog'lari joylashgan bo'lib uning sharqiy baland qismi qo'shni Tojikiston hududidir. Zarafshon tog' tizmasining janubida Hisor tog' tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlari (Yakkabog', Surxontog', Ko'hitang va boshqalar) uchraydi.

O'zbekiston aholisi ko'p millatli gi bilan ajralib turadi. Uning tarkibini 123dan ortiq millat va elatlar vakillari tashkil etadi. Aholi zichligiga ko'ra, 2-chi o'rinni Toshkent iqtisodiy nohiyasi egallaydi - bu yerda har 1 km kv.ga 275 kishi to'g'ri keladi. Aholi zichligi ko'p jihatdan vohani qadimdan ho'jalik mintaqalaridan bo'lib kelganligi va eng muhimi, O'rta Osiyoning yirik shahri - Toshkentning shu yerda joylashganligi bilan izohladi.

Quyi Amudaryo iqt.nihoyasining qadimgi dehqonga vohalardan biri bo'lgan Xorazm viloyati O'zbekistonning aholisi ancha zid viloyatlardan hisoblanadi. Unda alohi har 1 km 2ga , 169,5 kishidan to'g'ri keladi.

Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo mintaqalarida aholining zichligi 1km 2ga 60-65 kishini t.q. Bu mintaqalarda keyingi yillarda yangi yerlarni o'zlashtirish va sanoatni rivojlantirish ortib bormoqda. Masalan, Qashqadaryoda 1959–1991- yillar orasida holi zichligi 1 km 2ga 17,9 kishidan 59,8 kishiga (3,3 barobar), Surxondaryoda esa 20,3 kishidan 64,2 kishiga (3,2 barobar) ko'payadi.

Buxoro viloyati va Qoraqalpog'iston respublikasi O'zbekistonning aholi eng siyrak yashaydigan mintaqalaridir. Ularda aholining o'rtacha zichligi 1 km 2ga tegishli 12,0 kishi va 7,7 kishini tashkil qiladi. Buning asosiy sababi, ular hududining katta qismini egallab turgan Qizilqum cho'li va Ustyurt platosining iqtisodiy jihatdan ancha kam o'zlashtirganligidir.

XX asrning 60- yillarida Mirzacho'l iqtisodiy nohiyasi aholi siyrak joylashgan mintaqalar jumlasiga kirardi. Keyingi yillarda Sirdaryo va Jizzax viloyatlarini birlashtirgan bu iqtisodiy nohiyadagi keng dashtning deyarli tamoman o'zlashtirilganligi sababli unda aholi zichligi tobora oshib bormoqda. 1991- yil ma'lumotlarga ko'ra, ushbu iqtisodiy nohiyada aholining o'rtacha zichligi 1km 2ga 52 kishidan ziyod to'g'ri keladi.

O'zbekiston respublikasining maydoni 447,4 kv km xorijiy davlatlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak, uning maydoni Buyuk Britaniyadan 1.2 barobar, Shveysariyadan 11, Belgiyadan 14, Armanistondan 15 barobar katta. O'zbekiston chegaralarining ko'p qismi tekislikdan o'tgani bois transport va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyat beradi.

Respublikamiz aholisi ancha zich joylashgan o'lkalardan hisoblanadi. Unda 23 milliondan ortiq kishi yashaydi. Uning aholisi Saudiya Arabistoni aholisidan 2 barobar, Shveysariya aholisidan 3, Mo'g'uliston aholisidan 10 barobar ko'p. O'zbekiston Respublikasi 1924 yilda sobiq SSSR tarixidagi ittifoqdosh respublika tarzida tashkil topgan. 1991- yil 31- avgustda esa mustaqil Respublika deb e'lon qilindi. Poytaxti Toshkent shahri bo'lib, unda 2 million 300 mingdan ziyod aholi yashaydi. O'zbekiston aholisining 75%ni o'zbeklar tashkil qiladi. Undan tashqari, rus, tatar, tojik, qozoq, qoraqalpoq, koreys, yahudiy, uyg'ur va boshqa millatlar yashaydi (123dan ortiq millat).

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'laklari soni:

1. Viloyatlar - 12ta va bitta Qoraqalpog'iston avtonom respublikasidan iborat.
2. Tumanlar - 181ta.
3. Shu jumladan qishloq tumanlari - 163ta.
4. Shahar tumanlari - 18ta.
5. Shaharlar (jami) - 12ta.
6. Respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar - 1ta.

1. Andijon viloyati. Markazi Andijon shahri (307,4 kishi yashaydi). Viloyatning tuzilgan vaqti - 1941 yil 6 mart. Hududi 4,24 ming kv.km. Aholisi 3112, 5 kishi) 14 ta tumandan iborat.

2. Buxoro viloyati. Markazi Buxoro shahri (237,6 kishi yashaydi). Viloyatning tuzilgan vaqti - 1938 yil 15 yanvar. Yer maydoni 40,32 ming kv.km. Aholisi 1885,2 kishi. 11ta tumandan iborat.

3. Jizzax viloyati. Markazi Jizzax shahri (122,7 kishi yashaydi). Viloyatning tuzilgan vaqti - 1973 yil 29 dekabr. Yer maydoni 20,49 ming kv.km. Aholisi 1315,2 kishi. 11ta tumandan iborat.

4. Navoiy viloyati. Markazi Navoiy shahri (112,7 kishi yashaydi). Viloyatning tuzilgan vaqti - 1982 yil 20 aprel. Yer maydoni 110,99 ming kv.km. Aholisi 1034,1 ming kishi. 8ta tumandan iborat.

5. Namangan viloyati. Markazi Namangan shahri (610 ming kishi yashaydi). Viloyatning tuzilgan vaqti - 1941 yil 6 mart. Yer maydoni 7,44 ming kv.km. Aholisi 2885,2 kishi. 11ta tumandan iborat. 1960 yil 25 yanvarda bu viloyat tugatilib uning hududi Andijon va Farg'ona viloyatlariga qo'shib yuborilgan edi. 1967 yil 18 dekabrda u yana qayta tiklandi.

6. Samarqand viloyati. Markazi Samarqand shahri (450,4 kishi yashaydi). Viloyatning tuzilgan vaqti - 1938 yil 15 yanvar. Yer maydoni 16,77 ming kv.km. Aholisi 3900,3 kishi. 16ta tumandan iborat.

7. Sirdaryo viloyati. Markazi Guliston shahri (53,4 kishi yashaydi). Viloyatning tuzilgan vaqti - 1963 yil 16 fevral. Yer maydoni 4,99 ming kv.km. Aholisi 855 ming kishi. 9ta tumandan iborat.

8. Surxondaryo viloyati. Markazi Termiz (106,0 kishi yashaydi). Viloyatning tuzilgan vaqti - 1941 yil 6 mart. Yer maydoni 20,8 ming kv.km. Aholisi 2135,8 kishi. 14ta tumandan iborat.

9. Toshkent viloyati. Markazi Toshkent shahri. Viloyatning tuzilgan vaqti - 1938 yil 15 yanvar. Yer maydoni 15,59 ming kv.km. Aholisi 2822,8 kishi. 15ta tumandan iborat.

10. Farg'ona viloyati. Markazi Farg'ona shahri (212,0 kishi yashaydi). Viloyatning tuzilgan vaqti - 1938 yil 15 yanvar. Yer maydoni 6,76 ming kv.km. Aholisi 3850,5 kishi. 15ta tumandan iborat.

11. Xorazm viloyati. Markazi Urganch shahri (136,9 kishi yashaydi). Viloyatning tuzilgan vaqti - 1938 yil 15 yanvar. Yer maydoni 6,05 ming kv.km. Aholisi 1398,4 kishi. 10ta tumandan iborat.

12. Qashqadaryo viloyati. Markazi Qarshi shahri (190 ming kishi yashaydi). Viloyatning tuzilgan vaqti - 1943 yil 20 yanvar. Yer maydoni 28,57 ming kv.km. Aholisi 3117,9 kishi. 14ta tumandan iborat. 1960 yil 25 yanvarda Qashqadaryo viloyati tugatilib uning hududi Surxondaryo viloyatiga berilgan edi. 1969 yil 7 fevralda u yana qayta tashkil topdi.

13. Qoraqalpog'iston Respublikasi. Poytaxti Nukus shahri (188,9 kishi yashaydi). O'zbekiston Respublikasi tarkibida suveren demokratik Qoraqalpog'iston Respublikasi deb e'lon qilingan vaqti 1992 yil 9 yanvar. Yer maydoni 166,59 ming kv.km. Aholisi 1596,7 kishi. 15ta tumandan iborat.

O'zbekiston okean va dengizlardan uzoqda, Yevroosiyo materigining ichki qismida joylashganligi tufayli kontinental iqlimga ega bo'lib, osmoni nihoyat ochiq, seroftob, uzoq davom etadigan jazirama issiq va quruq yoz bilan, shu geografik kenglik uchun birmuncha sovuq qish bilan tavsiflanadi. O'zbekistonda iqlimning barcha unsurlarini yillik o'zgarishi orasida katta tafovutlar mavjud bo'lib, ular eng avvalo, iqlim hosil qiluvchi omillarning xususiyatlariga bog'liq.

O'zbekiston iqlimi uning geografik o'rni va u bilan bog'liq holda quyosh radiatsiyasi, atmosfera sirkulyatsiyasi, rel'efi, yer yuzasining holati, iqlimga kishilar xo'jalik faoliyatining (antropogen) ta'siri natijasida tashkil topadi.

Ma'lumki, O'zbekiston cho'l zonasida asosan, subtropik kengliklarda, okeanlardan ichkarida joylashgan. Bu esa uning iqlimdagi ba'zi xususiyatlarini, chunonchi Quyoshni ufqdan baland turib uzoq vaqt yoritib va isitib turishini, nam bulutli bo'lishganligini shakllanishida muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonning tog'li qismida quyoshning nur sochib turishi davri tekislikka nisbatan 600-700 soat kam bo'ladi. Tog'larning 2000 metr balandlik qismida Quyosh yildaga 2300-25 soat nur sochib turadi. Buning asosiy sababi tog' yonbag'ri bo'ylab ko'tarilgan sari bulutli kunlarning ortib borishni, tog' yonbag'rining quyoshga nisbatan holatidir.

O'zbekiston iqlimning vujudga kelishida atmosfera sirkulyatsiyasining (havo massalarining almashib turishi) ham ahamiyati katta. Jumhuriyat xududiga yil bo'yi uchta quyidagi asosiy havo massalari ta'sir etib turadi. Arktika, mo''tadil (qutbiy) va tropik.

O'zbekiston xududida atmosfera sirkulyatsiyasining o'zgarib turish xususiyati haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lish maqsadida yilning issiq (yoz) va sovuq (qish) fosluga bo'lib tavsif beramiz.

Qishda O'zbekiston xududi ko'proq Arktika va mo''tadil (qutbiy) havo massalari ta'sirida bo'lib, ular shimoli-g'arbdan, shimoldan kirib keladi.

Ma'lumki, Turkiston jumladan O'zbekiston qishda Sibir antitsiklonidan vujudga kelgan yuqori bosimi barometrik o'qdan, ya'ni shimoli-sharqdan O'zbekiston xududiga havo massasi kirib keladi. Ba'zan issiq tropik havo massasi Eron-Afg'oniston tomonidan kirib keladi. Natijada Turkistonning janubiy qismida mo''tadil mintaqa sovuq havosini Eron va afg'onistondan kirib kelgan iliq tropik havosidan ajratib turuvchi qutb fronti vujudga keladi.

Yilning issiq faslida O'zbekistonda havo sirkulyatsiyasi qish faslidan keskin farqlanadi. Chunki may oyidan boshlab Turon tekisligi havosi tezda qizib ketishi oqibatida past bosimli markaz - termik repressiyasi vujudga keladi.

O'ta qizib mahalliy kontinental Turon tropik havosi shakllanadigan va bu davrda O'zbekistonda havo ko'tarilib Termizda 50 gradusga yetishi kuzatilgan. Bunday ob-havo (termin depressiyali kunlar) yoz davrining 15%ni tashkil qiladi.

O'zbekiston iqlimiga yana uning yer usti holati, ya'ni qor qoplami, tuproqli, o'simliklari ham ta'sir etadi. Chunki qor qoplaminin quyosh radiatsiyasini qaytarish qobiliyati juda katta bo'ladi.

O'zbekiston havosining naligi va bulutligi eng avvalo havo massalariga xususiyati hamda almashinib turishiga, havoning haroratiga, yer usti holatiga va yog'in bilan bug'lanishining nisbatiga bog'liq.

Havoning nisbiy namligi yil bo'yi o'zgarib yozda kamayib qishda esa haroratning pastligi, yog'ingarchilikning ortishi tufayli ko'payadi. Jumhuriyatimizda qishda havoning nisbiy namligi tekislik qismida shimoldan janubga qarab 70-80% atrofida o'zgarsa, tog'larda balandlashgan sari kamayib 55-59% va undan pastga tushishi mumkin. Toshkentda 79%, termizda 79%ni tashkil etsa, mutloq balandligi 1438 metr bo'lgan Chimyonda 59%ga, mutloq balandligi 1545 metr bo'lgan Shohimardonda 55%ga tushib qoladi.

O'zbekistonda yorug'lik va issiqlik yetarli bo'lsa, aksincha yog'in miqdori juda kam hamda xudud bo'yicha notekis taqsimlangan.

Eng nam yog'in tushadigan joylar quyi Amudaryo, Qizilqumning g'arbi va Farg'ona vodiysining g'arbiy qismi hisoblanadi.

O'zbekistonning tog'oldi va tog'lari tomon yillik yog'in miqdori ortib boradi. Chunki yuqoriga ko'tarilgan sari haroratning pasayishi oqibatida kondensatsiyalanish jarayoni sodir bo'lib, yog'in vujudga keladi. Buning ustiga yog'inlarni asosan g'arbiy havo massalari olib kelganligi tufayli jumg'uriyat tog'larining g'arbiy, janubi-g'arbiy yonbag'irlariga yog'in shimoliy va sharqiy yonbag'irlariga nisbatan ko'p tushadi.

Havo bosimi va shamollar O'zbekiston xududiga uning yer usti tuzilishiga, quyoshning isitishiga bog'liq holda xudud va fasllar bo'yicha bir xil joylashgan emas.

O'zbekiston xududiga yozda iyul oyida havo bosimining o'zgarishi uning janubi-sharqidan shimoli-g'arbga qarab o'zgarib ortib boradi. Agar Surxon-Sherobod vodiysida 1001 mb. bo'lsa, Qarshi cho'lida 1003 mb. Quyi Zarafshon va Farg'ona vodiysida 1004 mb. Qizilqumning markazida 1006 mb shimoli-g'arbida esa 1008 mb.ni tashkil etadi.

O'zbekistonda shimoldan janubga borgan sari harorat ko'tarilib fasllarning boshlanish muddati o'zgarib boradi. Oradagi tafovut 20–25 kungacha yetadi.

Shu sababli mahalliy iqlimshunoslar O'zbekistonning iqlimini issiq va sovuq davrga bo'ladi. O'rtacha sutkalik harorati 50dan oshgan kunlar issiq davrga, aksincha 50dan pasaygan kunlar sovuq davrga kiritiladi.

Iqlim resurslariga issiqlik resursi, geliioresurs, shamol energiyasi va davolanishdagi ahamiyati kiradi.

O'zbekiston xo'jaligi, xususan qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan eng muhim omillardan biri bu issiqlik resursidir. Chunki qishloq xo'jalik ekinlarining pishib yetilishi, mevalarining shirin bo'lishi uchun ma'lum darajada issiqlik talab etiladi. Bu jihatdan qaraganda, O'zbekiston juda qulay issiqlikning resursiga ega.

O'zbekistondagi cho'l yaylovlarini suv bilan ta'minlashda, kichik maydonlarni sug'orishda shamol energiyasi asosida ishlovi nasoslar yordamida yer osti suvlaridan foydalanish mumkin.

O'zbekiston xududida foydali qazilmalarning bir qancha turlari borligi aniqlandi. Yoqilg'i, energetika boyliklari. Bu foydali qazilmalar guruhiga neft, gaz va ko'mir kiradi.

Neft va gaz konlari Farg'ona botig'ida, So'x, Alamushuk, Polvontosh, Chimyon, Sho'rsu va boshqa joylaridan topilgan Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlaridagi Rdamtosh, Gumbuloq, Pachkamar, Qizil bayroq, Omon ota kabi konlari topilgan.

Neft Sherobod-Surxon botig'idagi poleogon ohak toshlari qatlamlarida Xavodog, Uchqizil, ko'kayti va boshqa joylarda olinmoqda.

Gazning juda katta zahirasi Buxoroda Gazlida va Qashqadaryoda topilgan. O'zbekistonda ko'mirning to'rtta koni tor Ohangaron, sharg'un, Boysun, Ko'hitang kabi konlari ma'lum.

Rudali foydali qazilmalar O'zbekiston xududida qora metallar (temir, titan, marganets, xrom), nodir lektollar (volfram, molibden, qalay, vismut, simob, surma va boshqalar) topilgan.

Kimyoviy xom ashyolardan O'zbekiston xududida osh va kaliy tuzlari mavjud. Respublika xududida Boybichakon, Xo'jaikon, Tyubegatang, Oqbosh, Laylimkon va boshqalar bor. Bulardan tashqari respublikamiz xududida ko'plab foydali qazilmalarni topib aniqlangan. Mana shundan ko'rinish turibdiki, respublikamizning foydali qazilmalarga boy ekanligi.

3- MAVZU: ARXEOLGIK VA ME'MORIY YODGORLIKLARNING O'LKASHUNOSLIKDA TUTGAN O'RNI

REJA:

1. O'lkamiz tarixini o'rganishda arxeologiya fanining tutgan o'rni va ahamiyati. Moddiy manbalar va tabiiy manbalar.

2. Tosh davri xususiyatlari. Tosh xo'jaligi va moddiy madaniyati. Tarixiy-madaniy jarayonlar. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllariga (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik) o'tish va ularning keyingi taraqqiyoti.

3. Bronza va temir davrlari xususiyatlari. O'troq dehqonchilik va ko'chmanchi qabilalarning tarqalishi. Ularning xo'jaligi va moddiy madaniyati.

4. O'lkamizda Antik davri me'morchiligi va san'ati, ilk o'rta asrlar davri shaharlari va me'moriy obidalari.

5. O'zbekistonning XI–XIII asr boshlari me'moriy yodgorliklari va me'morchiligi. O'zbekistonning Amir Temur, Temuriylar va Shayboniylar davri memorchiligi asrlar davri me'morchiligi.

6. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonligi me'morchiligi. Mustaqillik davrida O'zbekistonda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari va ularning asosiy natijalari.

Arxeologiya tarixining tarkibiy qismi bo'lib ijtimoiy fanlar orasida alohida o'rin tutadi. «Arxeologiya» termini «arxayos» - qadimgi, «logos» - fan degan ikkita grekcha so'zning birikishidan tashkil topgan. Demak arxeologiya qadimgi bilimlar haqidagi fan degan ma'noni bildiradi. Lekin ilgari vaqtda arxeologiyani fanning qaysi sohasiga qo'shish to'g'risida bahslar bo'lib, ba'zilar uni qadimgi san'at haqidagi fan, yana boshqa birovlarining singan sopol idishlarni o'rganuvchi fan degan fikrlarni bildirganlar. Ba'zilar esa uni tarix fanining xizmatkori bo'lgan ikkinchi darajali fan deb tushunganlar. Tarix va arxeologiya aslida o'zaro chambarchas bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi yagona fanning ikkita sohasidir.

Insoniyat o'tmish davrlarini arxeologiyasiz o'rganib bo'lmas ekan. Arxeologiya insoniyatning o'tmish tarixini o'rganishda arxeologik ekspeditsiyalar natijasida ibtidoiy makonlar, qishloqlar, shaharlar, mudofaa va suv inshootlari, qoyatosh rasmlari hamda boshqa buramlarga suyanib ish ko'radi. Hozir O'rta Osiyoning barcha joylarida shahar, rayon, qishloqlarda arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda.

Topilgan arxeologik manbalarni shartli ravishda quyidagi ikki turga bo'lish mumkin:

1. Tabiiy manbalar (paleozoologiya, paleobotanika) - inson va hayvon suyaklari, o'simliklar qoldiqlari va geologik qatlamlar bo'lib ularni asosan zoologlar, botaniklar va geologlar o'rganadilar.

2. Inson tomonidan yaratilgan manbalar bo'lib, ular mehnat qurollari, yarog'-aslahalar, sopol idishlar, san'at va zeb-ziyinat uyamlari, qoyatosh rasmlar, yozuv hamda yozma manbalar va hokazolar. shuni aytish kerakki, yozma manbalarni tarixchilar, moddiy manbalarni o'rganish bilan arxeologlar moddiy buyumlar va yozma manbalarga tayanib ish ko'radilar.

O'rta Osiyo qadimgi Sharq tarixining ajralmas qismini tashkil etadi. Kishilik madaniyatining ilk markazlaridan biri hisoblanadi. O'rta Osiyo tabiiy iqlim sharoiti, xilma-xil hsiqlik va hayvonot dunyosiga boy iqlim sharoiti asosan mo'tadil bo'lganligidan insonning yashashi uchun juda qulaydir. Bu hol esa ibtidoiy va qadimgi kishilar diqqat e'tiborini tortmasdan mumkin emas edi. Shu tufayli odamlar bu o'lkada juda qadim zamonlardan boshlab yashagan. O'lkaning hamma yerida ibtidoiy va qadimgi davr kishilari qoldirgan xilma-xil obidalar - tosh asri makonlari, g'orlari, bronza davri qishloqlari va mozorlari, temir davri qal'alari va shaharlarning xarobalari, qoyatoshga ishlangan rasmlar, sug'orish inshootlarining qoldiqlari, qadimiy mudofaa devorlarining qoldiqlari juda keng tarqalgan.

Arxeologiya qazishmalarida topilgan moddiy manbalarni o'rganish bilan birga har xil yer qazish ishlarida tasodifan topilgan narsalarni, shu jumladan xazinalarni ham o'rganadi. Yer tagida yotmagan moddiy manbalar ham bor. Masalan o'rta asr xazinalaridan qolgan buyumlar va naqshinkor eski binolar va hokazolar ana shunday manbalardir. Arxeologlar ularni ham o'rganadilar.

Tosh, metall, sopol va yog'ochdan yozuvlarni o'rganadigan epigrafika fani, tanga pullarni o'rganadigan numizmatika fani, muhrlarni o'rganadigan sfragistika fani, gerblarni o'rganadigan heraldika fani kabi arxeologiyaning bir qancha alohida tarmoqlari bor. Arxeologiya tarixga oid fan bo'lib qolish bilan birga qazishmalardagi kuzatmalarni izohlab bermoq uchun geologiya, botanika, zoologiya va antropologiya ma'lumotlaridan foydalaniladi va shu bilan birga o'zi ham o'sha tabiat fanlariga qimmatli materiallar beradi.

O'rtas Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy yodgorliklarini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Bu o'lka Rossiyaga qo'shib olingach, bu yerga turli kasbdagi kishilar ko'plab kela boshladi. Ular orasida mahalliy moddiy yodgorliklarga qiziquvchi kishilar ham bor edi.

V. V. Bartold, V. A. Jukovskiy, N. I. Veselovskiy kabi mashhur sharqshunoslar A. P. Kun, V. L. Lyatkin, I. T. Poslovskiy, N. P. Ostroumov va boshqa havaskorlar O'rta Osiyoning arxeologiyasi va tarixini o'rganishda o'zlarining xizmatlarini qo'shdilar. Mahalliy havaskorlarda Akrom Asqarov, M. Mirmuhammedovlarning ishlari ham diqqatga sazovor. 1895- yilda V. Bartoldning bevosita rahbarligida va taklifi bilan «Turkiston arxeologiyasi havaskorlari to'garagi» tuzilib, uning ustavi tasdiqlanadi. O'rta Osiyo arxeologiyasining rivojlanishida S. P. Tolstov, M. Ye. Masson, M. M. Dyakonov, A. P. Okladnikov, M. M. Gerasimov, Ya. Yu.

Yakubovskiy, Ya. F. G'ulomov, V. A. Shishkin, B. A. Litvinskiy va G. A. Pugachenkova singari mashhur arxeologlar o'lkamiz tarixini o'rganishda o'zlarining juda katta hissasini qo'shdilar.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, so'nggi yillar ichida ham arxeologlarning katta gruppasi yetishib chiqdi. A. Asqarov, A. Muhammadjonov, O'. Islomov, I. Albaum, Yu. F. Buryakov, R. H. Sulaymonov, A. S. Sagdullayev, N. Ne'matov, A. Ranov, V. Vinogradov, E. V. Rtveldadze, M.Jo'raqulov va boshqalarni aytish mumkin. Hozirgi kunda ham O'rta Osiyo arxeologiyasining o'rganilishi ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu ish bilan maxsus institutlar, universitet va pedagogika institutlari, ruspublika va viloyat muzeylari qoshidagi kafedralar va bo'limlar shug'ullanmoqda.

1908 yilda Samarqandda V.L.Lyatkin tomonidan Ulug'bek rasadxonasining qoldig'i topilib tekshirildi. 1925-30 yillarda ham ish olib bordi. 1926-28 yillarda Termizda B.P.Deneke, 1929-1930 yillarda Potapovlar Farg'ona vodiysida ham arxeologik qazishma ishlari olib borilgan. S.P.Tolstov boshchiligidagi guruh Xorazmda, V.A.Shishkin boshchiligidagi guruh Buxoro viloyatining Farbiy qismida tekshirishlar o'tkazdilar.

1938 yilda A.P.okladnikov tomonidan Boysun tog'ining Teshiktosh deb atalgan g'oridan topilgan yodgorliklarni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bu yerda o'tkazilgan arxeologiyaga oid izlanishlar natijasida ko'pgina ashyoviy dalillar bilan bir qatorda For devorining ostidan 9 yashar bolaning qabri ham topilgan.

1946 yilda urgutmanining Omonqo'ton degan joydan o'rta paleolit davriga oid mehnat qurollari topildi. 1980 yildan boshlab U.Islomov Farg'ona viloyatida Selung'ur g'orida arxeologik tadqiqotlar olib bordi va yangi kashfiyotlar qildi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bizning universitetimiz tarix fakulteti professor-o'qituvchilari va talabalari asosan Qashqadaryo vohasida arxeologik amaliyotni olib boradilar. Amaliyot natijasida bir qancha yangiliklarni izlab topdilar. Qashqadaryo vohasida miloddan avvalgi VII-IV asrlarga oid 30ta yodgorlik ma'lum. Ular alohida daryolar bo'ylab joylashgan bo'lib umumiy suv manбайдan foydalanilganligi, ularda qadimgi sug'orish yoki dehqonchilik vohalarini qurish imkonini beradi. Hozirgi davrda oltita shunday vohalarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin: Yerqo'rg'on - Yerqo'rg'on va Qorovultepa yodgorliklari; Qizildaryo vohasi - Chiroqtepa va Jartepa; Guldaryo - Qo'rg'oncha va Beshqo'rg'ontepa; Qayrag'ov - Daratepa, Qayrag'ochtepa, To'rtburchaktepa, Somontepa va Ko'zatepa yodgorliklari; Tanxozdaryo vohasi - Nomsiztepa, Saratepa 1,2,3 va Sho'rabsay vohasi - Sangirtepa, Podayotoq, Uzunqir va boshqalar.

ToshDU O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasining 1976-1979 yillarda A.S.Sagdullayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qashqadaryo vohasining sharqiy qismidan ham bir qator ilk temir davriga oid yodgorliklari ochildi. Daratepada o'tkazilgan ko'p yillik tadqiqotlar natijasida bu xudud uchun xos bo'lgan miloddan avvalgi VII-IV asrlarga oid turli turar joylar tuzilishi qazib o'rganildi. 1986 yildan boshlab ToshDU arxeologlari tomonidan Sangirtepa va Uzunqir yodgorliklarini o'rganish borasidagi ishlar davom ettirildi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida yodgorliklarning ilk bor o'zlashtirilishi davri miloddan avvalgi VIII-IX asrlarga oid ekanligi aniqlandi. Yurtimizning qadimgi davriga oid arxeologik ma'lumotlar juda ko'p asarlarda bayon qilingan. S.P.Tolstovning «Qadimgi Xorazm», «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab», Ya.F.Fulomovning «Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda», «Baqtriya haqida afsona», A.Muhammadjonovning «Qadimgi Buxoro», Yu.F.Buryakovning «Toshkent vohasining qadimgi karvon yo'llari» va boshqa mualliflarning asarlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki enguzoq davom etgan bosqichi paleolit deb ataladi. Arxeologik nuqtai nazardan qadimgi tosh asri uch davrga bo'linadi: paleolit (qadimgi tosh davri - «palayos» - qadimgi «litos» - tosh); odam mil.avval 3-3,5 million yil ilgari paydo bo'lgan. Engqadimgi topilmalar Sharqiy Afrikaning Olduvay darasidan topilgan bo'lib, Olduvay madaniyati deb yuritiladi. Ilk paleolit Ashel davri mil.avval 700-100 yilliklarni o'z ichiga oladi. O'rta Osiyoda ilk paleolit davri yodgorliklari 700-500-100 ming yilliklar davriga oid bo'lib ashel davri deb ataladi.

O'rta paleolit. Bu davr Mustye davri madaniyati deb nomlanadi (mil.avval 100-40 ming yilliklar). So'nggi paleolit. 40-30-12 ming yilliklar ilk paleolit davriga oid makonlar Selung'ur, Uchtut (Buxoro), O'narcha (Qirg'iziston), Qoratog' (Tojikiston) va boshqa makonlarni keltirish mumkin.

Mazkur davr kishilarining qurollari o'zining soddaligi, qo'polligi, turlarining kamligi jihatidan keyingi davrlardan farq qiladi. Odamlari aqliy va jismoniy tomonlardan ham farq qiladi.

O'rta paleolit (Mustye madaniyati) - qadimgi tosh davrining bir qismi Markaziy Osiyoda. Bu davrning eng mashhur yodgorliklariga Teshiktosh, Obirahmat, Xo'jakent, Ko'lbuloq, Qo'tirbuloq, Uchtut va boshqalarni kiritish mumkin. O'rta tosh davriga kelib ibtidoiy kishilar O'rta Osiyoning butun maydonlariga keng tarqaladi. Mehnat qurollari takomillasha boradi. Eng muhimi ibtidoiy to'dadan urug'chilik jamoasiga o'tila boshlanadi. Sovuq iqlim tufayli sun'iy olov chiqarish va uni saqlashni o'zlashtiradi, diniy tasavvurlar paydo bo'ladi.

So'nggi paleolit - bu davrga oid yodgorliklari nisbatan kam o'rganilgan. Ohangarondan so'nggi paleolit davriga oid Ko'lbuloq makoni ochilgan. Toshkentning g'arbida Bo'zsuv I makoni va 1939 yilda Samarqand shahrida ham shu davrga oid makon ochilgan.

So'nggi paleolitdan boshlab ibtidoiy odamlar g'ordan chiqib yengil turar joylar qura boshlaganlar. Natijada ular faqat tog'li xududlarda yashab qolmay, vohalar bo'yab tarqalib, tekisliklarda daryo va ko'llar sohillarida joylasha boshlaydilar. So'nggi paleolitga kelib antropogenez jarayoni tugallanadi, zamonaviy odamlar paydo bo'ladi (kramanon). Yana bu davrning o'zimga xos xususiyati ibtidoiy to'dadan urug'chilik tuzumiga (matriarxat) o'tiladi. Xo'jalik yuritishning eng oddiy yo'llaridan (terib-termachilik) murakkabroq ko'rinishlari (ovchilik, baliqchilik)ka o'tdilar. Mehnat qurollari takomillashib uning turlari ko'paya boradi.

Mezolit davri. Bu davrning katta yutuqlaridan biri - kamon va o'qning kashf etilishidir. Shuningdek bu davrda ibtidoiy san'at paydo bo'ldi. Hayvonot va o'simliklar dunyosi o'zgaradi. Bu davrga oid makonlar Machay g'or makoni (Boysun), Farg'ona vodiysida Obisher g'or makoni topilgan. Markaziy Farg'onadan 80ga yaqin mezolit davri yodgorliklari topilgan mehnat qurollarida ham o'zgarishlar bo'ldi. Trapetsiya va uchburchak shakldan mayda qurochalar - mikropitlar paydo bo'ladi. Suyakdan igna va bigiz qurollarining topilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Neolit uzoq davom etgan tosh asrining so'nggi va yakunlovchi bosqichidir. Neolit so'zi ham grekcha so'zdan olingan bo'lib, ya'ni tosh asri degan tushunchani bildiradi. Arxeologiya faniga neolit tushunchasini ingliz arxeologi Lebbok olib kirgan.

Neolit davri kishilarning eng katta yutuqlaridan biri kulolchilik bo'lib, ular loydan har xil idishlar yasashni va ularni olovda pishirishni o'rgandilar. Bu o'sha zamon uchun katta kashfiyot edi.

Neolit davrida odamlar rangli va oddiy metallar bilan tanishganlar. Bu davrda to'qimachilikning kashf etilishi ham dastlabki suvda suzuvchi qayiqsozlikning ixtiro etilishi neolit davrining yutuqlaridan biri. Bu davrga kelib o'zaro buyum almashinuvi rivojlanadi. O'rta Osiyoning janubiy yerlarida xususan Kopetdog' etaklarida sug'orma dehqonchilik va ilk chorvachilik qaror topib dashtlarda katta-kichik daryo va ko'llarning sohilida ovchilik va baliqchilik rivoj topa boshlaydi.

O'rta Osiyoda yashagan neolit qabilalari xo'jalik shakllariga ko'ra Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatiga bo'lib o'rganiladi. Ular sanasining yuqori sanasi mil.avval VI ming yillik, quyi chegarasi esa VI-III ming yilliklar bilan belgilanadi. Bu paytda guvaladan turar joylar barpo etila boshlaydi.

Eneolit O'rta Osiyoda ham neolitdan farq qiladi. Eneolit lotincha - mis tosh davri. O'rta Osiyoda quyidagi yangi madaniy-tarixiy jarayonlar eneolit davri bilan bog'liq:

1. Xo'jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda haydama dehqonchilikning ustunlik qilishi;
2. Toshdan ishlangan qurollar ko'p bo'lgan holda mis qurollarning paydo bo'lishi;
3. Katta-kichik ibtidoiy jamoalarning paxsadan va xom g'ishtdan tiklangan katta-katta uylari;
4. Kulolchilikda muhim texnika yutug'i - xumdonlarning ishlatilishi;

5. O'troqlik xo'jaligining rivojlanishi, ibtidoiy jamoa birlashmalarining uylari va qurilishida xom g'ishtning paydo bo'lishi;

6. Turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug'i tuzumi (matriarxat)ga xos haykalchalar;

7. Rangdor sopol buyumlari, ya'ni turli tasvirlar ishlangan sopol buyumlarning mavjudligi.

Bronza davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyildashi va mil.avval 2 ming yillikning ikkinchi yarmida chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Bu tarixiy jarayon- kishilik jamiyati taraqqiyotidagi chiqarishda hukmronlik qilimsh erkaklar qo'liga o'tadi va ona urug' tuzumi o'rmini ota urug'i (patriarxat) tuzumi egallaydi. Bronza davriga oid yodgorliklar Tozabog'yob madaniyati (Xorazm), Zamonbobo (Zarafshon vohasi), Sopollitepa (Surxondaryo) va boshqa ko'pgina bu davrga oid yodgorliklar topib o'rganilgan.

Temir davri. Ilk temir davri (mil.avval VII-V asrlar). Qadimgi Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm, Marg'iyona ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi. Bu davrni o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu davrga oid yodgorliklar juda ko'p topilgan. Foshchimullo, Qizilcha (Surxondaryo), Daratepa Afrosiyob lolazor (Qashqadaryo va Samarqand), Ko'zaliqir, Quysisoy (Xorazm), Dalvarzin, Oqtom, Dasti asht (Farg'ona) va boshqa manzilgohlar topib o'rganilgan.

Kushon davri O'rta Osiyo halqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatida jiddiy o'zgarishlar bo'lganligibilan izohlanadi. O'rta Osiyoning janubiy va shimoliy Afg'onistondagi arxeologik tadqiqotlar Yunon-Baqtriya va Kushon-Baqtriya madaniyati gullab yashnaganidan dalolat beradi. Dastlabki yodgorliklar Ayritom va ko'xna Termizda 30-yillarda ochilib, 60-yillarda davom ettiriladi. Keyinchalik ko'xna Termiz yaqinidagi Qoratepa budiylilik ibodatxonasi, fayoztepa, Xolchayon va Dalvarzin ko'hna shaharlari ochilib nihoyat yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Ayritom ko'hna shahridan topilgan uylarning peshtoqlarida gullarga burkangan, musiqa asboblari chalib turgan qizlar va do'mbira chalib turgan bolalarning tasviri tushirilgan. Denov nihoyasida Xolchayon yodgorligining qoldiqlari saqlanib qolingan shaharning paydo bo'lishi mil.av.1 ming yillikning o'rtalalriga to'g'ri keladi. Rivojlanish jarayoni Kushonlar davriga to'g'ri keladi.

Dalvarzin yodgorligi u ko'xna shahar bo'lib, Kushon Davlatining dastlabki poytaxti bo'lgan degan fikrlar mavjud. 1972 yilgi qizishmalarda bu yerdan 30 kg ortiq tilla buyumlar xazinasi topilgan. 115ta har xil taqinchoqlardan iborat bo'lgan.

Kushon davri madaniyati namunalari yana biri qadimgi Xorazm hududidan Tuproqqal'a shahri bo'lib, milodning 3-4 asrlariga oid bu shaharning kushonlardan alohida bo'la boshlagan dastlabki Xorazm hokimlaridan biri qurdirgan. Qazilmalar natijasida turli devoriy suratlar va haykallar bilan bezatilgan zallar va boy xonadon uylari ochildi. Tuproqqal'a topilmalari, O'rta Osiyoning chekka viloyatlari hunarmandlari ham Kushon san'ati va madaniyatini saroylar, ibodatxonalar, uylar qurishda keng foydalanilganliklarin, o'rsatadi.

Eftalitlar davridan ham O'rta Osiyoda me'morchilik yaxshi rivojlangan. Shu davr qasrlar qurilishi ayniqsa ahamiyatli bo'lgan. Qasrlar odatda ikki qavatli, shipi tekis gulbazsimon va rovonsimon yopilgan bir nechta xonadon iborat bo'lgan. 5 asrdan boshlab saroy qasrlar qurilishida paxsa va xom g'isht bilan bir qatorda kirpich (pishiq g'ishtlar) ham ishlatina boshlagan. Saroy va ibodatxonalar devorlari odatda rangdor tasvirlar bilan bezatilgan. Bunday tasviriy san'at namunalari biri Bolaliktepa (Surxondaryo) qasri devorlarida qayd etilgan. Eftalitlar me'morchiligining ajoyib namunalari biri Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyi bo'lgan. Bu qo'rg'on ulkan to'rtburchak shakldagi tepa ustiga qurilgan. Devorlari ganch qilinib suratlar bilan bezatilgan.

IX–X asrlarda me'morchilik san'ati va qurilishi uslubi o'z taraqqiyotida yana bir bosqich yuqoriga ko'tariladi. Bu davr qurilishida avvlgi asrlardagi kabi xom g'isht va paxsa asosiy qurilish materiali hisoblangan. Somoniylar davrida Movarounnahr hamda Xuroson me'morchilik san'atining yuqori taraqqiyotidan yorqin dalolat beruvchi yodgorlik bu - Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasidir. Bu maqbara hozirgacha borganni hayratga solib turibdi. Somoniylar davri me'morchilikning nodir namunalari Karki (Turkmaniston) yaqinidagi Alambardor, Uzun (Surxondaryo) yaqinidagi Ho'ja Naxshron, Qaramanadagi Mir Said Baxrom maqbaralarida ham

uchratish mumkin. Bu yodgorliklar ham IX–X asr me'morchiligi yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

4-MAVZU: PALEONTOLOGIK VA ETNOGRAFIK MA'LUMOTLARNING O'LKA TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

REJA:

1. O'lkashunoslikni o'rganishda paleontologik ma'lumotlarning o'rni. Antropologiya va etnologiya fanining tadqiqot ob'yektlari.

2. O'zbekistonning qadimgi odam tarqalgan hudud ekanligi (Teshiktosh, Samarqand topilmalari). O'zbekiston hududida zamonaviy odamlarning paydo bo'lishi va voha bo'ylab tarqalishi. Qadimda o'lkamizda majud bo'lgan irqlar, mongoloid irqining o'lkamizga kirib kelishi.

3. O'lkamiz qadimgi aholisining antropologik shakllari va tipi. Toshkent vohasining qadimgi aholisi. Kushon, Baqtriya aholisi, Zarafshon vohasi aholisi, Farg'ona vodiysining qadimgi aholisi.

4. O'lkamizdagi etnik guruhlar (So'g'dlar, baqtriyaliklar, xorazmlilar, sak va massagetlar). Antik davri migratsiyalari va etnik jarayonlari. O'rta asrlarda turkiy tilli xalqlarning kirib kelishi masalalari va uning bosqichlari. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining etnik tarkibi.

5. O'lkamiz etnografiyasining o'rganilishi. Dastlabki etnografik ma'lumotlar. Qadimgi va o'rta asrlarda yaratilgan manbalarda etnografik ma'lumotlar. Rossiya va Yevropa tadqiqotchilari tomonidan o'lkamiz etnografiyasining o'rganilishi. Qadimgi diniy tasavvurlar, urf-odat va irimlar.

O'lkashunosligimizni o'rganishda antropologik manbalar ham katta ahamiyat kasb etadi. Antropologiya - odam haqidagi fan bo'lib, inson suyaklari qoldiqlarini tosh davri odamidanda tortib keyingi davr odamlarigacha bo'lgan ajdodlarning jismonan qiyofasini tiklash imkonini beradi. 1956–1960- yillarda sharqiy Afrikadagi Olduvay darasida ingliz olimi L.Liki avstrolopiteklarga mansub bo'lgan mavjudod - zanjantrop va prezinjantrop - «ishbilarmon odam» qoldiqlarini va oddiy tosh qurollarini topgan. Ular bundan 1750000 yil oldin yashagan degan fikrni bildirdi. Liki o'g'li Richard Liki Keniya va Efiopiya territoriyasidan avstrolopitek va prezinjantrop singari mavjudodlarning suyak qoldiqlari va mehnat qurollarini topadi.

Efiopiya prezinjantropi ham «ishbilarmon odam» deb bundan 2,5-3 million yil muqaddam yashagan ekanlar. Bu «ishbilarmon odamlar» - arxantrop (grekcha *rxayos* - dastlabki, antropos - odam) toshdan mehnat qurollari yasash qobiliyatiga ega bo'lganlar. Afrika arxantropi yer yuzidagi eng qadimiy qazilma odamlarning dastlabki vakillari hisoblanadi.

Agar Shimpanze maymuni miya qutisining hajmi 350-400 sm.kubni tashkil etsa, «ishbilarmon odam» miya qutisining hajmi 670-680 sm.kubni tashkil etgan.

1891-1892 yillarda gollandiyalik olim E.Dyubua Indoneziyadagi Yava orolidan pitekanthrop (grekcha pitekos - maymun, antropos odam) maymun-odamning suyak qoldiqlarini topishga muvaffaq bo'ldi. Uning miya qutisining hajmi 800-900 sm.kub bo'lgan. Endilikda pitekanthrop Afrikaning «ishbilarmon odam»idan keyingi bosqichda turuvchi 1,5-1,9 million yilga borib taqaldi.

1927 yilda Pekin shahri yaqinidan kanadalik olim D.Blek tomonidan topilgan Sinantrop Xitoy odami ham eng qadimgi odamlar arxantropi hisoblanadi. Sinantropi pitekanthropi qaraganda ancha rivojlangan. Uning yoshi 400-500 ming yil ilgari yashagan.

Uzluksiz mehnat jarayonida arxantropi jismoniy jihatdan rivojlanib qadimgi odamlar - neandertallarning shakllanishi uchun zamin yaratilgan. Arxantropidanda keyingi bosqich kishilari fanda qadimgi odamlar nomi bilan mashhur bo'lib, tadqiqotchilarning fikricha ular zamonamizdan 50-100 ming yil oldin yashaganlar. Qadimgi odamlar qazilma qoldiqlari dastlab

1964 yillarda Ispaniyaning Gibraltir bo'g'ozida rayonidan, so'ngra 1970 yilda Germaniyaning neandertal vodiysidan topilgan jatinom nomidan kelib chiqib, bu odamni neandertal deb atash rasm bo'lgan.

Neandertallarning tashqi qiyofasi va fikrlashida soddalik, maymunga xos belgilar saqlanib qolgan bo'lib, ularning bosh miyasi u qadar rivoj topmagan edi. Lekin ular arxantropolardan juda uzoqlashib ketib, hozirgi qiyofadagi odamlarga juda yaqinlashib qolgan edilar. Insoniyat o'zining hozirgi qiyofasiga yetib kelguncha 10-15 million yillik katta tarix davrini bosib o'tdi. Bu kishilar fanida Xoma Sapiyeris - aql-idrokli odamlar deb ataldi.

Toshkent vohasining qadimiy aholisi.

Toshkent vohasi va shahri qadimiy aholisining antropologik tarixi to'g'risida so'z yuritish ekanmiz, quyidagilarni ta'kidlab o'tishimiz zarur. Bu xudud aholisining tarixiga oid antropologik materiallarning eng qadimgisi eramizdan avvalgi 1 ming yillikning o'rtalariga to'g'ri keladi. Bundan qadimiyroq ma'lumotlarga hozircha ega emasmiz. Lekin bu davrlarda yashagan aholining antropologik xususiyatlari to'g'risida Toshkent vohasiga qo'shni va yaqin madaniy aloqada bo'lgan xududlardan topilgan materillarga asoslanamiz. 3-4 ming yil ilgari O'rta Osiyo xududida yashovchi qabilalar antropologik jihatdan ikkita katta guruhga bo'lingan va qiyofaga ega bo'lgan. Ma'lumki, har bir katta irq vakillari muhim antropologik belgilar asosida bir necha mayda irqiy guruhlarga yoki antropologik tiplarga bo'linadi. O'rtas Osiyoda yevropeoid irq ikki katta guruh - shimoliy yevropeoid tipi (ilmiy asarlarda protoyevropeoid tipi yoki andronov tipi bilan ma'lum) va ikkinchisini janubiy yevropeoid tipi (O'rta yer dengizi hind-afg'on, hind-O'rta yer dengizi tipi nomlari bilan ma'lum) deb ataganlar.

O'rta Osiyoda bu ikki irq vakillari bronza davrida bir-biriga qo'shni joylashganlar. Biz olib borgan ilmiy ishlar natijasida ikki yirik irqiy guruhning chegarasi Ustyurt, Janubiy Orol, Zarafshon va Farg'ona vodiylari orqali o'tganligini aniqladik.

Bundan Toshkent vohasining aholisi Shimoliy guruh tarkibiga kirib xududda Andronov irq belgilarini o'zida mujassamlashtirgan, degan fikr kelib chiqadi. Xo'sh, shunday ekan bu odamlarning tashqi qiyofasi qanday bo'lgan, degan savol tug'iladi. Ular baland bo'yli (erkaklar bo'y o'rtacha 170-172 sm, ayollar esa 163-165 sm atrofida), jismoniy jihatdan baquvvat bo'lganlar. Ularning bosh va yuz tuzilishlariga kelsak, boshlarining shakli cho'zinchoq (dalixakrani), keng peshonali qosh, suyagi burtmalari kuchli rivojlangan, betlari keng. Ammo baland emas. Burunlari esa qirra va bet sathidan ancha yuqori ko'tarilgan, lablari ingichka bo'lgan. Ko'rib turibmizki, bu odamlarda yevropeoid irqiga xos barcha belgilar namoyon. Janubiy yevropeoid irqi vakillari esa O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari, shimoli-g'arbiy Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Kavkaz va Yaqin Sharqda keng tarqalgan. Shunday qilib bronza davrida Toshkent vohasida protoyevropeoid (Andronov) tipiga xos odamlar yashagan ekan, degan xulosaga kelish mumkin. Ular antropologik tipi jihatidan Sharqiy Yevropa, Qozog'iston, g'arbiy Sibir xududlarida yashagan Andronov, Srubnaya madaniyatlari aholisi kabi antropologik qiyofaga ega. Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, Janubiy yevropeoid tipiga ega qabilalar kam miqdorda bo'lsa ham Shimoliy xududlarga ko'chib tarqalganligi aniqlandi.

Antropologiya fanida O'rta Osiyo xalqlarining shakllanish tarixida har xil tipdagi yevropeoid alomatlarini o'zida saqlagan urug' va qabilalardan tashqari mongoloid irqi xususiyatlariga ega bo'lgan qabilalar ham ishtirok etganligi to'la isbotlangan.

O'rta Osiyo xududiga, qisman Toshkent vohasiga qachondan boshlab mug'uliy belgilarga ega qabilalar kelganligi haqida qisqacha tahlil berib o'tamiz. Ba'zi bir antropologik ilmiy ishlarda mug'uliy tipdagi odamlar O'rta Osiyo xududiga milodning birinchi asrlaridan kela boshlagan, degan fikrlar mavjud edi. Antropologik ashyolarning ko'payib boshlaganidan keyin mug'uliy tipdagi qabilalar birinchi asrlarda O'rta Osiyoning butun xududlariga barobar tarqalmasdan, ular Tyan-Shan va Oloy tog'laridagi kichik vodiylarga kelib joylasha boshlagan. Lekin ular O'rta Osiyo markaziy va janubi-g'arbiy viloyatlariga o'tmagan degan fikrlar o'rtaga tashlanadi. Bu mug'uliy tipdagi odamlarni Sharqiy Osiyo xududidan kelgan Gunn qabilalari bilan bog'lashdi.

Surxon vohasining qadimgi aholisi.

Kushon Baqtriyasining paleoantropologik tadqiqi tarixi haqida nima deyish mumkin? Bundan 40 yilcha muqaddam Kushon Baqtriyasi aholisining antropologik xususiyatlari haqida birorta muayyan tushuncha yo'q edi. Arxeologlarning, xususan M.Ye.Masson rahbarligida olib borilgan Termiz kompleks arxeologiya ekspeditsiyasi hamda I.M.Dyakonov rahbarligidagi tojik-so'g'd ekspeditsiyasining tadqiqotlari natijasi o'laroq antropologlar Kushon Baqtriyasi aholisining jismoniy qiyofasini o'rganishga muvaffaq bo'ldilar. Janubiy Tojikistondagi to'pxona shahristonida dafinalar ochildi.

50-yillarning boshlaridagina ilk paleoantropologik ashyolar topilgan va ular O'rta Osiyo antropologiyasining bilimdoni Vul Venmaminovich Ginzburg tomonidan tadqiq etilib, nashr qilindi. Keyinroq Janubiy Tojikistonda Kushon Baqtriyasining ko'chmanchi-chorvador aholisidan qolgan kechki Tulxar va Orixto'v qo'rg'on qabrlaridan ko'plab antropologik ashyolar topildi. Ularni tadqiq etish natijalari shunday qat'iy xulosaga olib keldiki, Kushon Baqtriyasi aholisi yevropeoid irqining har xil guruhlari bilan xususan Kushon Baqtriyasining qishloq aholisi, asosan Sharqiy O'rta yer dengizi irqining belgilari bilan ifodalangan. Kushon Baqtriyasining qishloq aholisi uchun qanday morfologik va irqiy xususiyatlar xos bo'lgan? Birinchidan, ular uchun boshning cho'zinchoq shaklda bo'lishi xosdirki, u antropologiya fanida «dolixokefaliya» (dolixo - uzun, kafaliya - bosh) deb ataladi. Ularning yuzi ingichka, cho'ziq yoki o'rtacha darajada cho'ziq bo'lib, burni tor, lekin sezilarli darajada bo'rtib turgan.

Masalan, qishloq aholisi antropologik tip jihatidan o'zgarishlarga uchramaydi va bronza hamda ilk temir davri aholisiga xos irqiy xususiyatlar bilan fiodalananaveradi. (T.Xo'jayov). Kushon Baqtriyasining shahar aholisi esa o'z tarkibida qishloq aholisiga xos irqiy xususiyatlar bilan bir qatorda O'rta Osiyoning shimoliy cho'l yerlaridagi chorvador aholi ko'pincha mongoloid aralashmasi yevropeoid guruhiing ta'sirida - Kushon Baqtriyasida O'rta Osiyo Ikki daryo oraig'i irqining asosiy xususiyatlari shakllanadi. U hozirgi o'zbeklar va tekisliklarda yashovchi tojiklarni ifodalaydi. Yuqorida aytilganlarga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, Kushon Baqtriyasining paleoantropologik ashyonlarda butun O'rta Osiyo uchun xos bo'lgan tarixiy qonuniyatni ochishga muvaffaq bo'ldi. Uning mohiyati shundaki, antik davrda kelgan ko'chmanchi - chorvador qabilalar shahar muhitga kirib borib mahalliy aholi bilan aralasha borgan. Ular chamasi qishloq aholisi bilan nikohda kam bo'lishgan yoki bo'lishmagan. Qishloq joylardan ko'chib kelgan qabilalar kamdan-kam uchraydi. Shimoliy Baqtriyaning cho'l qismida chorvador qabilalar zich yashagan, bunga zich joylashgan o'lka qo'rg'on qabrlari shahodat berib turibdi.

Zarafshon vohasi aholisi.

Zarafshon vohasi xududi Yevroosiyoning yevropeoid va mug'uliy kabi ikki asosiy irq o'rtasida chegaraviy zonani tashkil etadi. Bu katta irqlar ming yillar davomida ko'plab mayda irqiy guruhlarga bo'linib ketgan. Irqiy belgilar odamlarning turli guruhidagi madaniy-iqtisodiy darada bilan mutlaqo bog'liq bo'lmasa ham, ko'p hollarda u yoki bu guruhning o'zaro tarixiy aloqasi va bir-biriga ta'sirini ko'rsatuvchi muhim dalil hisoblanadi. So'g'd, Zarafshon va Qashqadaryo daryolari havzasida joylashgan (hozirgi O'zbekiston va qisman Tojikiston davlatlari xududi) eng qadimgi davlatlardan biridir. Bu o'lka ilk bor eramizdan avvalgi 1-ming yillikning o'rtalariga oid tarixiy manbalarda qayd etilgan. Sug'diylar Sharqiy ron tili guruhida gaplashgan, shuningdek tili, turmush tarzi, madaniyati jihatidan baqtriyaliklarga, xorazmliklar va shakllarga juda o'xshash bo'lgan. Ular uzun ishton, belbog'li ko'ylak, boshiga esa yarim aylana qalpoqcha kiyganlar va shakllarnikiga o'xshash uzun hanjar taqilgan.

1971 yilda arxeolog G.V.Shishkin Afroosiyobning shimoliy qismida o'rta asrarga oid juda qalin qatlam ostidan eramizdan avvalgi 5-asrga oid, ya'ni bundan 2500 yil ilgari yashagan odam skeletini topdi. Suyaklar kimyoviy moddalar yordamida tegishli ishlov berilganidan keyin u antropologiya kabinetlarida o'rganildi. Skelet qadimgi so'g'dlik erkak kishining suyagi bo'lib, u chamasi 45-50 yoshlarda, bo'y 170-172 sm. Tiriklikdagi vazni 68 kg.ga yaqin bo'lgan. Ularning bosh tuzilishi hozirgi o'zbek va tojiklarga o'xshash va orqa tomoni yassi bo'lgan. Bu esa O'rta Osiyoda bolani beshikka yotqizish qadimdayoq keng tarqalganligini ko'rsatadi. Sug'dlarning

peshonasi tik va keng qirraburun bo'lgan. Beti o'rtacha kenglikda, lekin mug'uliy irqqa xos yuz yapaloqligi ko'rinmaydi. Bu belgilar sug'dliklarning yevropeoid irqiga mansub ekanligidan dalolat beradi. Ular o'zining irqiy xususiyatlari bilan shu davrdagi Shimoliy Baqtriya odamlariga o'xshaydi. Demak yevropeoid irqiga mansub o'zbeklarga va tekisliklarda yashovchi tojiklarga xos tip eramzdan avvalgi 1-ming yillik o'rtalaridayoq Sug'd xududida tarqalgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida aytilgan antropologik tipdan tashqari sug'dliklar orasida uzun boshli O'rta yer dengizi irqi ham keng yoyilgan. Chunki O'rta Osiyoning qadimiy xalqlari yuqori paleolit va mezolit davrlarida aynang O'rta yer dengizi irqiga mansub bo'lgan.

Samarqand yaqinidagi Kofir qal'a va Buxoro viloyatidagi Poykentda olib borilgan arxeologik qazishmalar paytida topilgan o'rta asr odam suyaklari Sug'd xududida yashovchi xalqlar avvalgiday yevropeoid O'rta Osiyo Ikki daryo oralig'i antropologik tipi bilan tavsiflanishini ko'rsatadi. Eramizdan avvalgi 1-ming yillik o'rtalarida to milodning VI asrlarigacha, ya'ni taxminan ming yil davomida Sug'dda yashagan aholining antropologik xususiyati - tashqi qiyofasi juda kam o'zgargan. Sug'dliklar orasida ko'pchilikka xos bo'lgan O'rta Osiyo Ikki daryo oralig'i antropologik tipdan tashqari boshqa antropologik tiplar ham uchraydi. Bunga VI-VII asrlarga oid Panjikent antropologik materiallari dalil bo'la oladi. Panjikentda bu davrda yevropeoid irqiga mansub ikki guruh aholi yashagan. Ikki guruh kishilarining bosh tuzilishi shakli bir-biridan farq qiladi. Shu bilan birga mazkur guruhlardagi ko'pchilik erkaklarning boshi uzun, ayollaridan boshi esa dumaloq shaklliligi Panjikent aholisining VI-VIII asrlarga aralash bo'lganligini ko'rsatadi. Shunday qilib ilk o'rta asrlarda sug'd aholisining shakllanishida boshqa irqqa mansub aholi ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Milodiy ming yillikning ikkinchi yarmida Sug'd aholisining tarkibiga mug'uliy irqiy belgilar aralashuvini ko'ramiz. Antropologik materiallardan ma'lum bo'lishicha, o'sha davrda mug'uliy irqiga taalluqli belgilar shahardan tashqarida (qishloqlarda) yashovchi sug'dliklar tarkibida 10-15%ni tashkil qilgan. Mug'uliy antropologik belgilari mavjud odamlar (masalan, yuzning yalpoqlanishi, yanoqlarning bo'rtib turishi, burun burchagining pasayishi va boshqalar) Sug'd xududiga sharqiy va shimoliy viloyatlardan kirib kelib mahalliy xalqlar qiyofasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsata boshlagan.

Janubiy orol bo'yi aholisi.

Mazkur viloyatda yashagan ilk temir davri aholisining irqiy xususiyatlarini yorituvchi antropologik materiallar yaqin yillardagina qo'lga kiritildi.

Xorazm vohasida bunchalik qadimgi zamonda mug'uliy qiyofadagi odamlar qayerdan kelib qolgan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi qoraqalpoq bo'limining tarix, til va adabiyat instituti arxeologiya sohasi xodimlari tomonidan o'rganilgan qo'rg'on qabrlariga oid materiallar bu savolga javob bera oladi. 1972 yilda bir guruh qoraqalpoq arxeologlari Ustyurtda qiyin dala sharoitida arxeologik qidiruv ishlari o'tkazdilar. Arxeologik qidiruv ishlari bilan bir qatorda ular bu xududdagi ilk ko'chmanchilariga mansub qo'rg'onli qabristonlar guruhini ham ochishga muvaffaq bo'ldilar. Qabristonlar eramizdan avvalgi IV-V asrlarga oid bo'lib, ulardan topilgan antropologik ashyolar bir guruh aholining Andronov tipidan O'rta Osiyo Ikki daryo oralig'i tipiga o'ta boshlagan holatini aks ettiradi. Shu bilan birga bu xududdagi qadimgi odamlarning boshqa guruhi o'z irqi jihatidan janubi-sharqiy orol bo'yi shakllari bilan ham ba'zi umumiylikka ega ekanligi aniqlandi.

Etnografiya ko'p qirrali ijtimoiy fan bo'lib, uning tadqiqot ob'yekti xalq va elatlardir. Bu fan ularning xususiyatlari, o'zaro o'xshashligi va tavofutlari, kelib chiqishi va joylashishi, madaniy-maishiy aloqalari, ijtimoiy va oilaviy turmush kabi muammolarni o'rganadi. Dastlabki etnografik ma'lumotlar ibtidoiy jamiyat tashkil topganidan keyin qabilalar o'rtasida aloqalar o'rnatilishi natijasida asta-sekin to'plana boshlangan. O'sha davrdayoq ayrim qo'shni qabila, elat va xalqlarning maishiy turmushi, etnik xususiyatlarini o'rganish, ularni aniq va to'g'ri tushunishi amaliy ehtiyojlarni qondirish taqazosi bilan vujudga kelgan.

O'zbeklarning eng qadimiy ajdodlari to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Sharq mustabidlari, ayniqsa, qadimgi Eron, Bobil, Ossuriya hukmdorlari o'xlarini ulug'lash maqsadida toshga

bitilgan zafarnomalarida bosib olingan va bo'ysundirilgan elat va xalqlarni tilga olganlar. Shular ichida o'rta osiyoliklarning qadimiy ajdodlari to'g'risida ham ayrim ma'lumotlar mavjud.

Ilk yozuv manbalardan qadimgi Yunoniston va Rim mualliflarining asarlarida Orol bo'yi va Oks (Amudaryo) hamda Yaksart (Sirdaryo), Movaraunnahr va Baqtriyada yashagan qabila va elatlar tilga olinadi. Masalan, antik davr mualliflaridan miletlik Gekatey, Strabon, Gerodot, Arrian, Atolemey va Ktesiy, sitsiliyalik Diodor, Pompey, Trog, Tatsitlar o'z asarlarida sak-massaget qabilalari, xorazmshohliklar, baqtriyaliklar, parfiyaliklar va so'g'diylar to'g'risida ayrim ma'lumotlarni keltirganlar.

O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi ajdodlari va ularning turar joylari, urf-odat va marosimlari to'g'risida noyob ma'lumotlarni bizgacha yetib kelgan zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobida «Avesto»dan ham olish mumkin. Eramizdan avvalgi I-II asrlardan boshlab arab istilosigacha O'rta Osiyo xalqlariga tegishli ba'zi axborotlarni Eron solnomalarida, Xitoy sayyohlarining yozuvlarida uchramiz. Arablar hukmronligi davrida ilk o'rta asr mualliflaridan geograf va sayyohlar Ibn Xurdobek al-Balhiy al-Istahriy, Ibn Havqa, Ma'sudiylar o'z sayohatnomalarida zamondosh elatlar to'g'risida nisbatan boy ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Masalan, Xurosonda yashagan geograf olim Abu Zayd Balhiy 60ga yaqin asar yozgan. U dunyo xaritasini tuzadi. Uning asarlaridagi xaritalardan biri Buxorodagi Somoniylar kutubxonasida saqlangan.

O'rta asrning eng yirik olimlaridan iste'dodli tilshunos Mahmud Qoshg'ariy o'zining «Devonu Lug'otit turk» nomli noyob asarida o'zbek xalqini eng qadimgi turkiy tilda gaplashuvchi ajdodlaridan biri bo'lgan chigil qabilalari Iskandar Zulqarnayn yurish qilgan davrdayoq etnografiyaga oid ko'p guruhlardan hisoblangani haqida ma'lumot beradi.

Mahmud Qoshg'ariy o'z asarida ilk o'rta asrlarda ham turkcha, ham sug'diycha so'zlaydigan, ya'ni ikki tilli bo'lgan va faqat turkcha gapiradigan kishilarning juda ko'pligini, lekin faqat sug'diycha so'zlaydigan kishilarning mutlaqo yo'qligini hamma turkiy tillar eski tillarni siqib chiqarganligini aytadi. Demak, o'zbek xalqi milodimizdan avvaloq muayyan bir xududga o'ziga xos bir moddiy va ma'naviy birlik yarata boshlab, asta-sekin til jihatidan ham umumiylikka erisha boshlaydi. Natijada yuqorida aytilganidek, XI-XII asrlarga kelib o'zbek xalqi asosan shakllanadi. XI asrning yetuk shoiri va olimi Yusuf Xos Xojib tomonidan yaratilgan asar «Qutag'du bilig»ning bizgacha yetib kelganligini alohida aytib o'tish kerak. Juda ko'p ma'lumotlar bor.

Amir Temur va uning taxt vorislari hukmronlik qilganda, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston yirik madaniyat markaziga aylandi va uning boshqa mamlakatlar bilan aloqalari kuchaydi. Bu davrga oid qiziqarli etnografik ma'lumotlar ispan elchisi Rui Gonzales degan Klavixoning asarida, rus solnomalarida mahalliy mualliflar Nizomiddin Shomiy, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqalarning asarlarida uchratish mumkin.

XII asr boshlarida O'rta Osiyoni bosib olgan ko'chmanchi o'zbeklarning etnik tarkibi joylashgan xududi, turmushi va urf-odatlar haqida Ma'sud Ibn Usmon Ko'histoniyning «Tarixiy Abulxayrxon», Kamoliddin Binosiyning «Shayboniynoma», Abulxayr Fazlulloh Ruzbehonning «Mehmonnomayi Buxoro» nomli asarlarida etnografiyaga oid ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbek xalq etnografiyasiga oid ma'lumotlar to'plash X asrning birinchi yarmida N. N. Muravyev, A. F. Negri, N. V. Xanikov va G. I. Danilevskiy olib borgan kuzatishlar O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan o'zbeklarning etnografiyasini o'rganishdagi dastlabki ilmiy qadamlar bo'ldi.

1819–1820- yillarda Xiva xonligiga sayohat qilgan kapitan N.N.Muravyev o'z taassurotlarini asar tarziga keltirib katta ish qildi. Muravyev asarlarining ba'zi boblarida bevosita o'zbeklarning tabiati, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar, ma'rifat, kiyim-kechagi, uy-ro'zg'ori, urug'-aymoqlari kabi etnografiyaga oid sof ma'lumotlar keltirilgan. Uning aytishicha, Buxoro tomondan kelgan o'zbeklar asosan to'rt toifadan qiyot-qo'ng'irot, uyg'ur-nayman, qangli-qipchoq po'kis-mang'itdan iborat. Har bitta toifa mustaqil hokim-inoqqa ega. Ammo ularning eng kattasi qiyot-qo'ng'irot inoqdir. Uning aytishicha, Xiva xonligidagi qabilaviy o'zbeklar ko'chmanchi bo'lgan.

Ularning ko'pchiligi qora uylarda yashaganlar. Ammo boy urug'doshlari o'troq Sart singari katta paxsa devor bilan o'ralgan uylarga ega bo'lgan.

O'zbeklarning ko'p qirrali qigshloq xo'jaligi asrlar osha to'plangan an'anaviy tajribaga tayanadi. O'zbekistonning hozirgi xududi tabiiy geografik sharoitiga qarab uchta qishloq xo'jaligi zonasiga bo'linadi: tog'li va tog'oldi zonasi (20,5%), sug'orma yerlar zonasi (18,%) va qolgan bepoyon dasht-yaylov yerlardan iborat zona.

O'zbekiston xududidagi ziroatchilik sug'orish xususiyatlari va ekin turlari bilan ham farqlangan. Masalan, sug'orma dehqonchilikni mahalliy aholi «suvli yer», «tirama» yoki «obikor» sug'orilmaydigan yerlarni «lalmi» yoki «bahori» deb nomlaganlar.

Sug'orma dehqonchilik xo'jaliklari vasosan qadimiy vohalarda - Xorazm, Buxoro, Samarqand, Toshkent vohalarida Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona vodiysida joylashgan.

Sug'oriladigan yerlar yana ekinlarga qarab yoki ochiq yerlarga, bog'dorchilik hamda polizchilik yerlariga bo'lingan. Tog' etaklarida qo'llaniladigan qadimiy murakkab suv chiqarish usullaridan Koris tizimi diqqatga sazovor. Bir necha o'zaro bog'liq maxsus quduqlar orqali sizot suvlarini dalalarga chiqarib, Koris usuli deb atalgan. Bu tizimdan nurota va Sherobod tumanlarida, Samarqand viloyatining Qizilboy, Kultepa, Oqtosh, Chorbog' nomli qishloqlarida, Namangan viloyatining Chortoq viloyatining keng qo'llanilgan, ba'zilarida qisman hozir ham saqlanib kelgan.

O'zbekistonda jamoat va shaxsiy xo'jaliklarida yerga ishlov berish qurollarining an'anaviy turlari hozir ham ishlatilmoqda. Yerni haydashda yog'ochdan yasalgan omoch kabi qurollar ishlatilmoqda.

Haydalga yerlarni tekislash va kesaklarini yanchish uchun taxtamola yoki tishli six mola ishlatilgan. Yerga ishlov berishda bel, ketmon, yil hosilni yig'ishda o'roq va xirmonda panshaha, yog'och kurak va boshqalardan foydalanilgan. Bu narsalarni hozirgi kunda ham uchratishimiz mumkin.

Barcha don ekinlari - beda, jo'xori va hashak o'roq bilan o'rilgan. Mahalliy o'roqlar deyarli bir xil. Faqat katta-kichikligi va tig'ining shakli farqlangan.

O'rilgan ekinlarni xirmon qilib uyib ot, ho'kiz yoki eshak bilan tepkilagancha, keyin shamolga to'rt panjali yoki olti panjali shoxos va kurak bilan sovurganlar va hosilni somondan ajratib olganlar. Hosilni o'zlari uchun, somoni esa mollar uchun bo'lgan.

O'zbekistonda ziroatchilikning asosiy sohalaridan biri g'allakorlik hisoblanadi. Bug'doy, makka va oq jo'xori, arpa, sholi, sulii, tariq, sig'ir, kunjut, mosh, loviya va boshqalari ko'proq ekiladi.

O'zbek chorvachiligida qorako'lchilikka e'tibor katta bo'lgan. Dumbali qo'ylar ham ko'p bo'lgan va boqilgan. Kuzga yaqin hosil yig'ilganidan keyin otarlar yaylovlardan qaytarilib maxsus ajratilgan qo'tonlarda saqlangan. Ular qishloq atrofidagi dalalarda boqilib, kechqurun qo'tonlarga to'plangan.

Hunarmandchilikning qadim davrlaridan boshlab eng ko'p tarqalgan sohasi temirchilik hisoblangan. Bu sohaning rivoji dastavval mahalliy xom ashyoga bog'liq bo'lgan. Rivojlangan sohalardan biri metall quyish bilan bog'liq bo'lib, uni ko'p joylarda degrozlik (ya'ni qozon quyish) yoki qozonchi deb nomlaganlar.

Uy hunarmandchiligida ip yigirish, to'qish, kigiz bosish kabi kasblar bilan shug'ullanganlar.

O'zbek zargarlari asosan uyda, ba'zilar bozorda do'konlar qurganlar. Xonlarning ko'shk saroylarida maxsus zargarlik do'konlari bo'lgan. va u yerlarda qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan pichoq va qilichlar yasalgan.

Hozirgacha keng tarqalgan qadimiy kasblardan biri yog'och buyamlar yasash hunarmandchiligidir. Dradgorlik asli qurilish kasbi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Eng og'ir va murakkab mehnat, sabr-toqat, matonat talab qiladigan badiiy-amaliy san'at sohasi marmar o'ymakorligidir. Bu kasb Xiva va Buxoroda asrimiz boshlarigacha yetib kelgan. O'zbek diyorida ham eng muhim qadimiy va ommaviy hunarmandchilik kulolchilik kasbi hisoblanadi. Ibtidoiy yangi tosh davridan boshlab to hozirgi kungacha yetib kelgan bu soha o'zining yuksak sifatli mahsulotlari bilan mashhur bo'lgan.

O'zbekistonning turli tarixiy, tabiiy geografik sharoiti bu yerda har xil xalq me'morchilik maktablari yuzaga keltirilgan edi. Hozirgi saqlanib kelgan asosan qurilish konstruksiyasi va uslubi, planirovkasi va bezaklari bilan ajralib turgan. Farg'ona, Buxoro, Xiva, shahrisabz me'morchiligi ancha mashhur bo'lgan. Farg'ona vodiysida seysmik zona bo'lganligidan asosan ikki qator qo'shsinch uylar qurish, zilzila kam bo'ladigan Xivada bir qator sinchdan imorat solish odat bo'lgan. Uy-joy qurilishida o'zbeklarda o'ziga xoslik saqlansa-da, umumiy yagona me'morchilik tipi keng tarqalgan. Ko'pchilik uy-joylarning planirovkasi oila a'zolari soniga qarab bir necha uy, dahliz va ayvonlardan iborat bo'lgan xo'jalik xonalari, oshxona, hojatxona va molxona hovlida qurilgan.

Uy-joylarni qurishda ishlatiladigan asosiy materiallar loy (paxsa), g'isht, guvala va yog'och bo'lgan. O'zbek uylarida qadimdan mahalliy iqlim sharoitiga moslashgan ayvon muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Uning tarkibiy qismi sifatida ayvonda yoki hovlida g'isht yoki loydan supa qurilgan. Uyni isitishda ko'p joylarda sandal ishlatilgan. Sandalning toshga olov yoqilib, ustiga katta ko'rpa to'shalgan va sandal tevaragida oila - a'zolari umumiy ko'rpaga yopinib yotganlar va o'ralib yotganlar.

Hozirgi o'zbek sarpolari zamonaviy tipda bo'lib, ayniqsa, ovro'pacha kiyim-kechaklarning kirib kelishi bilan tavsiflanadi. Milliy kiyimlar ko'proq qishloqda, aholida ayollar sarposida ancha mustahkam saqlangan. Shahar aholisining ko'pchiligi ovro'pacha kiyinadi.

An'anaviy o'zbek kiyim-kechagi asosan ustki ko'ylak, ishton va cho'pondan, boshda to'ppi, oyoqqa kalish-maxsi va etikdan iborat bo'lgan. Erkak, ayol va katta-kichiklar kiyimlari bichimi deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi.

Erkaklarning an'anaviy yaktak ko'ylagi tizzagacha, ayollar va qizlarniki to'pig'igacha uzunlikda tikilgan. Ayollar ko'ylagining yoqasi vertikal yirmog'i kesilgan bo'lib, ko'p joylarda butun bo'yicha gulli jiyak tikilgan. Shahrisabz, Qarshi va Surxondaryo jiyak ipak ip bilan but shaklida to'qilgan. Buxoroda qimmatbaho kiyimlarga tilla ipda to'qilgan jiyak tikilgan. Qadimiy ko'ylak na'munalari hozirgacha asosan qariyalar va yosh bolalar kiyimi saqlangan. Buxoro va Xorazm vohasida guppi, jubiya, guppiga Farg'ona vodiysida guppi ko'ylak yoki guppiga degan nomlar bilan ma'lum. Qadimiy ko'ylaklarga oq matodan gorizontol ochilgan yoqali mulloga ko'ylak, musulmon ko'ylak ham kiradi.

O'zbek xalqining milliy ramzi saqlanib kelayotgan ustki kiyim - cho'pon shu kungacha muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek cho'ponlari rangi, uzunligi, kengligi va kiyish uslubiga qarab har joyda har xil bo'lgan. Masalan, Buxoroda, Qashqadaryoda, Sirdaryo va Zarafshon vodiylarida uzun va keng, uzun yengli, paxta yoki yarim ipak rangli matodan tikilgan chopon. Farg'ona va Toshkentda yashil yoki ko'k-yashil chopon kiyish odat bo'lgan.

Ilgari qizlar va ayollarning sochi o'rini jiddiy farqlangan, qizlar va kelinchaklar (bola tuqqungacha)da qirq o'rim soch, ayollarda ikki o'rim soch qo'yish odat bo'lgan.

O'zbek taomlari ichida qadimgi davrlardan hamir ovqatlar alohida o'rin egallaydi. Hamirdan har xil mahsulot tayyorlanadi.

Umumiy o'zbeklarda qadimdan turli xilda kabob pishirishni bilganlar. Masalan, hozirgacha qozon kabob, bug'lama kabob, tandir kabob, cho'pon, xasip kabob, jigar kaboblar xalq orasida milliy taomlar hisoblanadi. O'zbeklarning eng sevimli suyuq oshlardan har xil sho'rva va mastava butun O'rta Osiyoda keng tarqalgan.

Hozir ba'zi joylarda unutilgan bir xil joylarda hozir ham mavjud kambag'alning asosiy taomi hisoblangan «go'ja oshi», atala, umoch va piyovalar masallig'i nisbatan kamchil bo'lganligi tufayli kambag'allarning ovqati hisoblangan. Bunda suyuq ovqatlar qatoriga «qatig'li go'ja oshi», shirxo'rda, shirqovoq, sigirning iyyakdi sutidan tayyorlangan o'g'iz oshi yoki so'zma qurt va sariyog' qo'shib pishirilgan qurtoba kabi ovqatlarni kiritish mumkin.

O'zbek taomlarining eng oliysi shohpalov hisoblanadi. Hech bir to'y - tomosha mehmondorchilik palovsiz bo'lmaydi. Palov quyuuq taomlarga kiradi. Palov har bir viloyatda, ba'zan ayrim tumanlarda o'ziga xos usulda tayyorlanadi.

O'zbek taomlari ichida palovdan keyin eng ko'p tarqalgan va sevimli ovqat shovla va har xil bo'tqalar. Shovla hatto palovning ukasi deb ham aytilgan.

5-MAVZU: TARIXIY O'LKASHUNOSLIKNI O'RGANISHDA YOZMA VA ARXIV MANBALARNING TUTGAN O'RNI

REJA:

1. O'lkamiz tarixi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar: "Avesto", qadimgi fors manbalari, yunonrim mualliflarining asarlari. Xitoy manbalari. Qadimgi yozuv yodgorliklari so'g'd, baqtriya va xorazm yozuvlari.

2. O'rta asrlar davri arab va mahalliy mualliflarining asarlari, ularda o'lkashunoslikga oid ma'lumotlar.

3. Turkiy o'zbek tilidagi tarixiy manbalar. XIV–XVII asrlarda yaratilgan manbalar va ularning tahlillari.

4. Arxiv manbalarining o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Arxivshunoslik to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Qadimgi va o'rta asrlar davri arxivlari. Arxiv hujjatlarini hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Tarixiy jarayonlarni yoritishda va o'lkashunoslikni o'rganishda arxiv hujjatlarining o'rni.

5. Mustaqillik davrida arxiv hujjatlarining o'rganilishi. O'zbekistonning mustaqilligi davrida arxiv ishlari tizimi. 2010- yilda O'zbekiston Respublikasi arxivlar ishi to'g'risidagi qonunning o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

Ilk yozma manbalar. Markaziy Osiyoning eng qadimgi xalqlari o'z tarixini yozma ravishda yoritmaganlar (shu davrlarga oid mahalliy yozma manbalar topilmagan yoki ular zamonamizgacha saqlanib qolmagan). Hududimizga tegishli ilk yozma manbalar - «Avesto», ahamoniylar davri mixsimon yozuvlari va qadimgi dunyo (Yunon-Rim) davriga taalluqli manbalar yurtimizdan tashqarida tuzilgan. Ular Qadimgi Sharq va dunyo tarixida birinchi bo'lib, o'lkamizdagi xalqlarning nomlarini, alohida joylar, tog'lar, daryolar va ko'llarning nomlarini, afsonaviy qahramonlar va podsholarning nomlarini, yurtimiz xalqlarining turmushi, dini, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Ahamoniylar davri mixsimon yozuvlari. Miloddan avvalgi 559 yilda Erondagi ahamoniylar sulolasining yirik davlatga podsho Kir II asos soladi. Kir II, Kambiz, Doru I, Kserks kabi fors podsholari Qadimgi Sharqdagi juda ko'p mamlakatlar ustidan o'z hokimiyatini o'rnatishni rejalashtirganlar. Miloddan avvalgi 545-540 yillarda ahamoniylar markaziy Osiyoning Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya va Sug'diyona viloyatlarini bo'ysundirganlar. Sak-massagetlarga qarshi Kir IIning yurishlari miloddan avvalgi 530 yilda muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Saklarni Doru I davrida (miloddan avvalgi 522-486 yillar) ahamoniylar sulolasi Hind vodiysidan O'rta Yer dengiziga qadar bo'lgan keng hududda o'z hukmronligini o'rnatgan. Ahamoniylar davlati tarixda birinchi yirik dunyo davlati deb hisoblangan. Bu davlat ko'p sonli viloyatlar, shaharlar va xalqlarni birlashtirdi. Markaziy Osiyoda ahamoniylar ikki yuz yil davomida hukmronlik qilganlar (miloddan avvalgi 330 yilgacha). Ahamoniylar davri mixsimon yozuvlarida Markaziy Osiyo xalqlari va viloyatlari to'g'risida turli xil ma'lumotlar bor. Bu yozuvlar miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid bo'lib, Behistun va Naqshi Rostam qoyatoshlarida, Suza, Persepon va Hamadon shaharlarida topib tekshirilgan. Shular jumlasidan eng muhimi Behistun yozuvlari bo'lib, Doru I davrida Karmanshoh va Hamadon shahri o'rtasidagi yo'lda baland qoyatoshlarda yozilgan (Midiya o'lkasi). Behistun yozuvlari qadimgi fors, elam va akkad tillarida bitilgan. Doru I bunday xabar qiladi: «Axuramazda irodasi bilan quyidagi davlatlarni qo'limga kiritib, ularning podshosi bo'ldim: Fors, Elam, Bobil, Ossuriya, Arabiston, Misr, Midiya, Moniya, Lidiya, Armaniston, Kappadokiya, Parfiya, Drang'iyona, Ar'yo, Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, Gandaraxa, Saka, Sattagadiya, Araxoziya, Maka hammasi bo'lib 23ta davlat.

...Men Bobilda bo'lganimda quyidagi davlatlar mendan ajralib chiqib ketganlar: Fors, Elam, Midiya, Ossuriya, Misr, Parfiya, Marg'iyona, Sattagadiya, Saka».

Shoh Doro ayturki: «Marg'iyona nomli davlat mendan ajralib chiqib ketdi. Marg'iyonalik Frada ismli bir odam o'zini viloyatning hokimi deb e'lon qildi. Keyin men, Baqtriya Satrapi, bo'ysunuvchi odamim fors dadarshishni chaqirib, unga gapirdim: «menga bo'ysunmaganlarni, top-mor qilish kerak». Dadarshish qo'shinlari bilan o'tlanib, marg'iyonaliklar bilan jang qildi. Axuramazda menga yordam ko'rsatdi. Axuramazda irodasi bilan mening qo'shinlarim qo'zg'olonchilarni butunlay mag'lubiyatga uchratdi. Bu jang asiyadiy oyning 23 kunida sodir bo'ldi. Shundan so'ng davlat mening qo'limga kirdi. Mana men Baqtriyada nimalarni qildim».

...Podsho Doro xabar qiladi: «Bundan so'ng men saklarga qarshi sak yurtiga bostirib kirdim, ularning o'zlari cho'qqi qalpoq kiyib yuradilar. Men daryoga yetib keldim, daryoda kemalardan ko'prik qilib, saklarni tor-mor qildim. Ularning sardori Skunxa ismli odamni tutib, mening huzurimga keltirdilar. Men o'z xohishim bilan saklar yurtiga yangi boshliq tayin qildim. Shundan so'ng mamlakat mening qo'l ostimga o'tdi». Shoh Doro ayturki: «Bu saklar Axuramazdani qadrlaganlar, men Axuramazdani ulug'layman. Axuramazda irodasi va xohishim bilan men ularni tinchitib qo'ydim».

Hamadon yozuvlarida Doro I bunday xabar qiladi: «Men Doro, ulug' shoh, shahanshoh, davlatlar podshosi, Vishtasp o'g'li, «Ahamoniy» Shoh Doro ayturki: «Mana huzurimda bo'lgan podsholik, Sug'diyonaning narigi yog'idagi saklar yurtidan Efiopiyagacha, Hindistondan Midiyagacha - bu podsholikni menga Axuramazda xudolar o'rtasidagi ulug' xudo, tortiq qilgan». Behistun yozuvlarida Doro birinchi bo'lib Ahamoniylar davlatining g'arbiy viloyatlarini ko'rsatib bergan bo'lsa, naqshi Rustam yozuvlarida mamlakatlar ro'yxati Midiya va Elamdan so'ng sharqiy viloyatlardan boshlanadi: «Men Doro, ulug' podsho, shahanshoh, ko'p qabilali mamlakatlarning podshosi, keng sayxon yerlarning podshosi, Vishtasp o'g'li, Ahamoniy, fors, forsning o'g'li, ariylar urug'idan kelib chiqqan ariy».

Shoh Doro ayturki: «Fors viloyatlardan tashqari quyidagi mamlakatlarni men bo'ysundirganman, menga hiroj to'lovchi bo'lgan, mening so'zimni ijro etgan, mening qonunimga asoslanib rivojlanayotgan Midiya, Elam, Parfiya, Ar'yo, Baqtriya, So'g'diyona Xorazm... Saka Naumavarka, Saka Tigraxauda... dengizidan narigi yerdagi saklar».

Qadimgi yunon tarixshunoslari. Yunon-fors urushlari boshlanishi bilan miloddan avvalgi VI-IV asrlar siyosiy voqealarida ishtirok etgan Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi qadimgi yunon tarixshunoslarining asarlarida yoritilgan. Bu borada Markaziy Osiyo xalqlari to'g'risida qisqa bo'lsa-da, juda aniq ma'lumotlar beruvchi Gerodotning «tarix» kitobi qismlari, ayniqsa, qimmatlidir. Qadimgi davrlardan boshlab bu kitob dunyoda eng mashhur tarixiy asarlardan biri bo'lib hisoblangan. Uning muallifi Gerodot «tarixning otasi» deb nom olgan. Gerodot miloddan avvalgi 484-yilda Kichik Osiyodagi Gelikarnas shahrida tug'ilgan (miloddan avvalgi 431-425 yillar o'rtasida vafot etgan). U 10 yil davomida ko'pgina joylarni bosib olgan. Gerodotni Old Osiyo, Bobil, Eron va «dunyo chegaralarida» joylashgan xalqlar va davlatlar tarixi ham ancha qiziqtirgan. Qadimgi yunonlarning fikrlariga ko'ra, Markaziy Osiyo va Hindiston o'lkalari inson yashagan dunyoning sharqiy chegaralari bo'lgan Gerodot markaziy Osiyoda hech qachon bo'lmagan va bu hudud haqida o'z eshitgan hikoyalari, surishtirib bilganlari asosida yozgan gerodot «tarix» kitobini miloddan avvalgi 455-445 yillar, davomida yozgan. Bu muhim asarida Gerodot Baqtriya, Baqtra, baqtriyaliklarni 13 marta, so'g'dlarni 2 marta, xorazmliklarni 3 marta, saklarni 11 marta, massagetlarni 19 marta tilga olib, ularning moddiy madaniyati, urf-odatlarini, turmush tarzi va diniy e'tiqodi, Markaziy Osiyodagi Aks daryosining suvlaridan foydalanishi haqida va boshqa ayrim ma'lumotlaridan iborat.

Gerodot markaziy Osiyoda xalqlar joylashuvidagi nafaqat aniq, balki umumiy chegaralardan ham bexabar bo'lgan. tarixchi massagetlarning xududiy joylashuvi haqida bunday yozadi: «Ular Sharqda, quyosh chiqish yo'nalishida, Araks daryosining narigi yog'ida joylashganlar Araks daryosi Matiyona tog'laridan boshlab oqadi». Gerodot ma'lumotlarida berilgan «Baqtriya xalqi» tushunchasi ma'lum bir etnik birlikni birlashtirgan bo'lishi mumkin. «Xalq» ma'nosining beruvchi «etnos» so'zi Gerodot «tarix»ida juda ko'p uchraydi va faqat ikki joydagina bu so'z Baqtriyaga nisbatan ishlatiladi. Ushbu kitobda keltirilgan quyidagi ma'lumotlar G.A.Stranovskiy

tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va 1972 yilda chop etilgan Gerodotning «tarix» asaridan olingan.

Fors va o'zbek tilidagi manbalar. Narshaxiy (899-959 yy.). Narshaxiy (to'liq ismi Abubakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariy ibn Hattob ibn Sharik) X asrda o'tgan buxorolik yirik tarixchilardan biri. Hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ma'lumot yo'q. Yuqorida zikr etib o'tilgan Samoniyning ma'lumotlariga qaraganda, Narshaxiy asli Buxoroning Narshax (hozirgi Vobkent yonida) qishlog'idan.

Narshaxiy Buxoro va quyi Zarafshon vohasida joylashgan shahar va qishloqlarning geografik holati, aholisining VII-X asrlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettirgan qimmatli tarixiy asar muallifidir. Asar «Tarixi Buxoro» (Buxoro tarixi), «Tarixi Narshaxiy» (Narshaxiy tarixi), «Tahqiq ul-viloyat» (Buxoro) viloyatini tahqiq etish) nomlari bilan mashhur bo'lib, 944 yilda yozib tamomlangan.

Nizomulmuluk davlatini idora qilish masalalariga bag'ishlangan «Siyosatnoma» (boshqa nomi «Siyar al muluk» - Podsholarning turmushi) nomli asari bilan nom qoldirgan. Asar 1092 yilda yozib tamomlangan.

«Siyosatnoma» 51 bobdan iborat bo'lib, unda markaziy davlat apparatining tuzilishi va uning moliyaviy hisob-kitob ishlari, qo'shinning tuzilishi, yuqori davlat mansablari va ularga tayinlash tartibi, qabul marosimlari va ularni tayyorlash hamda o'tkazish tartibi, mansabdor faoliyati ustidan nazorat qilish kabi umumdavlat masalalari o'rtaga qo'yilgan.

O'rta Osiyo tarixi haqida ham muhim va qimmatli ma'lumotlar bor. Somoniylar zamonida turk g'ulomlarining davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rne, Turkiston xonlari (Qoraxoniylar) saroyida xizmat qiluvchi xodimlarning maishiy ahvoli, Somoniylar xizmatida bo'lgan amirlarning unvonlari, Xorazmshoh Oltintoj (1017-1032 yy.) bilan Sulton Mahmud Faznaviyning vaziri Ahmad ibn Xasan o'rtasidagi yozishmalar shular jumlasidandir. Agarda bundan tashqari karmatlar, botiniylar harakati, Muqanna qo'zg'oloni haqida ham ayrim diqqatga sazovor ma'lumotlar bor. Alovuddin Otamalik Juvayning Mo'g'uliston, O'rta Osiyo hamda Eronning XII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan hikoya qiluvchi «tarixi jahonkushoy» nomli shoh asari bilan shuhrat topdi. Asar 1260 yilda yozib tamomlangan.

«Tarixi jahonkushoy» 3 qismdan iborat: 1) Mug'ullar, ularning Chingizxon davridagi istilochilik yurishlaridan to Guyukxon (1246-1249 yy.) davrigacha, shuningdek, Jo'jixon, Chig'atoyxon va avlodlarning tarixi; 2) Xorazmshohlar va Xurosonning mug'ul hukmdorlari davridagi tarixi; 3) Eronning 1556-1558 yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, islomiylarning diniy harbiy uyushmasi va islomiylar davlati tarixi, islomiylar tarixi Maymanduzdagi kutubxonadan topilgan asarlar, xususan islomiylarning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan Xasan Sabbohning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi «Sogirguzashti saydno» nomli kitob asosida yozilgan. Rashkduddam eronlik mashhur ensiklopedist olim: tarixchi filolog, vrach va yirik davlat arbobi. To'liq ismi: Rashiduddin Fazlulloh ibn Imoduddavla Abulhayr al Hamadoniy. Olimning bizning zamonimizgacha to'la tarzda yetib kelgan birdan-bir asari ana shu «Jome' ut-tavorix» bo'lib, u o'rta asr tarixshunosligining o'ziga xos original asari hisoblanadi. «Jome' ut-tavorix» o'rta asr sharq tarixchiligida yangi an'anani boshlab bergan asar. Ma'lumki, Rashiduddindan avval o'tgan, shuningdek, undan keyingi davrlarda yashab ijod etgan tarixchilarning ko'pchiligi umumiy tarix deganda faqat musulmon mamlakatlarining tarixini tushunlar. Rashiduddin esa, ulardan farqli o'laroq umumiy tarix deganda sharq mamlakatlari bilan bir qatorda g'arb mamlakatlari, Xitoy hamda Hindiston tarixini jahon tarixining faqat bir qismi, deb hisobladi.

«Jome' ut-tavorix» 1301-1311 yillar orasida Fozonxonning topshirig'i bilan yozilgan. Asar uch qismdan iborat: 1) Mo'g'ullar va ular asos solgan davlatlar (ulug' yurt, ya'ni Mo'g'uliston: Elxoniy davlati) hamda mo'g'ullar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar: Shimoliy Xitoy, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari xalqlarining mo'g'ul istilosigacha bo'lgan qisqacha tarixi; 2) Sharq mamlakati xalqlarining mo'g'ul istilosiga bo'lgan qisqacha tarixi: Arab xalifaligi va uning tarkibida tashkil topgan feodal davlatlar (Faznaviylar imperiyasi, Saljuqiylar davlati, Xorazmshohlar davlati va boshqalar); Xitoy, qadimgi yahudiylar, franklar Rim imperiyasi va

Hindiston tarixi; 3) Yer qurrasi hamda yetti iqlim mamlakatlarining geografik holati. Afsuski, asarning so'nggi uchinchi qismi saqlanmagan. Qo'lyozma 1318 yilda Rashiduddin shaxsiy kutubxonasi talon-taroj qilingan vaqtda yo'qolgan bo'lishi mumkin.

Sharofuddin Ali Yazdiy tarixda «Zafarnoma» (boshqa nomlari: «Fatxonmayi sohibqironiy», «Zafarnomayi Temuriy», «tarixi jahonkushoyi Temuriy») nomli kapital asari bilan shuhrat topdi. «Zafarnoma» asosan Nizomuddin Shomiyning yuqorida tilga olingan shu nomli asari asosida zo'r badiiy mahorat bilan yozilgan. Lekin Sharofuddin Ali Yazdiy Nizomuddin Shomiy asarida bayon etilgan voqealarning ba'zilariga yangi tarixiy fakt va dalillar bilan boyitdi. To'g'ri, Sharofuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sida Temurning shaxsi nihoyatda ideallashtirilgan. Shunga qaramay, uning shaxsiyati va faoliyatidagi qarama-qarshiliklar, ya'ni uning bir tomondan zolim fohit ekanligi, ikkinchidan esa Movarounnahrda feodal tarqoqlikka barham berib, markazlashgan feodal davlatga asos solganligi birmuncha haqqoniy va to'g'ri tasvirlangan.

«Tavorix-i guzida, nusratnoma» 1502-1505 yillar orasida yozilgan bo'lib, ikki mustaqil qismdan - «Tavorih-i guzida» va Nusratnoma»dan iborat. Birinchi qismda O'g'uzxon va qadimgi turklar Chingizxon hamda uning Mo'g'uliston, Dashti Qipchoq, O'rta Osiyo va Eronda hukmronlik qilgan avlodi tarixi; ikkinchi qismda esa Shayboniyxon tavalludidan (1451 y) to uning O'rta Osiyoni istilo qilishigacha (1500-1505 yy) Dashti Qipchoq hamda O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bayon qilingan. Asar ayniqsa, uning ikkinchi qismi («Nusratnoma») zo'r ilmiy qimmatga ega. Unda Shayboniylar qo'shinining tuzilishi uning etnik tarkibi, shuningdek ko'chmanchilarning Qorako'l, Xisor, Nog'onyon, O'rta-tepa hamda Ho'jand viloyatlarida qilgan yovuzliklari haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Asarning yana bir qimmatli shundaki, unda muhim tarixiy voqealarning sodir bo'lgan vaqti aniq ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, Shayboniy qo'shinlari tarixidan Farg'ona viloyatini bosib olinishi faqat «Nusratnoma»da to'la va to'g'ri yoritilgan. Muhammad Solih Shayboniyxonning hayoti va u olib bergan qonli urushlar haqida hikoya qiluvchi she'riy asar yozib qoldirgan. U Shayboniyxon tug'ilganidan boshlab, to 1505 yillar orasida Dashti Qipchoq, Movarounnahr ham ijtimoiy-siyosiy tarixidan bahs yuritadi. Asarda Shayboniyxon qo'shinlarining yovuzliklari, mehnatkash xalqining og'ir ahvoli, Qorako'l, Qarshi va Guzarda Shayboniylarga qarshi bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor. Asar boy geografik va etnografik ma'lumotlarga ega.

«Shayboniyнома» 1505 yildan keyin yozilgan. Uning qo'lyozma nusxalari ham kam - hozirgacha faqat ikkita nusxasi ma'lum: bulardan biri, Venada (Avstriya), ikkinchisi esa Leningrad Dorulfun kutubxonasida saqlangan. Asar to'rt marta (1885, 1908, 1961, 1989 yy) nashr etilgan. Abulg'ozixon tarix sahifasida feodal hukmdor sifatida emas, balki keng ma'lumotli olim sifatida ajoyib asrlari tufayli qoldi. U «Shajara-yi turk va mug'ul» hamda «Shajara-yi tarakima» nomli ikki yirik va muhim tarixiy asar yozib qoldirdi. «Shajara-yi tarakima» turkman xalqi va Turkmanistonning o'rta asrlardagi tarixini o'rganishda bosh manba rolini o'taydi. «Shajara-yi turk va mug'ul» esa O'zbekistonning XV-XVII asrlardagi tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi.

«Shajara-yi tarokima» 1664 yilda yozilgan, lekin Abulg'ozixonning og'ir dardga chalinib qolishi va tez orada vafot etganligi sababli tamomlanmay qolgan. Asar 9-bobining davomi, ya'ni 1644-1663 yillar voqealari Anushaxonning topshirig'i bilan Mahmud ibn Mulla Muhammad Urganjoy degan shaxs tomonidan yozilgan. Asarning 1-6 boblari ham o'sha Mahmud ibn Muhammad Urganjiyning qalamiga mansubdir. «Shajara-yi turk va mug'ul» qisqacha muqaddima va to'qqiz bobdan iborat. Muqaddimada asosan asarning yozilish sabablari haqida gap boradi. Birinchi bobda Odam Atodan to Mug'ulxongacha, 2-bobda Mug'ulxondan Chingizxongacha, 3-bobda Chingizxonning tug'ilishidan to vafotigacha, 4-bobda Ugaday qon va uning Mug'ulistonda hukmronlik qilgan avlodi, 5-bobda Chig'atoyxon va uning Movarounnahrda podsholik qilgan vorislari, 6-bobda Elxoniylar, 7-bobda Jo'jixon va uning Dashti Qipchoqda podsholik qilgan avlodi, 8-bobda Shayboniyxon va uning Movarounnahr, Qozog'iston, Sibir va Qrimda hukmronlik qilgan farzandlari va nihoyat, 9-bobda.

Shayboniyxonning 1511 yildan Xorazmda podsholik qilgan avlodi hukmronligi yillarida yuqorida qayd etilgan mamlakatlarda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon etilgan.

Tarixshunoslik tarix fanlari tizimida o'ziga xos mustaqil o'ringa ega bo'lib, uning o'zining manbalari va tadqiqot usullari mavjud. Tarixshunoslikning ob'ekti tarixiy jarayonning o'zigina bo'lib qolmay, balki tarixiy tafakkur, uni o'rganish va tarix haqidagi fan hisoblanadi. Masalan, Markaziy Osiyo hududidagi ilk o'rta asrlar davri tarixi mintaqada mavjud davlatlar, arablar istilosi, islom dinining yoyildashi, markazlashgan davlatlarning paydo bo'lishi va hokazolarni o'rganadi. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixshunosligi esa bu davr tarixi o'rta asrlarda, yangi davrda va bizning kunlarda qanday tadqiq etilganligini o'rganadi.

Tarixshunoslik ijtimoiy-tarixiy tafakkur haqidagi fan bo'lib, u yoki bu davrning g'oyalarini o'zida aks ettiradi. Ushbu fan manbashunoslik bilan juda yaqin aloqada bo'lib, har bir davr manbalarining tuzilishi, ularga tanqidiy yondashuv va foydalanish usullari, tarixiy tafakkur va bilimlarning darajasi hamda saviyasini belgilaydi.

Tarixshunoslikning rivojlanishida manbalar doirasining kengligi va o'sha davrdagi tarixiy tadqiqot usuli asosiy omil hisoblanadi. Tarixiy tadqiqot usullarining takomillashuvi (masalan, tanqidiy yondashuv, tarixiy taqqoslash va boshqalar), yangi manbalarning (epigrafik, arxeologik, numizmatik) paydo bo'lishi tarix fanining saviyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mazkur fan tarmog'i manbashunoslik, arxeologiya, etnografiya, numizmatika va lingvistika bilan chambarchas bog'liq.

Jahon tarixi tarixshunosligi insoniyat sivilizatsiyasi va tarixiy tafakkur darajasi xarakteriga qarab bir necha bo'limlarga bo'linadi. Bular: qadimgi, o'rta asrlar (medievistika), yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligidir.

Xususan, O'zbekiston tarixi tarixshunosligini ham shartli ravishda davrlar, tarixiy tafakkur hamda tadqiqot usullaridan kelib chiqib davrlarga bo'lish mumkin. Bular: O'zbekistonning qadimgi, o'rta asrlar, Rossiya mustamlakachiligi, sovet davri va mustaqillik davri tarixshunosligidir.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligi deganda, ushbu mintaqada yashagan qadimgi xalqlarining eng qadimgi zamonlardan hozirgacha bo'lgan tarixiga asosiy manba bo'lib xizmat qiluvchi tarixshunoslikka oid asarlar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining yarim asrlik faoliyati davomida tarixshunoslik sohasi muhim rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Bu esa O'zbekistonda tarix fani rivojida tarixshunoslikning muhim o'ringa ekanligining yaqqol tasdig'idir. Aynan tarixshunoslik tarixni (tor ma'noda emas, balki tarix fanining tarixini yoritish sifatida) chuqur va har tomonlama o'rganish, ob'ektiv, tarixiy fikrning rivojlanish bosqichini uning muayyan bosqichlarida bilish, turli oqimlarda tahliliy ravishda ko'rib chiqish, amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilish, vazifalarni belgilash va keyingi tadqiqot yo'nalishlarini asosli shaklda tarixchilarga tavsiya qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tarixchilar tomonidan eng diqqatga sazovor tarixiy asarlar mualliflarining hayoti, faoliyati va erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi, jamoat muhitini turli bosqichlarda qayta tiklash bo'yicha keyingi tadqiqotlar yo'nalishlarini aniqlash, yosh olimlar ishini yengilashirishda, ya'ni muayyan ilmiy muammo ustida adabiyotlar bilan tanishishga imkon beradi.

Ma'lumki, tarixshunoslik tadqiqotlari tahliliy fikr erkinligi, ta'qiqlangan mavzular va nomlarning yo'qligi, chuqur bilimlar hamda adabiyot masalalarini tanqidiy idrok etishda o'zining afzalliklari va kamchiliklari bilan tarixiy olimlarning turli qarashlari, tushunchalarini hisobga olish, taqqoslash hamda aniqlab olish qobiliyatlarini talab qiladi. Ular eng muhim va haqqoniy, asosga ega bo'lib, o'rganilayotgan muammoning to'g'ri yoritilishiga xizmat qiladi.

Tarix fan sifatida qachon va qanday paydo bo'lgan? Ushbu savolga javob olish uchun antik, ya'ni qadimgi manbalarga murojaat qilinadi. Yozuv vujudga kelgunga qadar epik asarlar ("epos" – grekcha so'z bo'lib, "doston", "rivoyat" va "afsona" ma'nolarini anglatadi) tarixni o'rganish uchun yagona manba hisoblangan (masalan, Gomerning "Iliada" va "Odisseya", Markaziy Osiyo xalqlarining "Alpomish", "Manas" va "Go'ro'g'li" dostonlari bilan birga rus

bahodirlari haqidagi Vladimir, Muromli Ilya, Dobrynya Nikitich, Alyosha Popovich kabi xalq eposlari yoki "Igor polki jangnomasi").

Yozuv ixtiro qilinganidan so'ng tosh yoki binolardagi bitiklar va yilnomalar eng qadimgi yozma tarix manbalari hisoblanadi. O'sha davrlardagi voqyealarning guvohlari yoki zamondoshlari yozib qoldirgan manbalar, keyinchalik xattot va shoirlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan yoki og'izdan-og'izga ko'chib, bizgacha yetib kelgan asarlar qadimiy manba hisoblanadi. Chamasi, o'z yozuviga ega bo'lgan barcha xalqlarda bitiklar va yilnomalar uchraydi. Masalan, yunon olimi Gerodotning mashhur "Tarix" kitobi bizgacha yetib kelgan eng qadimgi tarixiy manbadir. Gerodot Kichik Osiyo (hozirgi Turkiya hududi) sohilidagi Galikarnas shahrida tug'ilgani uchun, unga Sharq ta'siri o'tganligi tabiiydir. Hatto Sitseron zamondoshlari Gerodotni "tarixning otasi" deb ataganlar. Aslida, Gerodotning ushbu asari oxiriga yetkazilmagan (miloddan avvalgi 470 yilgacha bo'lgan voqyealar bilan tugallanadi) va uni hozirgi ma'noda ilmiy tadqiqot deb bo'lmaydi. Shunga qaramay, mazkur kitob voqyealar va dalillar ko'lami hamda badiiy qimmatini jihatidan o'zidan avvalgi safdoshlaridan anchagina baland turadi. Masalan, Gerodot o'z asarida Kaspiy dengiziga chegaradosh bo'lgan hududlarda yashagan xalqlarni tasvirlagan, shundan so'ng Kaspiyortida yastangan vohalar, ularda yashagan masoxatlar (massagetlar) haqida ma'lumotlar beradi. Gerodot birinchi bo'lib Kaspiy dengizi Kaspiy xalqlari nomidan olganligini ta'kidlaydi. Muarrixning buyuk shaxs ekanligini uning quyidagi xolis fikrlaridan ham bilish mumkin: "Men o'zim eshitgan narsalarni hikoya qilyapman, ammo ularning hammasiga ishonishim shart emas. Mayli, bu xulosa mening yangi asarimga ham taalluqli bo'lsin".

Miloddan avvalgi V-IV asrlarda yashagan yunon tarixchisi Fukididning Pelopenes urushlari haqidagi asarlari dunyodagi birinchi ilmiy tarix deb e'tirof etiladi. Ushbu asar o'z davri tarixiy voqyealarining ishonchli va haqqoniy tasvirlanganligi bilan ajralib turadi. Gerodotni kitobiga nisbatan Fukididning asari olg'a tashlangan qadam edi. Ushbu kitobda hayot voqyealariga Olimp xudolarining aralashuvini ko'rmaymiz. Fukididning asarida tarixiy tahlilning asosiy talablari – voqyea guvohlarining fikrlarini taqqoslash va bevosita o'sha voqyea qatnashchilarining hikoyalaridan foydalanish kabi usullarni ko'rish mumkin. To'g'ri, Fukidid ham asotirlar va miflardan foydalanadi va bunda asosiy e'tiborni tarixiy taraqqiyot hamda iqtisodiy omillarning ta'siriga qaratadi. Tarixiy dalillarni aniq bayon qilish va haqiqatni aniqlashga intilish Fukidid asarining asosiy yutug'idir.

Tarixiy voqyealarni haqiqatga yaqin qilib ilmiy bayon etgan muarrixlardan yana biri – miloddan avvalgi XI asrda yashagan Polibiydir. U o'zining "Umumjahon tarixi" asarida miloddan avvalgi 220–146 yillardagi voqyealarni ellinlar nuqtai nazaridan tasvirlaydi. Bu O'rta yer dengizi atrofidagi barcha davlatlarning tarixini o'zaro bog'liqlikda tasvirlagan birinchi asardir.

Muarrixning xulosasiga ko'ra, har bir davlat tirik vujud (mavjudot) kabi tabiat qonuniyatiga asosan o'sadi, rivojlanadi va inqirozga uchraydi. Polibiyda birinchi marta "pragmatik tarix" degan ibora uchraydi. O'z asarining ikkinchi qismini muarrix pragmatik usulda quradi: u voqyealar nima sababdan, qanday maqsadda yuz berganligini aniqlaydi, ya'ni muayyan voqyealar kelib chiqish sabablarining davomiyligi va oqibatlarini bayon qiladi.

Fukidid va Polibiyning asarlari antik davr tarixshunosligining cho'qqisini tashkil etadi. Keyingi yunon muarrixlarining deyarli barchasi ularning izidan bordilar.

Tarix fani taraqqiyotining belgilovchi omillar orasida arxiv materiallari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Shuning uchun tarixiy jarayonlari yoritishda va o'lkashunoslikni o'rganishda arxiv hujjatlarining o'rni juda muhim.

Arxiv - lotincha «arxivus» - hukumat binosi so'zidan olingan. Lekin «arxiv» atamasining hozirgi qo'llanish ma'nosi butunlay boshqacha. Arxiv - bu idoralar, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek tarixiy shaxslar faoliyatiga oid hujjatlar saqlanadigan muassasa.

Markaziy Osiyoda arxiv yozuv bilan bir vaqtda paydo bo'lgan. Arxeologlar qadimgi Tuproqqal'a harobalaridan Xorazm shohlarga tegishli III-IV asr boshlariga oid qadimgi hujjatlardan iborat arxiv qoldiqlarini topishdi. 1930 yil boshlarida qadimgi Sug'diyona

davlatining mug' tog'lari harobalaridan Divashtich arxivi topildi. Qazishmalar natijasida VIII asrga oid 80dan ortiq qo'lyozma hujjatlari topildi. Bizga tarixdan ma'lumki, Buxoroda IX-X asrlarda Abu Ali ibn Sino foydalangan arxiv kutubxona bo'lgan. O'rta Osiyoda arxivlar XI-XII asrlarda Xorazm davlatida keyinchalik Oltin O'rdada, temuriylar ashtarxoniylar davrida ham mavjud edi. O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivi millatimiz, o'zbek xalqining hujjatli madaniy yodgorliklari saqlanadigan eng katta boy arxiv xazinasidir. Bu yerda saqlanayotgan eng qadimgi hujjatlar vaqfnomalar bo'lib, ular XIII-XX asrlarga oiddir.

Kadimgi davlatlarning xonliklarining XIX asrgacha bo'lgan hujjatlar manbalari baxtga qarshi bizgacha saqlanmagan. O'zaro feodal urushlari vayrongarchiliklar natijasida yo'q bo'lib ketgan. Qo'qon va Xiva xonlari arxivlari, Buxoro amirligining Qushbegi arxivi saqlanib qolgan. Ularda XIX asrga oid hujjatlarning bir qismi saqlangan xolos. Markaziy Osiyoning chor Rossiyasi bosib olgandan keyingi davr arxivlari, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr hujjatlari to'la saqlangan.

Qo'qon va Xiva xonliklari tarixi o'ziga xosdir. Chorizm bu xonliklarni bosib olganidan keyin ushbu arxiv materiallari 1876 yil Peterburgga - imperator kutubxonasi olib ketiladi. Bu hujjatlar 30-yilning oxirigacha e'tiboran chetda qolib, umumiy ishda foydalanilmay keldi. Keyin bu arxivlar topilib ularning Qo'qon, Xiva arxivlari ekanligi aniqlandi. Shundan so'ng ular keng foydalanila boshlandi.

Qo'qon xonlari arxivi haqida tarixchi Troitskaya 1968 yilda «Katalog arxivi Kokandskix xanov XIX veka» nomli ma'lumotnomasini e'lon qildi. 1982 yilda bu hujjatlar Leningraddan Toshkentdagi Markaziy davlat arxiviga olib kelingan.

Xiva xonlari arxivini birinchi bo'lib 1939 yilda tarixchi olim P.P.Ivanov o'rganib chiqib, bu arxiv to'g'risida xabar beradi.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy davlat arxivida Qo'qon, Xiva xonlari arxivlari, Buxoro amirligining Qushbegi arxivi, Turkiston general-gubernatorligi, uning barcha tashkilotlari arxivlari shuningdek, O'zbekistonning oktyabr to'ntarishidan keyingi davr. Sovet davri tashkilotlarining arxiv materiallari saqlangan. Bu arxivda bir milliondan ortiq yig'ma nildlar bor. Bu O'rta Osiyodagi eng katta boy arxivdir.

Arxiv hujjatlari yozma va og'zaki shaklda bo'lishi mumkin. Og'zaki tarixiy hujjatlar har xil texnika vositalari bilan yozib yoki tasvirlab olinadi. Hujjatlar maxsus joylari, ya'ni arxivlarda sohalarga ajratilgan xronologik sanalarga ajratilgan. Toshkent O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O'zR. MDA) saqlanayotgan qimmatbaho hujjatlarning soni va mohiyati jihatidan O'rta Osiyo respublikalari markaziy davlat arxivlari ichida eng kattasidir. Unda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab to hozirgi kunimizgacha bo'lgan juda ko'p sonli hujjatlar saqlanmoqda. Turkiston general-gubernatorligiga qarashli. Hozirgi O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston va qisman Qozog'iston respublikalari hududidagi viloyatlar, uyezdlar, volostlar, muassasa va korxonalar hamda tashkilotlarning tarixiy faoliyatiga doir barcha hujjatlar mana shu markaziy arxivda mujassamlashtirilgan.

Bu hujjatlardagi Turkiston chor hukumatining olib borgan mustamlakamachilik siyosati, rus xalqi bilan O'rta Osiyo shu jumladan o'zbek xalqining madaniy aloqalari, chor burjua apparati va tashkilotlarning bekor qilinishi haqidagi xilma-xil va boy materiallar O'rta Osiyo xalqlari tarixini har tomonlama chuqur o'rganishda bebaho durdona bo'lib xizmat qiladi. O'rta Osiyo xonliklari, bekliklari, diniy boshqarmalari faoliyatiga doir hujjatlar deyarli yo'q bo'lib ketgan. Ayrim mavjud materiallar esa o'lkani Rossiyaning bosib olish jarayonidagi harbiy to'qnashuvlar davrida yo'q qilib yuborilgan.

1917 yilgi oktyabr vohalariga qadar hujjatlar har bir idora va tashkilotning o'zida saqlangan. Arxivlar tarqoq holda bo'lib hujjatlar bir joyda yig'ilmagan, markazlashmagan edi. Oktyabr to'ntarishidan keyin Turkiston RSFSR tarkibida avtonom respublika sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Rossiya hukumati chiqargan qonunlar Turkiston uchun ham tegishli edi.

Shuni aytish kerakki, RSFSR hukumati 1918 1 iyunda «Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish to'g'risida» dekret qabul qilindi. Bu dekretga asosan barcha tarqoq arxivlar markazlashdi.

1919 yil 15 noyabrda Turkiston Respublikasi maorif xalq komissarligi qaroriga binoan Arxiv ishlari Markaziy Bosh boshqarmasi tuzildi va V.N.Kucherboyev boshqarma boshlig'i etib tayinlandi.

Davlat arxiv bo'limi 8ta seksiya va 4 bo'limdan iborat edi. Bo'limlar quyidagilardan iborat bo'lgan.

1-bo'lim - ma'muriy-diplomatik (yuridik seksiyalarini birlashtiradi).

2-bo'lim - harbiy seksiya.

3-bo'lim - maorif va iqtisodiyot.

4-bo'lim - tarixiy-inqilobiy, sharq va matbuot seksiyalari.

Davlat arxiv jamg'armasiga faqat 1917 yildan oldingi tashkilotlar arxiv hujjatlarigagina emas, balki sovet tashkilotlari arxiv hujjatlari ham aytila boshladi. Tashkilotlarda hujjatlar 5 yil saqlanishi va keyin Davlat arxiviga topshirishi belgilari. Bu qoida 1921 yil 30 sentyabrdan kuchga kiradi. Joylarda viloyat arxiv jamg'armalari tashkil qilindi. Masalan, 1920 yil martda Farg'onada, 1920 yil iyunda - Samarqandda, shu yil noyabrda - Yettisuvda, 1921 yil martda - Zakaspiyda ana shunday arxiv jamg'armalari tashkil etildi.

Ma'lumki 1924 yilda O'rta Osiyo respublikalari (Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalari)da milliy davlati chegaralanishi o'tkaziladi. Natijada RSFSR tarkibida O'zbekiston SSR va Turkmaniston SSR. Tojikiston ASSR (UzSSR tarkibida), Qozog'iston ASSR va Qirg'iziston avtonom viloyati tashkil qilindi. Buning natijasida O'zSSRning o'z arxiv tashkilotlari vujudga keldi.

Arxiv hujjatlari yangi tuzilgan respublikalar o'rtasida quyidagi tartibda bo'linadigan bo'ldi. O'rta Osiyo va ittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan arxiv jamg'armalari O'rta Osiyo Markaziy arxivida - Toshkentda saqlanadigan bo'ldi. Har bir respublikalarga oid arxiv jamg'armalari shu respublikalarga beriladigan bo'ldi. Turkiston Respublikasining yagona davlat arxivi jamg'armasi shu tarzda bo'lindi.

1924 yilda 28 dekabrda maxsus qaror bilan O'zSSR M.I.K. huzurida arxiv ishlari markaziy boshqarmasi tashkil qilindi. O'zbekiston hududida tashkil qilingan barcha arxivlar, masalan, Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm va boshqa viloyatlarida vujudga kelgan arxiv jamg'armalari O'zSSR arxivi ishlari markaziy boshqarmasiga topshirildi.

Shuningdek O'rta Osiyo ahamiyatiga ega bo'lgan arxiv jamg'armalari ham O'rta Osiyo markaziy arxivi tuzilmaganligi uchun O'zbekiston arxiv boshqarmasiga topshirildi. Chunki bu O'rta Osiyo arxiv jamg'armalari Toshkentda vujudga kelgan edi. Shunday qilib, O'zSSR arxivida faqat respublika tarixiga oid hujjatlargina emas, balki butun O'rta Osiyo tarixiga doir materiallar saqlana boshladi.

Viloyatlarda ham viloyat arxiv byurolari tashkil etildi. 1925 yilda Farg'ona, Samarqand, Toshkent, Zarafshon viloyat arxiv byurolari, 1926 yilda esa Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari arxiv byurolari ochildi.

Arxiv hujjatlarini Markaziy arxivga yig'ish ishlari keyingi yillarda ham davom etdi. 1925-1929 yillarda 134 arxiv jamg'armasi qabul qilindi. 1929 yilda Markaziy arxivda 873ta arxiv jamg'armasi va 764 ming hujjat jamlangan edi. Viloyatlar arxivlarida 924 arxiv jamg'armasi va 994 ming hujjat saqlanardi. Ta'kidlash kerakki, arxiv xodimlari kam bo'lganligi uchun davlat arxivlardagi hujjatlarning yarmidan ko'pi tartibga solinmagan, bayon qilinmagan edi. Tabiiyki, bunday hollarda ulardan foydalanishning ham imkoni bo'lmagan. Shuning uchun davlat tashkilotlarining o'z arxivlarini tartibga solib, ro'yxat tuzib ularni davlat arxivlariga (Markaziy va viloyat arxivlariga) topshirishi talabi qo'yildi.

O'zbekiston tarkibida Qoraqalpog'iston ASSRning tashkil bo'linishi munosabati bilan 1934 yil 11 martda QQASSR markaziy arxiv boshqarmasi tuzildi. 1935 yil mahalliy arxivlar tarixida katta voqea sodir bo'ldi. Shu yilda barcha tumanlarda davlat arxivlarini tuzish tavsiya qilindi. O'zSSR AMIKning 1935 yil 21 dekabr qaroriga binoan respublikaning barcha shahar va tumanlarida davlat arxivlari tashkil qilindi. 1936 yilda respublikada 31ta tuman shahar davlat arxivlari tuzildi.

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublika Vazirlar mahkamasi huzurida Bosh Arxiv boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi huzurida arxiv bo'limi, shuningdek viloyat hokimligi huzurlarida 11ta arxiv bo'limi bor.

Respublika ahamiyatiga 3ta markaziy davlat arxivi, Qoraqalpog'iston Respublikasida MAD, 11ta viloyat arxivi va ularning 40dan filliallari mavjud. Shunday qilib, Respublikada arxiv tashkilotlarining tartibli tizimi amal qilinmoqda. Bu tizim ilmiy va tarixiy ahamiyatga ega barcha hujjatlarni ehtiyoj qilib saqlash va ulardan foydalanishni tashkil qilish imkoniyatiga ega.

2. Hujjatlar qimmatini ekspertiza qilish va davlat arxivlariga hujjatlar qabul qilish va hisobga olish.

Hujjatlar qimmatli ekspertiza qilishning umumiy qoidalari.

Hujjatlarni ekspertiza qilishdan maqsad ularni saqlash muddatini aniqlash va davlat arxivida saqlash uchun tanlab olishdir. Davlat arxivlarida saqlash uchun ilmiy, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan va kelajakda tarixchilar tomonidan tarixiy asarlar yozish uchun foydalanadigan hujjatlar tanlab olinadi. Xo'jalik idoralarning amaliy kundalik ishi uchun vaqtincha, masalan, 1-15 yil kerak bo'ladigan hujjatlar muddati bitganidan keyin yo'q qilinadi.

Hujjatlar, ekspertizasi o'tkazilishning, ya'ni hujjatlarni ilm va fan uchun kerak yoki kerak emas hujjatlarga ajratishning qoidalari bor. Ular quyidagilardir:

1. Ekspertiza o'tkazishda hujjatlar mazmunining ahamiyati hisobga olinadi.

2. Arxiv jamg'armasini tashkil qilgan idoraning ahamiyati ham ekspertiza o'tkazishda muhimdir. Masalan, Madaniyat ishlari vazirligi yoki posta bo'limi va ularning faoliyati natijasida vujudga keladigan hujjatlar ahamiyati, o'z-o'zidan ma'lumki har xil emas.

3. Hujjatlarning paydo bo'lish vaqti, joyi va voqeaning ahamiyati. Masalan, Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari tarixiga oid xo'jalik hujjatlari va ularning vujudga kelish vaqti, o'rta asrlarga oidligi hisobga olinib, arxivda saqlashga qoldiriladi. Keyingi davrda vujudga kelgan xuddi shunday hujjatlar ikki darajali sifatini yo'q qilinadi.

4. Hujjatning qaysi muallifga tegishli ekanligi Buyuk shaxslarga tegishli xususiyatlar, masalan, A.Temur, Ulug'bek, Navoiy yoki sovet davri yozuvchilaridan Fitrat, A.Qodiriy va boshqalarga tegishli har qanday hujjatlarning 2 darajalari ham arxiv saqlash uchun ajratiladi.

5. Ma'lumotning takrorlanishi. Qaror buyuruq, hisobot, ko'rsatma va boshqa hujjatlar bir necha idoralarda takrorlanadi. Bunday holda shu hujjat tayyorlangan idora hujjati qoldirilib, boshqa idoralardagi xuddi shunday hujjat takrorlanayotganligi uchun yo'q qilinishi mumkin. Qaror, buyruq va boshqa hujjat bir arxiv jamg'armasida - ayol nusxa va bir necha ko'chirma holda takrorlansa, asl nusxa tanlab olinadi, qolganlari yo'q qilinadi.

6-MAVZU: TOPONIMIK MANBALARNING O'LKA TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

1. Toponimika tushunchasi va uning maqsadi. Geografik joy nomlarini o'rganishda toponimikaning o'rni.

2. Toponimikaning fan sifatida shakllanishi. Toponimikaga oid asosiy ilmiy terminlar mazmuni. Toponimikaning ikki qismga: mikro va makro toponimlarga bo'linishi. Ularning farqli xususiyatlari.

3. O'zbekiston toponimikasiga oid atamalarning yozma manbalarda qayd etilishi. O'zbekistonda toponimik tadqiqotlar tarixi.

4. Toponimik ma'lumotlar to'plash uslublari. Toponimikada antroponimlarning o'rni. Respublika viloyatlari joylarining toponimikasi. Toponimikaning xronologik davrlarga bo'lib o'rganilishi.

4. Toponimikaning bo'limlari: gidronimika, oykonimika, oronimika, urbanomika, etnonimlar, patronimlar, xronimlar, zoonimlar, religonimlar, teonimlar va boshqalar.

1917 yilga qadar toponimika mustaqil fan sifatida o'rganilmay, uning vazifasini tarixiy geografiya fani bajarib kelardi.

Toponimika geografik nomlar, kishi ismlarini o'rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponimikani «zamin tili», ya'ni yer tili deb atashadi. Toponimika atamsi lotin tilidan olingan bo'lib, «topos» - joy, «onom» - nom, umuman joy nomini o'rganadigan fan degan ma'noni bildiradi. Geografiy nomlar va zamin qarida o'rganilayotgan nomlar insonlarga qo'yiladigan ismlar toponimikaning manbai hisoblanadi. Toponimika ikki ob'yektdan: mikro va makro toponimlaridan iborat bo'lib, makrotoponimika - grammatik jihatda mayda ob'yektlarni - turdosh otlarni, mikrotoponimika esa atoqli otlar, ya'ni yirik ob'yektlarning nomlarini tadbiiq qiladi.

Joy nomlari insoniyat tarixi va taqdirida alohida o'ringa ega. Ularsiz kishilar qayerga borishini ham, qanday borishini ham, qayerdan qanday kelishini ham bilmasdilar. Shuning uchun qadimgi joy nomlariga maxsus, alohida to'xtalish hollari bo'lmasa hamki yozilgan ilmiy-amaliy qiymatga ega bo'lgan asarlarda u yoki bu darajada to'xtalganligini tarixiy va geografik asarlardan bilishimiz mumkin.

Atrofimizdagi turli-tuman joylarni ularga berilgan nomlar asosidagina tushunamiz, anglaymiz va eslab qolamiz, chunki toponimlar (joy nomlari) o'ziga xos tarix, o'ziga xos xotira hamda o'ziga xos madaniy-ma'naviy yodgorliklardan biri sanaladi. Shuning uchun ham joy nomlari davlat ahamiyatiga molik masala ekanligi qator rasmiy hujjatlarda qayd qilingan.

O'zbekiston toponimikasi fani asrimizning 30-yillaridan boshlab rivojlangan. Uning rivojlanishiga toponimist olim H.Hasanovning xizmatlari katta.

Vatanimiz joy nomlariga oid toponimik ma'lumotlar esa tarixiy ilmiy kitoblardan qadim-qadimdan beri naql qilinib kelmoqda. Shu sababli joy nomlari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida ancha qadimiy bo'lgan qo'lyozma manbalardagi materiallar ham e'tiborga olinmoqda. Bu holni hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida aniq ko'rish mumkin.

O'zbekiston toponimikasi fani Ona Vatanimiz hududidagi joy nomlarini yig'ish, to'plash, ma'lum bir ilmiy-nazariy tizimga solish bilan birga, ularga har tomonlama izohlashga ham harakat qiladi.

Mamlakatimiz hududida Toshkent shahar, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm, Navoiy, Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlari va Qoraqalpog'iston respublikasi joylashgan. Yuqorida sanab o'tilgan shahar, viloyatlar, respublikasiga ma'lumotlarni bu fan yig'ib to'plash jamlab beradi.

Har bir hudud uchun toponimik qonuniyatlar takrorlanmas ko'rinishli holatga egaligini V.A.Juchkevich ham o'z monografiyasida alohida qayd qilib o'tganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, har bir viloyat, har bir shahar, har bir voha, har bir tuman o'ziga xos toponimlar (majmui) jamiga - toponimiyasiga ega. Ularni o'rganish va ular to'g'risida maxsus maqola, monografiyalar va hatto, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zarur. Chunki vaqt o'tishi bilan joy nomlari unutilib borishlari yohud ba'zi zamonasoz rahbarlarning sayi-harakatlari bilan zamonaviylashtirilishi ham mumkin. Mana bunday holatlarning oldini olish uchun esa joy nomlarini xoh u makrotoponim bo'lsin, xoh u mikrotoponim bo'lsin, farqi yo'q. Ularni har tomonlama tadqiq etish vaqti, payti keldi.

Mamlakatimizdagi viloyatlar hamda Qoraqalpog'iston respublikasidagi tumanlarni birma-bir hisoblamasak, hali ham ko'p tumanlarimiz hududlaridagi joy nomlari o'rganilmagan. O'zbekiston toponimikasidagi bunday ketma-ketlikni tugatish vaqti keldi.

Toponimik ma'lumotlar to'plash uslublari.

Toponimikani o'rganish ma'lumot to'plashdan boshlanadi. Bu ish odatda o'lkashunoslik bo'yicha tadqiqot olib borilayotgan mikrorayon qishloq, ovul, kolxoz-sovxo hududlarida, keyinchalik ma'muriy rayon hamda viloyat va nihoyat jonajon o'lka miqyosida amalga oshiriladi.

Toponimik ma'lumot yig'ish ishini boshlashdan avval ma'lumotlarni qanday va qayerlardan to'plash hamda kimlar bilan qanday mavzuda suhbatlar o'tkazishning hech bo'lmaganda taxminan ish rejasi va dasturi ishlab chiqilishi shart. Mana shu reja va dastur asosida puxta tayyorgarlik ishlari olib boriladi, so'ng dala tadqiqot ishlariga o'quvchi va studentlar jalb qilinadi. Dalada tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida aholidan eshitgan hikoya, afsona va o'tmish haqidagi suhbatlarni hamda boshqa materiallarni muntazam yozib boradigan maxsus daftar

bo'lishi shart. Shundan so'ng surishtirish va suhbat natijasida olingan ma'lumotlarni tadqiq qilishda toponimik toifalar bo'yicha maxsus kartotekalar tuziladi. Keyin shu asosda lug'atlar tuziladi. Keyinchalik tadqiqotchilarning fikrini hisobga olgan holda bir tipdagi ommaviy toponimlarni sinchiklab o'rganish katta aholisiga ega. Tadqiq qilingan va to'plangan toponimik ma'lumotlar o'lkashunoslik muzeylarida aniqlanadi. Shuningdek, bu ma'lumotlar maxsus kutubxonalarda alohida bo'lim qilib saqlanadi. Toponimik ma'lumotlar to'plash ko'pincha shu o'lka tarixini o'rganish ishi bilan parallel holda olib boriladi. Turistik sayohatlarda va poxodlarda, ilmiy safarlarda qatnashgan, shuningdek, muzeylar, arxeologik yodgorliklar, tarixiy obidalar va arxitektura yodgorliklariga borgan o'lkashunoslar arxeologik, etnografik ma'lumotlar bilan bir qatorda toponimik ma'lumot ham to'playdilar.

O'zbekiston toponimikasida quyidagilar toponimik ob'ektlarga bo'linadi:

1) gidronimlar; 2) oykonimlar; 3) agroonimlar; 4) muqaddaslashtirilgan joy nomlari; 5) oronimlar; 6) drononimlar; 7) tarixiy yodgorliklarning nomlari; 8) paragonimlar (tashkilot, idora, muassasalarning nomlari); 9) g'orlarning hamda yer osti ko'llarning nomlari.

T.Nafasovning «Janubiy O'zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi» (Toshkent, 1985, 84-bet) nomli monografiyasida mamlakatimiz janubidagi joy nomlari etnolingvistik jihatidan tahlili berilgan. Z.Do'simov «Xorazm toponimlari» (Toshkent, «Fan», 1985, 104-bet) deb nomlangan monografiyasida alohida voqea hisoblangan Xorazm hududi joy nomlariga xos eng xarakterli xususiyatlar birma-bir bayon qilingan.

N.Oxunovning «Til va joy nomlari» (Toshkent, «O'zbekiston», 1988), «Antroponimlar nima?» (Toshkent, «Fan», 1989) nomli kichik-kichik kitoblarida toponimikaga oid nazariy masalalar bo'lgan joy nomlari, antroponimlar va toponimlarning nomlanish xususiyatlari kabilari atroflicha yoritilgan. L.Karimovning «O'zbek tilida toponimlarning o'rganilishi» nomli monografiyasida joy nomlarini o'rganish metodlari, ularning lingvistik xususiyatlari, semantik tasnifi, etimologik taxlili kabi ilmiy ahamiyat muammolar shimoliy o'zbek shevalaridagi toponimlar misolida bayon qilingan. S.Qorayevning «Toponomiya Uzbekistana» monografik tadqiqotida yurtimizdagi joy nomlariga oid bo'lgan xususiyatlarga e'tibor qaratilgan (bu monografiyalar adabiyotlar ro'yxatida to'liq berilgandir).

O'zbekiston toponomikasining kelajagi yangi davri o'tmish va hozirdan boshlanadi. Chunki erta, albatta, bundan boshlanganligi kabi mamlakatimiz toponimlariga oid yangi-yangi ilmiy tadqiqot ishlariga zamin so'zsiz bugundan qo'yilgan bo'lishi darkor. Shuning uchun toponimlar tadqiqotiga oid har bir tadqiqot ishlariga oldingilaridan farqlanadigan xususiyatga ega bo'lishi kerak. Shundagina bunday tadqiqotlar ilmiy ishlar sifatida ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olinadi. Joy nomlari to'g'risida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni ko'zdan kechirgan holda O'zbekiston toponomikasining kelajagi oldiga quyidagi eng muhim masalalarni qo'yish mumkin.

1. O'zbekiston Respublikasi joy nomlarining toponomik kartotekasini tuzishga tayyorgarlik ko'rish hamda uni tuzishni boshlab yuborish.

2. Ona Vatanimiz toponimlarini faqat izohlabgina qolmasdan, endi ularning etimologik taxlilini ham boshlash onlari keldi.

3. Mavjud tarixiy tadrijilikni buzmaganda yangi shakllanayotgan joylarga ham qo'yishning ilmiy-nazariy prinsip hamda me'yorlarini ishlab chiqish va amalda qo'llash.

Buxoro - qadimiy, tarixiy yodgorliklarga boy shahar. Narshahiy Buxoroning Numijkat, Bumiskat, Madikat us-sufriya, «Mis shahar», Madinat ut-tujjor, ya'ni «Savdogarlar shahri» degan nomlari borligini aytadi. Xalqda Buxoro-Bog'ora degan rivoyat ham bor. Buxoro so'zining etimologiyasi aniq emas. Buxoro - sanksritcha «vixara» so'zidan olingan bo'lib, «ibodatxona» ma'nosini bildiradi, degan fikr bor.

Buxorodagi toponimlar izohi.

Yangi bozor - Buxoro viloyati Buxoro rayonidagi qishloq. Bu nomni o'rganishda o'sha joyda yashab xizmat qilayotgan o'qituvchilarga, keksalarga va arxiv hujjatlariga murojaat qilinadi. Qishloqni nima uchun Yangi bozor deb atashgan? Bunga sabab, Yangi bozor qishlog'idagi bir oz naridagi qishloqda boshqa kichik bir bozor bo'lgan, bu bozordagi turli tomondan kishilar kelib

savdo-sotiq qilganlar. Bozor kengayib borgan, eski bozor bilan birgalikda yangi bozor ham rivojlangan. Shundan boshlab qishloq Yangi bozor deb atala boshlagan.

Sarikunda - Romiton rayonidan 15 km naridagi qishloq. Urganch cho'li etaklarida joylashgan. Keksalarning aytishlaricha, o'rta asrlarda qishloq nihoyatda obod bo'lgan. Maydoni keng, bog'-chorbog'i ko'p bo'lgan. Shu yerda kunda boshi, ya'ni suv boshi bo'lgani uchun ham qishloqning nomini shunday deb ataganlar. «Sari» - tojikcha, «kunda» - suv, suv taqsimlanadigan to'g'on boshi demakdir. Vaqt o'tishi bilan xususiy boylik uchun olib borilgan kurashlar natijasida qishloq harobaga aylangan. 1920 yilda qishloqda jami 6 xo'jalik istiqomat qilgan. Qishloq aholisining ko'pchiligi tojiklar. Keyingi yillarda qishloq tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Dastlab 10 gektar maydonda omoch bilan dehqonchilik qilgan sarikundaliklar bugungi kunda 300 gektardan ortiq yerga ekin ekib, farovon hayot kechirmoqdalar.

Tarob - Buxoro viloyati hududida joylashgan. Tarixiy manbalarda Tarob qishlog'i Buxorodan ham oldin paydo bo'lgan deyiladi. Bu qishloq dastlab Narshahiyning «Buxoro tarixi»da tilga olingan. Bu qishloq ahli 1238 yilda mo'g'illarga, keyinroq esa mahalliy boylarga, ruhoniylarga qarshi ko'targan qo'zg'olonlari bilan mashhurdir. Tarob so'zining etimologiyasi ma'lum emas. Mahmud Torobiy ham shu qishloqdan chiqqan.

Toqi sarrofon - Buxoro shahridagi bozor. Toq so'zi qadimiy me'morchilik atamalaridan biri bo'lib, «arkli bino» ma'nosini anglatadi. Buxoro xonligida usti yopilgan bozor toq deyilgan. Masalan, toqi telpakfurushon - telpak sotuvchilar, toqi sarrofon ham shunday bozorlardan biridir. Sarrof - pul «maydalovchi» demakdir. O'rta asrlarda Buxoroning Kesh (Shahrisabz) darvozasi yaqinidagi bir mahalla Rasattoq (arabcha «ark boshi») deb atalgan. Bu mahalla qadimda ana shu yerda bo'lgan gumbazli bozor nomi bilan atalgan bo'lsa kerak deydi tarixchi O.I.Smernova.

Shohrud - shahar arig'i, Buxoro shahrini suv bilan ta'minlaydigan ariq. Dastlab Rudi zar deb atalgan. Arab geograflari asarlarida «Nauri zar» shaklida qayd qilingan. Shayx Bonarziyning vaqf hujjatlarida «Rudi shao'ri Buxoro» deb atalgan. Keyingi asarlarida Shohrud bo'lib ketgan. Eronda ham Shohrud degan ariq bor. Peshku - Buxoro viloyati Fijduvon rayonidagi qishloq. Poza tojikcha - omochning uchiga kiydiriladigan cho'yak tish, pozagar omoch tishi quyuvchi usta degan ma'noni anglatadi.

Qarshi Qashqadaryo viloyatining ma'muriy markazi. Qarshi O'zbekistonning eng ko'hna shaharlaridan biri. U grek - Baqtriya davlati davridan beri mavjud. Shahar XIV asrgacha Nahshab deb atalgan. Arablar bu mahalliy nomni buzib, Nasaf deb ishlatgan bo'lsa kerak. Hozirgi Qarshi XIV asrning birinchi yarmida Voqa o'rtasida Samarqand, Buxoro, Afg'oniston, Hindiston va Sharqdagi boshqa qo'shni mamlakatlardan keladigan yo'llar ustida ko'rilgan. Chig'atoy nasmidan bo'lgan Kepakjon Qashqadaryo vodiysiga o'xshagan eski Nahshabdan ikki farsax narida o'ziga saroy qurgan. Saroy mug'ul tilida Qarshi deb ataladi. Qarshi «Shoh qal'asi» degan ma'noni ham anglatadi, deyishadi.

Yakkabog' - Qashqadaryo viloyati Yakkabog' rayonidagi shu nomdagi aholisi yashaydigan joy nomi. Aytishlaricha, dastlabki vaqtlarda hozirgi Yakkabog' rayoni o'rnida aholi kam bo'lgan. Bularning ham ko'pchiligi ko'chmanchi xalq bo'lib, chorvachilik bilan shug'ullangan. Yakkabog' hududi ekin ekishga qulay bo'lgan. U Hisor tog'iga yaqin bo'lib, chashma va mayda soy suvlari Yakkabog'dan o'tadi. Suvning bu jihatdan qulayligi bog'-rog' barpo etishiga olib kelgan. Bu joyda oldin yakka bog' barpo qilingan. Yakkabog' rayoni hududida bir necha qishloq mavjud. Bulardan biri Nug'alidir. Nug'aylilar haqida aytilgan ayrim gaplar hozir ham xalq o'rtasida mavjud. Ikkinchi qishloq - Qatag'on (quvilganlar), uchinchi qishloq Uchtepa.

Surxondaryo - tojik tilidan olingan bo'lib, «surx» - qizil, ya'ni Qizil daryo demakdir. Surxondaryo bosh oladigan tog' tizmalari, daralar, tog' jinslarida qizil ranglar mavjud. Suv bu jinslarni o'zi bilan oqizib kelganligi sababli qizil tusli tuyuladi. Shuning uchun yerli xalq - qizil daryoni tojik tilida «Surxondaryo» deb atashgan.

Sariosiyo - bunday deb atalishiga sabab, kishilarning aytishlariga qaraganda, bir vaqtlar shu yerda bir kishi tegirmon qurgan (o'rniga) va uning atrofiga kelib, uy-joy qurib o'rnasha boshlaganlar. Asta-sekin bu yer qishloqqa aylangan, aholisining ko'pchiligi tojiklardan iborat bo'lganligi sababli ular o'z qishloqlarini «tegirmon boshi», ya'ni tojikcha «Sariosiyo» deb

atalganlar. Sariosiyo keyingi davrda o'sib rivojlandi. Qishloq shaharga - rayon markaziga aylanib qoldi. Hozir ham Sariosiyo rayon markazidir. Qarsagan - Sho'rchi rayonidagi qishloq nomi. Aslida Qarsakgan yoki Qarsaknon bo'lishi kerak. Mahalliy xalq tulkinining bir turini Qarsak deb atashgan. Qadimgi tilda Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qarsak tulkilar jinsidan bo'lgan bir hayvon uning o'siq terisidan po'stin qilinadi, deb aytilgan. Agar bu so'zni «Qarasagan» tarzida oladigan bo'lsak, «Qarsak» tulkinining bir turi, «Gan» tojikcha ko'plik affiksidir.

Samarqand.

Jom qishlog'i - Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qishloqning nomi. Bu so'z fors tilidan olingan bo'lib, qadah metallidan yoki sopoldan yasalgan idish demakdir. Chunki qishloqning hamma tomoni tog' bilan o'ralgan bo'lib, huddi jomga, ya'ni kosaga o'xshaydi. Jom deyildashining boisi ham ana shu o'xshashliklar kelib chiqqan.

Hilboshi - Samarqand viloyati Xatirchi tumanidagi qishloq nomi «Xil» so'zining bir necha ma'nosi bor: nav, tur, zot va hokazo. Bu so'z avlod, toifa, urug', irsiyat ma'nolarida ham qo'llaniladi. Masalan, qabristonda bir ajdoddan tarqalgan kishilar dafn qilinadi. Joy xilxona deyiladi. Tojik, fors, pushtu tillaridan xil so'zi xil shaklida talaffuz qilinadi. Xilboshi yoki xeylboshi ham bo'lishi mumkin. Chunki Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarida ham bu so'z Heylboshi sifatida yozilgan bo'lib, avlodning boshi, urug' boshlig'i demakdir. Qishloq nomi shu so'zdan kelib chiqqan.

Qoraguzar - Samarqand viloyatidagi dovon. Suvdan o'tiladigan joy - kichik, guzar deyiladi, tog'dan oshib o'tiladigan joy-dovon ham ba'zi joylarda guzar deb ataladi. Aniqrog'i tog'dan oshib o'tiladigan joy dovon deyiladi. Qorong'i joydan tog' darasidan o'tilgan joyni Qoraguzar deb ataganlar.

Farg'ona.

Chuvalachi - Farg'ona viloyati Bog'dod rayonidagi qishloq. Toshkent shahridagi ko'cha nomi. Tojikcha «Katta qon» ma'nosidagi juvol so'zidan kelib chiqqan degan fikr bor.

Qaqir - Andijon viloyati Xunsaobod rayonidagi hamda Farg'ona viloyati Quva rayonidagi qishloqlar nomi. Qaqir suv yetib bormaydigan, qahrab yotgan yer degan ma'noni bildiradi.

Qo'sh ko'pir - rayoni Xorazm viloyatining yirik rayonlaridan biri. Hozirgi kunda rayonda 9ta qishloq bo'lib, bu qishloqlar nomlarining kelib chiqishi juda qiziq. Quyida biz bu haqda fikr yuritamiz.

Kenagas - bu qishloq mahalliy xalq orasida Kanayas deb yuritiladi, chunki hududdan Kanayas arig'i oqib o'tadi. Qishloqning markaziy qismiga Karaman qal'asi deyishadi. Karaman Xorazmda o'suvchi ulkan daraxt. Qariyalarning so'zlariga qaraganda, bu yerda Xiva xonligi davrida mudofaa vazifasini bajaruvchi kichik, o'ziga xos qal'acha bo'lgan. Kenagas degan qabila ham bo'lgan.

Xadra - Qo'sh ko'pir tumanidagi ikkinchi qishloqning nomi. Xadra so'zining ma'nosi qal'a yoki shaharning cheti demakdir. Xadra qishlog'i Xiva qal'asining shimol tomonida joylashgani uchun ham Xadra nomini olgan bo'lishi mumkin.

Do'rmon - Do'rmon, Do'rmoncha, Yuqori Do'rmon degan nomlar Toshkent vohasida juda ko'p uchraydi. Bu so'z mug'ul urug'laridan birining nomi bo'lib, ma'nosi mug'ul tilida «to'rt» demakdir. Bu so'zni ba'zi kishilarning, olimlarning afsonaviy qahramon Do'rmon Bahodir nomidan olingan deyishlari to'g'ri emasdir.

Birchimulla - Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi qishloq. Ba'zi birovlar Ko'ksuv bilan Chotqol suvlari qo'shilgan burchakda bir mulla o'tirgan ekan, shuning uchun ham Burchimulla, ya'ni mullaning burchi deb atalgan, deyishadi. Aslida bu nomning «mulla» so'ziga hech qanday aloqasi yo'q. Ikkala so'z - mulla, burch so'zlari ham minora degan ma'noni anglatadi.

Iskandar - bu Chirchiqdan birinchi suv oluvchi kanalning nomi, 1889 yilda bu kanal o'rnida kichik bir «sart» arig'i bo'lgan. Bu ariqni podshoh Aleksandrning qarindoshi Konstantin Romanov qayta qurdirib, unga «Oq podsho» Aleksandr nomini qo'ydiradi. U joy obodonlashtirilib, aholi yashaydigan joyga aylantiriladi va yarim xalq odatiga ko'ra Aleksandrni Iskandar deb yurita boshlaydilar. Hozirgi kunga qadar ham shu nom bilan yuritilib kelinmoqda.

6-MAVZU: MUZEYLARNING O'QUV-TARBIYAVIY ISHLARDA TUTGAN O'RNI REJA:

1. Muzeylarning o'quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rne Muzeylarning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

2. Fan tizimida muzeyshunoslik. O'zbekiston Respublikasidagi muzeylar va ularning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

3. Moddiy va ma'naviy merosni asrash hamda targ'ib etishda muzeylarning o'rne. Muzey turlari, ilmiy tadqiqot, madaniy-ma'rifiy ishlar olib boriladigan muzeylar, faqat bir soha bo'yicha ilmiy- tadqiqot ishlarni olib boriladigan muzeylar. Muzeylarning o'quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rne.

4. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar. Turkistonda tashkil etilgan ilk muzeylar faoliyati. O'zbekistonda 1917–1990- yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati.

5. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998- yil 12- yanvarda qabul qilingan "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. "Muzeylar to'g'risida"gi Qonun va qarorlarning qabul qilinishi va uning ahamiyati.

O'lkashunoslik manbalari orasida haqiqiy ilmiy va madaniy-ma'rifat muassasaga aylanib qolgan muzeylarning o'rne va ahamiyati kattadir. U moddiy va ma'naviy yodgorliklarning asl nusxalarini arxeologiya, etnografiya, toponimikaga oid materiallarni to'playdi, saqlaydi va ilmiy asosda o'rganib taxlil qiladi, natijalarini esa ekspozitsiya sifatida ommalashtiradi. Yig'ilgan va muzeyda saqlanayotgan barcha materiallar muzeyning ilmiy bazasini tashkil etadi va uning ijodiy faoliyatida asos bo'lib xizmat qiladi. Mana shu manbalar asosida muzeylar ilmiy tadqiqot va ilmiy hamda madaniy-ma'rifiy ta'lim-tarbiya ishlarini olib boradi.

M.T.Oybek nomidagi O'zbekiston tarixi muzeyi Turkistonning mashhur olimlari va jamoat arboblarning harakati bilan va bevosita rahbarligida hamda yordamida 1976 yilda tashkil etilgan.

Umuman bu muzeyning ochilishi va uning faoliyati o'lkaning madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. Muzey eksponatlari xalqaro ko'rgazmalarda namoyish qilindi, unda tuzilgan kataloglar esa hozirgacha ahamiyatini yo'qotgan emas.

Asrimizning boshlarida, ya'ni 20-yillardan keyin bu muzey Eaqiqiy ilmiy va madaniy-ma'rifiy muassasa bo'lib qoldi. Muzey jamoasi O'zbekiston xalqlarining qadim zamonlardan buyongi tarixini o'rganish yuzasidan ilmiy tekshirish ishlari olib borilmoqda. Muzey fondi respublikaning hamma viloyatlariga yuborilib turiladigan arxeologiya, etnografiya ilmiy safarlarining materiallari bilan doimiy ravishda boyitilmoqda.

Hozirgi vaqtda muzeyda 40 mingdan ortiq arxeologiyaga oid eksponatlar, 44 ming qadimgi pul nusxalari, 10 mingdan ortiq turli-tuman etnografiyaga oid buyumlar, 2 mingdan ortiq noyob yodgorlik buyumlari mavjud.

Muzey fondidagi materiallar orasida qo'shni respublikalar - Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'izistonga taalluqli ma'lumotlar ham ko'p.

Muzey turlari.

Respublikamiz hududida uch turdagi muzeylar mavjud bo'lib birinchi turdagi muzeylarga ilmiy-tadqiqot va madaniy-ma'rifiy ishlarni olib boradigan muzeylar kiradi. Ular bir vaqtning o'zida ilmiy-tadqiqot va madaniy-ma'rifat ishlarini olib boradi.

Ikkinchi turdagi muzeylarga faqat bir soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradigan muzey laboratoriyaga ega bo'lgan maxsus muzeylar (masalan, O'zbekiston fanlar akademiyasi qoshidagi bakteriologiya va minerologiya muzeyi) kiradi.

Uchinchi turdagi muzeylarga faqat o'quv turdagi muzeylar kiradi. Bu muzeyning asosiy maqsadi o'quv jarayonini yaxshilashdan iborat.

Muzey turlari ko'p jihatdan unda saqlanayotgan kolleksiya fondlarining xarakteriga va ular faoliyatining yo'nalishiga bog'liqdir.

Shuningdek, turli fan sohalariga bo'lingan muzeylar ham bor. Bu muzeylar orasida ko'proq ma'lum bo'lganlari yoki faqat o'sha soha mutaxassislarigagina ravshan bo'lgan ma'lum tarmoqni aks ettiruvchi muzeylar ham mavjud.

Masalan, Toshkentdagi M.T.Oybek nomli O'zbekiston tarixi muzeyini, tasviriy san'at muzeyini, Alisher Navoiy nomli adabiyot muzeyini, Turkiston harbiy okrugi muzeyini ko'pchilik omma yaxshi biladi, ammo arxeologiya, etnografiya, harbiy-tarixiy, memorial, regional, san'atshunoslik, texnik muzeylari ko'proq o'sha soha mutaxassislari biladilar.

Muzey zallari.

Muzey zallari tomoshabinlarni O'zbekiston tarixi muzeyi ekspozitsiyasida bo'lgan moddiy madaniyat yodgorliklari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Muzey fondlari asosan to'rt katta davrga bo'lingan bo'lib, ular quyidagicha nomlangan.

«Ibtidoiy jamoa va quldorlik tuzimi davri», «Fedralizm davri», «Turkiston chor Rossiyasi tarkibida», to'rtinchi bo'lim «O'zbekiston tarixining 1917-1990 yillardagi davri» deb nomlanadi.

Ibtidoiy jamoa va quldorlik tuzimi davri deb nomlangan birinchi bo'lim ibtidoiy jamoa odamlarining yashagan makonlariga ta'rif berish bilan boshlanadi. Ibtidoiy odamlar chaylalarda, g'orlarda yashaganlar. 1938 yilda Boysuntovning Teshiktosh g'orida qadimiy tosh davrida odam yashaganligi aniqlandi. Forning ichi keng, balandligi 21 metr keladi. For ichida gulxan oldiqlari, toshdan yasalgan mehnat qurollari, yovvoyi qush va hayvonlar: ayiq, kiyik, tog' echkisining suyak qoldiqlari topildiki, bu hol Teshiktoshdan yasalgan odamlar ovchilik bilan kun kechirganliklaridan dalolat beradi. Yuqoridagi ta'rifga binoan Teshiktosh g'ori (maketi) qo'yilgan. «Ibtidoiy odam sinantrop ovda. Eramizdan 600-400 ming yil ilgari» deb nomlangan maketi xuddi jonliday qilib ishlangan.

T.Sodiqov tomonidan chizilgan «malika To'maris qasos olmoqda» nomli suratga quyidagicha ta'rif berilgan: miloddan oldingi VI asrda O'rta Osiyoga forslar hukm qilganlar. Miloddan oldingi 529 yilda bosqinchilar massagetlar tomonidan tor-mor qilinadi. Podshoh Kir esa o'ldiriladi. Afsonaga talqin qilinishida, massagetlar malikasi To'maris Kirning boshini qon to'ldirilgan meshga tashlar ekan.

Miloddan oldingi 521 yilda podshoh Doro boshchiligida forslar bostirib keladi. Shiroq degan cho'pon yo'l ko'rsataman deb ularni jazirama cho'lu-biyobonda adashtiradi. Tilka-pora qilinayotgan shiroq: «Men g'alaba ildim, xalqimni xalokatdan qutqardim», deb mardona xitob qiladi. Miloddan oldingi 329 yilda Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari O'rta Osiyoga bostirib kirgan. Xalq bosqinchilariga qarshi bosh ko'tarib chiqqan. Rassom M.Nabiyev chizgan rasmda Spitamen chavandozlarining Marakonda atrofida Makedoniyaliklar hujumi tasvirlangan.

Quldorlik davrida savdo-sotiq ishlari rivoj topadi. A.Makedonskiy hukmronligi zamoniga Yunon-Baqtriya va Kushon podshohligi davriga oid tanga pullar shohlar, tangrilar tasviri, hukmdorlarni madh etuvchi yozuvlar zarb etilgan ekan.

Zargarlik buyumlari, kumush zeb-ziynatlar zodagon jangchilar hayotidan manzaralar chizilgan. Diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan terrakotik haykalchalar - hosildorlik ma'budasi Anaxita, erkaklar va chavandozlar tasvirlangan haykalchalar juda ajoyibligi bilan diqqatni o'ziga jalb etadi.

Endi O'zbekiston tarixi muzeyidagi «Feodalizm davri» deb nomlangan ikkinchi bo'limga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Bu bo'lim Samarqanddagi «Ishratxona» manetini tanishtirish bilan boshlanadi. Bu yerda V-VI asrlarga oid Bolaliktepadan topilgan rasm ham qo'yilgan. Rasmlardan birida feodallarning ziyofati tasvirlanadi.

Bu bo'limda turk askarlari qabriga qo'yiladigan tosh haykalchalar ham bor. Bu yerga VII-VIII asrlarga oid bo'lgan voqealarni olis ettiruvchi ana shunday «Turk tosh haykalchasi»ning asl nusxasi qo'yilgan.

panjikent so'g'dlarning ilk feodal mahri bo'lib, uni arablar xarob qilganlar. Rossiya FAning arxeologiyasiga oid ilmiy safari ko'p yillar mobaynida bu yerga qazish ishlari olib bordi.

Natijada muhtasham qo'rg'on va saroylar, turar joylar, hunarmandchilik ustaxonalari, katta-kichik do'konlar, qatorlashgan ko'chalar ochildi.

Buxoroda 40 km g'arb tomonda qadimiy Varaxsha shahrining xarobalari bor. Bu shaharda asrlarda Buxoro vohasining hukmdorlari yashaganlar. Varaxsha shahar - qo'rg'onining ikki qavatli hashamatli inshootini V.A.Nilin asosidagi rasmda ko'rish mumkin.

VI asrning 80 yillarida hozirgi Buxoro viloyati hududida istiqomat qilgan turk kambag'allari turk haqoniga va mahalliy feodallarga qarshi qo'zg'alon ko'targanlar. Qo'zg'alonga turk shag'zodasi Abruy boshchilik qilgan. 585 yilda qo'zg'alon shavqatsizlik bilan bostirilgan. Bu yerda V.I.Kaydalov chizgan «Abro'y qo'zg'aloni» deb nomlangan rasm qo'yilgan.

1200 yillik kitob (Usmon Mus'hafiydan ko'chirma)dan ko'chirma nusxa berilgan. Qur'on Samarqanddagi Hoji Ahror masjidida saqlangan.

O'rta Osiyoning hunarmand ustalari XI-XIII asr boshlarida ajoyib sopol va shisha idishlar yasaganlar. Bu davrda hunarmandchilik juda taraqqiy etgan. XI-XII asrlarda ajoyib gullar solib ishlangan sopol idish-tovoqlarning eng nafislari muzeydan joy olgan. Feodalizm davrida O'rta Osiyoda me'morchilik va binokorlik yanada rivoj topadi. Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi (X asr), Minorai Kalon (XII asr), Termiz shohlar saroyi, Xorazm shohlar saroyi (XII asr) me'morchilikning ajoyib namunalari hisoblanadi.

Muzeyda musavvir M.Nabiyev yaratgan ana shu buyuk siymo - Abu Ali ibn Sinoning rasmi turibdi (980-1037 yy). M.Nabiyevning buyuk olim - A.Beruniyning rami chizilgan portreti ham muzey ekspozitsiyalari ichidan o'rin olgan.

1219 yilda Mo'g'ullar istilosi davri boshlanadi. 1238 yilda ularga qarshi Buxoroda Tarob boshchiligida qo'zg'alon bo'lib o'tdi. Musavvir V.Nechayev tomonidan chizilgan «1365 yil, Samarqandda bo'lib o'tgan sarbadorlar qo'zg'oloni» deb nomlangan surat diqqatga sazovor. Undan tashqari, «Ulug'bek jahonning mashhur astronomlari orasida» degan (XVII asr) gravyura ham qo'yilgan.

Muzeyda A.Abdullayev chizgan ulug' o'zbek shoiri A.Navoiy (1441-1501 yy)ning rasmi ham bor. Navoiyning asarlari o'sha vaqtning eng yaxshi rassomlari, jumladan, «Sharq miniatyurasining piri» Behzod miniatyuralari bilan bezalgan.

«Turkiston chor Rossiyasi tarkibida» deb nomlangan uchinchi bo'lib «O'yg'ongan Sharq» fotolavhasi bilan boshlanadi.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng bu chekka o'lkaning tabiiy boyliklari tarixi madaniyatini o'rganish uchun o'zgacha sharoit tug'ildi. Bu yerga Rossiyaning jasur va iste'dodli olimlari N.A.Seversov, A.Fedchenko, I.Mushketov, V.Bartold boshchiligida ilmiy ekspeditsiyalar yuborildi.

Bosmaxona va litografiyaning paydo bo'lishi mahalliy aholining madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. Toshkentda, Qo'qonda ko'plab gazetalar chop etila boshlandi. Ularda xalqning siyosiy faol bo'lishi ta'kidlandi.

Dastlabki besh yilliklar mobaynida (S.I. toshni topganidan so'ng) o'zbek xalqi sanoatni rivojlantirishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

O'zbekistonda gaz nonlari asosan Buxoro, Xiva, Farg'ona va Surxondaryo rayonlarida joylashgan. Muzeyda gazoprovod o'tkazish tasvirlangan rasmi bor.

Urush yillari davridagi o'zbekistonliklarni jonbozlikni ifodalovchi: «O'zbekiston delegatsiyasi harbiy fronta», «General-leytenant L.A.Govorov O'zbekistonning birinchi prezidenti Yo'ldosh Oxunboboyev bilan» degan panno muzeyga qo'yildab, uning tagiga L.A.Govorovning vatanparvarlik haqidagi nutqi yozilgan.

1943 yil 24 sentyabrda urush qiyinchiliklariga qaramay, O'zbekistonda FA tashkil etildi. Unga 23ta ilmiy tadqiqot institutlari kirdi.

Muzeyga xalq komissarlari sovetining O'zbekiston fanlar akademiyasini tashkil etish haqidagi fotosuratni qo'yilgan.

Toshkent chinni zavodi o'zining xilma-xil mahsulotlari bilan shuhrat qozondi. Juda ajoyib va nozik did bilan ishlangan Toshkent chinni zavodi mahsulotlaridan namunalari muzeyda o'z aksini topgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muzey materiallari o'lkamizdagi qadim zamonlarda yaratilgan eng noyob yodgorliklar va keyingi davrda qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarni namoyish qilish bilan keng mehnatkash ommani, shu jumladan, o'quvchi va talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishiga xizmat qiladi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

**TARIXIY O'LKASHUNOSLIK
fanidan
SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN
USLUBIY KO'RSATMA**

Namangan – 2023

Ushbu uslubiy ko'rsatma Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 25-avgustdagi 744-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan na'munaviy fan dasturi talablari asosida ishlab chiqildi.

Mazkur uslubiy ko'rsatma oliy o'quv yurtlari 60220300-Tarix ta'lim yo'nalishining bakalavriat bosqichi talabalari uchun tayyorlangan bo'lib, unda tarix ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarga oid atamalar bo'yicha bilimlar, ko'nikma va malakalar berish belgilab berilgan.

Ma'sul muharrir:

Z. Madrahimov

tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

A. A. Sarimsoqov

tarix fanlari nomzodi, dotsent

N. Dexkanov

tarix fanlari nomzodi, dotsent

Uslubiy ko'rsatma Namangan davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2023 ____-yil ____-____dagi ____-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

A.A. Erqo'ziyev

Tarixiy o'lkashunoslik. (Seminar va amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy ko'rsatma).

– Namangan, 2023.

© Namangan davlat universiteti

KIRISH

Ushbu dastur oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Tarixiy o'lkashunoslik" fanining nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, fanning tarixi, tarixiy o'lkashunoslik insoniyat o'tmishini o'rganishning vazifalari va xususiyatlari, tarixiy o'lkashunoslik turlari (tabiiy, aholi, tarixiy-siyosiy, xo'jalik, hududiy bo'linish, tarixiy voqyealar, harbiy yurishlar,); O'rta Osiyoning qadim va urta asrlar shaharlari to'g'risida yozma manbalar, O'rta Osiyo hududida qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti, o'rta asrlar davrida O'rta Osiyo olimlari asarlarida "shahar" tushunchasi. X-XII asrlarda shahar madaniyati ravnaqi, Amir Temurning shaharlar qurilishiga oid siyosati, so'nggi o'rta asrlar Balxi, Buxoro XVIII-XIX asrlarda, Xiva so'nggi o'rta asrlarda, Toshkent XVIII-XIX asrlarda shaharsozlik madaniyati kabi masalalar ahamiyati ochib beriladi.

Hamda, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

Shuningdek, "Tarixiy o'lkashunoslik" fani doirasida ilmiy adabiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Fanning maqsadi – talabalarda tarixiy o'lkashunoslik va urbanizatsiya fanining shakllanishi va taraqqiyoti, uning tarixiy fanlarni o'rganishdagi o'rni, mintaqamizning boy tarixiy o'lkashunoslik va urbanizatsiyasi haqida tarixiy-geografik bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifalari – talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalari hamda O'rta Osiyoning tarixiy o'lkashunoslik o'rgatishdan iborat.

1-MAVZU: YEVIROPA TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN O'LKAMIZNING O'RGANILISHI.

Reja:

1. O'rta Osiyo tarixini o'rganishda akademik V.V. Bartol'dning tutgan o'rni. Uning ilmiy merosi.
2. Rus sharqshunosligining mahalliy tarixchilikka ta'siri

Darsning maqsadi: Talabalarda Yevropa tadqiqotchilari tomonidan o'rganilishi bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: Rossiyasiya imperiyasining o'lkamizdagi mustamlakachilik siyosati va o'lkani o'rganish masalasi. Yevropa tadqiqotchilari tomonidan o'lkamizning o'rganilishi. O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini o'rganishga bo'lgan e'tibor

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*.

2-MAVZU: O'ZBEKISTONNING TARIXIY GEOGRAFIK O'RNI VA TABIIY IQLIM SHAROITLARI

Reja:

1. O'lkamizning tarixiy-madaniy viloyatlari Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona, Xorazm, Ustrushona, Choch, Farg'onaning geografik o'rni.
2. Antik davrida o'lkamizning qadimgi davr tarixiy geografik o'rni. Kushonlar davri tarixiy geografiyasi.
3. Ilk o'rta asrlar davrida o'lkamiz tarixiy geografiyasi.
4. IX–XIII asrlar tarixiy geografiyasi. Amir Temur, temuriylar va shayboniylar davri tarixiy geografiyasi.
5. Xiva, Qo'qon xonliklari va Buxoro amirligining geografik o'rni.

Darsning maqsadi: Talabalarni O'zbekistonning tarixiy geografik o'rni va tabiiy iqlim sharoitlari bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: O'lkamizning tarixiy-madaniy viloyatlari Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona, Xorazm, Ustrushona, Choch, Farg'onaning geografik o'rni. Antik davrida o'lkamizning qadimgi davr tarixiy geografik o'rni. Kushonlar davri tarixiy geografiyasi. Ilk o'rta asrlar davrida o'lkamiz tarixiy geografiyasi. IX–XIII asrlar tarixiy geografiyasi. Amir Temur, temuriylar va shayboniylar davri tarixiy geografiyasi. Xiva, Qo'qon xonliklari va Buxoro amirligining geografik o'rni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

3-MAVZU: ARXEOLOGIK VA ME'MORIY YODGORLIKLARNING O'LKASHUNOSLIKDA TUTGAN O'RNI.

Reja:

1. O'lkamiz tarixini o'rganishda arxeologiya fanining tutgan o'rni va ahamiyati. Moddiy manbalar va tabiiy manbalar.
2. Tosh davri xususiyatlari. Tosh xo'jaligi va moddiy madaniyati. Tarixiy-madaniy jarayonlar. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllariga (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik) o'tish va ularning keyingi taraqqiyoti.

3. Bronza va temir davrlari xususiyatlari. O'troq dehqonchilik va ko'chmanchi qabilalarning tarqalishi. Ularning xo'jaligi va moddiy madaniyati.

4. O'lkamizda Antik davri me'morchiligi va san'ati, ilk o'rta asrlar davri shaharlari va me'moriy obidalari.

5. O'zbekistonning XI–XIII asr boshlari me'moriy yodgorliklari va me'morchiligi. O'zbekistonning Amir Temur, Temuriylar va Shayboniylar davri me'morchiligi asrlar davri me'morchiligi.

6. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonligi me'morchiligi. Mustaqillik davrida O'zbekistonda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari va ularning asosiy natijalari.

Darsning maqsadi: Talabalarni Arxeologik va me'moriy yodgorliklarning o'lkashunoslikda tutgan o'rni bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: O'lkamiz tarixini o'rganishda arxeologiya fanining tutgan o'rni va ahamiyati. Moddiy manbalar va tabiiy manbalar. Tosh davri xususiyatlari. Tosh xo'jaligi va moddiy madaniyati. Tarixiy-madaniy jarayonlar. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllariga (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik) o'tish va ularning keyingi taraqqiyoti. Bronza va temir davrlari xususiyatlari. O'zbekistonning Amir Temur, Temuriylar va Shayboniylar davri me'morchiligi asrlar davri me'morchiligi. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonligi me'morchiligi. Mustaqillik davrida O'zbekistonda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari va ularning asosiy natijalari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2009 yilda qabul qilingan "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonunining o'lka tarixini o'rganishdagi o'rni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

4-MAVZU: O'LKAMIZDA ANTIK DAVRI ME'MORCHILIGI VA SAN'ATI, ILK O'RTA ASRLAR DAVRI SHAHARLARI VA ME'MORIY OBIDALARI

Reja:

1. Antik davri me'morchiligi va san'ati.
2. Ilk o'rta asrlar davri shaharlari va me'moriy obidalari

Darsning maqsadi: Talabalarda Antik davri me'morchiligi va san'ati, ilk o'rta asrlar davri shaharlari va me'moriy obidalari yangi bilimlar xosil qilishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: O'troq dehqonchilik va ko'chmanchi qabilalarning tarqalishi. Ularning xo'jaligi va moddiy madaniyati. O'lkamizda Antik davri me'morchiligi va san'ati, ilk o'rta asrlar davri shaharlari va me'moriy obidalari. O'zbekistonning XI–XIII asr boshlarime'moriy yodgorliklari va me'morchiligi. Ko'chmanchi o'zbeklarning Dashti Qipchoqdagi davlati (Abulxayrxon davlati) va uning Shayboniixon tomonidan tiklanishi (tarixiy-geografik tavsifi). Temuriylar va shayboniylar o'rtasidagi kurashlar tarixiy O'lkashunoslik va urbanizatsiyasi. Shayboniylar davlati tarixiy O'lkashunoslik va urbanizatsiyasi. Etnik jarayonlar, o'zbek xalqi shakllanish jarayonining tugallanishi. Ashtarxoniylar va Xorazm davlati davrida O'rta Osiyo tarixiy O'lkashunoslik va urbanizatsiyasi. Ashtarxoniylar davlatining tarixiy O'lkashunoslik va urbanizatsiyasiga asosiy tavsifi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

5-MAVZU: PALEONTROPOLOGIK VA ETNOGRAFIK MA'LUMOTLARNING O'LKA TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

Reja:

1. O'lkashunoslikni o'rganishda paleontropologik ma'lumotlarning o'rni. Antropologiya va etnologiya fanining tadqiqot ob'ektlari.
2. O'zbekistonning qadimgi odam tarqalgan hudud ekanligi (Teshiktosh, Samarqand topilmalari). O'zbekiston hududida zamonaviy odamlarning paydo bo'lishi va voha bo'ylab

tarqalishi. Qadimda o'lkamizda majud bo'lgan irqalar, mongoloid irqining o'lkamizga kirib kelishi.

3. O'lkamiz qadimgi aholisining antropologik shakllari va tipi. Toshkent vohasining qadimgi aholisi. Kushon, Baqtriya aholisi, Zarafshon vohasi aholisi, Farg'ona vodiysining qadimgi aholisi.

4. O'lkamizdagi etnik guruhlar (So'g'dlar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massagetlar). Antik davri migratsiyalari va etnik jarayonlari. O'rta asrlarda turkiy tilli xalqlarning kirib kelishi masalalari va uning bosqichlari. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining etnik tarkibi.

5. O'lkamiz etnografiyasining o'rganilishi. Dastlabki etnografik ma'lumotlar. Qadimgi va o'rta asrlarda yaratilgan manbalarda etnografik ma'lumotlar. Rossiya va Yevropa tadqiqotchilari tomonidan o'lkamiz etnografiyasining o'rganilishi. Qadimgi diniy tasavvurlar, urf-odat va irimlar.

Darsning maqsadi: Talabalarda Paleontologik va etnografik ma'lumotlarning o'lka tarixini o'rni bo'yicha yangi bilimlar xosil qilishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: O'lkashunoslikni o'rganishda paleontologik ma'lumotlarning o'rni. Antropologiya va etnologiya fanining tadqiqot ob'yektlari. O'zbekistonning qadimgi odam tarqalgan hudud ekanligi (Teshiktosh, Samarqand topilmalari). O'zbekiston hududida zamonaviy odamlarning paydo bo'lishi va voha bo'ylab tarqalishi. Qadimda o'lkamizda majud bo'lgan irqalar, mongoloid irqining o'lkamizga kirib kelishi. O'lkamiz qadimgi aholisining antropologik shakllari va tipi. Toshkent vohasining qadimgi aholisi. Kushon, Baqtriya aholisi, Zarafshon vohasi aholisi, Farg'ona vodiysining qadimgi aholisi. O'lkamizdagi etnik guruhlar (So'g'dlar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massagetlar). Antik davri migratsiyalari va etnik jarayonlari. O'rta asrlarda turkiy tilli xalqlarning kirib kelishi masalalari va uning bosqichlari. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining etnik tarkibi. O'lkamiz etnografiyasining o'rganilishi. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum"*, *"O'z-o'zini nazorat"*, *"Klaster"*, *"Birgalikda o'rganamiz"*, *"O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

6-MAVZU: YEVROPA TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN O'LKAMIZ ETNOGRAFIYASINING O'RGANILISHI

Reja:

1. Xonliklar davrida Yevropa tadqiqotchilar tomonidan o'lkamiz etnografiyasining o'rganilishi

2. Sovetlar davrida Yevropa tadqiqotchilar tomonidan o'lkamiz etnografiyasining o'rganilishi

Darsning maqsadi: Talabalarni Yevropa tadqiqotchilari tomonidan o'lkamiz etnografiyasining o'rganilishi bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: Dastlabki etnografik ma'lumotlar. Qadimgi va o'rta asrlarda yaratilgan manbalarda etnografik ma'lumotlar. Rossiya va Yevropa tadqiqotchilari tomonidan o'lkamiz etnografiyasining o'rganilishi. Qadimgi diniy tasavvurlar, urf-odat va irimlar

o'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum"*, *"O'z-o'zini nazorat"*, *"Klaster"*, *"Birgalikda o'rganamiz"*, *"O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

7-MAVZU: TARIXIY O'LKASHUNOSLIKNI O'RGANISHDA YOZMA VA ARXIV MANBALARNING TUTGAN O'RNI

Reja:

1. O'lkamiz tarixi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar: "Avesto

2. Turkiy o'zbek tilidagi tarixiy manbalar. XIV–XVII asrlarda yaratilgan manbalar va ularning tahlillari.

3. Arxiv manbalarining o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

4. Arxivshunoslik to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Qadimgi va o'rta asrlar davri arxivlari.

5. Arxiv hujjatlarini hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Tarixiy jarayonlarni yoritishda va o'lkashunoslikni o'rganishda arxiv hujjatlarining o'rni.

6. Mustaqillik davrida arxiv hujjatlarining o'rganilishi. O'zbekistonning mustaqilligi davrida arxiv ishlari tizimi. 2010- yilda O'zbekiston Respublikasi arxivlar ishi to'g'risidagi qonunning o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

Darsning maqsadi: Talabalarni o'lkashunoslikni o'rganishda yozma va arxiv manbalarning tutgan o'rni bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: O'lkamiz tarixi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar: "Avesto", qadimgi fors manbalari, yunonrim mualliflarining asarlari. Xitoy manbalari. Qadimgi yozuv yodgorliklari so'g'd, baqtriya va xorazm yozuvlari. O'rta asrlar davri arab va mahalliy mualliflarining asarlari, ularda o'lkashunoslikga oid ma'lumotlar. Turkiy o'zbek tilidagi tarixiy manbalar. XIV–XVII asrlarda yaratilgan manbalar va ularning tahlillari. Arxiv manbalarining o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Arxivshunoslik to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Qadimgi va o'rta asrlar davri arxivlari. Arxiv hujjatlarini hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Tarixiy jarayonlarni yoritishda va o'lkashunoslikni o'rganishda arxiv hujjatlarining o'rni. Mustaqillik davrida arxiv hujjatlarining o'rganilishi. O'zbekistonning mustaqilligi davrida arxiv ishlari tizimi. 2010- yilda O'zbekiston Respublikasi arxivlar ishi to'g'risidagi qonunning o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

8-MAVZU: O'RTA ASRLAR DAVRI ARAB VA MAHALLIY MUALLIFLARINING ASARLARI, ULARDA O'LKASHUNOSLIKGA OID MA'LUMOTLAR

Reja:

1. O'rta asrlar davri arab mualliflarining asarlari, o'lkashunoslikga oid ma'lumotlar
2. Qadimgi yozuv yodgorliklari so'g'd, baqtriya va xorazm yozuvlari.
3. O'rta asrlar davri mahalliy mualliflarining asarlarida o'lkashunoslikga oid ma'lumotlar.

Darsning maqsadi: Talabalarni O'rta asrlar davri arab va mahalliy mualliflarining asarlari, ularda o'lkashunoslikga oid ma'lumotlar bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: O'lkamiz tarixi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar: "Avesto", qadimgi fors manbalari, yunonrim mualliflarining asarlari.. Qadimgi yozuv yodgorliklari so'g'd, baqtriya va xorazm yozuvlari. O'rta asrlar davri arab va mahalliy mualliflarining asarlari, ularda o'lkashunoslikga oid ma'lumotlar. Turkiy o'zbek tilidagi tarixiy manbalar. XIV–XVII asrlarda yaratilgan manbalar va ularning tahlillari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

9-MAVZU: TOPONIMIK MANBALARNING O'LKA TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

Reja:

1. Toponimikaning fan sifatida shakllanishi. Toponimikaga oid asosiy ilmiy terminlar mazmuni. Toponimikaning ikki qismga: mikro va makro toponimlarga bo'linishi. Ularning farqli xususiyatlari.

2. O'zbekiston toponimikasiga oid atamalarning yozma manbalarda qayd etilishi. O'zbekistonda toponimik tadqiqotlar tarixi.

3. Toponimik ma'lumotlar to'plash uslublari. Toponimikada antroponimlarning o'rni. Respublika viloyatlari joylarining toponimikasi. Toponimikaning xronologik davrlarga bo'lib o'rganilishi

Darsning maqsadi: Talabalarni Toponimik manbalarning o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: Toponimika tushunchasi va uning maqsadi. Geografik joy nomlarini o'rganishda toponimikaning o'rni. Toponimikaning fan sifatida shakllanishi. Toponimikaga oid asosiy ilmiy terminlar mazmuni. Toponimikaning ikki qismga: mikro va makro toponimlarga bo'linishi. Ularning farqli xususiyatlari. O'zbekiston toponimikasiga oid atamalarning yozma manbalarda qayd etilishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *“Aqliy hujum”, “O'z-o'zini nazorat”, “Klaster”, “Birgalikda o'rganamiz”, “O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”*

10-MAVZU: MUZEYLARNING O'QUV-TARBIYAVIY ISHLARDA TUTGAN O'RNI

Reja:

1. Muzeylarning o'quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rni Muzeylarning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

2. Fan tizimida muzeyshunoslik. O'zbekiston Respublikasidagi muzeylar va ularning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

3. Moddiy va ma'naviy merosni asrash hamda targ'ib etishda muzeylarning o'rni. Muzey turlari, ilmiy tadqiqot, madaniy-ma'rifiy ishlar olib boriladigan muzeylar, faqat bir soha bo'yicha ilmiy- tadqiqot ishlarni olib boriladigan muzeylar. Muzeylarning o'quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rni.

4. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar. Turkistonda tashkil etilgan ilk muzeylar faoliyati. O'zbekistonda 1917–1990- yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati.

5. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998- yil 12- yanvarda qabul qilingan “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida”gi Farmoni. “Muzeylar to'g'risida”gi Qonun va qarorlarning qabul qilinishi va uning ahamiyati.

Darsning maqsadi: Talabalarni Muzeylarning o'quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rni bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: Muzeylarning o'quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rni Muzeylarning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Fan tizimida muzeyshunoslik. O'zbekiston Respublikasidagi muzeylar va ularning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Moddiy va ma'naviy merosni asrash hamda targ'ib etishda muzeylarning o'rni. Muzey turlari, ilmiy tadqiqot, madaniy-ma'rifiy ishlar olib boriladigan muzeylar, faqat bir soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarni olib boriladigan muzeylar. Muzeylarning o'quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rni. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar. Turkistonda tashkil etilgan ilk muzeylar faoliyati. O'zbekistonda 1917–1990- yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998- yil 12- yanvarda qabul qilingan “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida”gi Farmoni. “Muzeylar to'g'risida”gi Qonun va qarorlarning qabul qilinishi va uning ahamiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *“Aqliy hujum”, “O'z-o'zini nazorat”, “Klaster”, “Birgalikda o'rganamiz”, “O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”*

11-MAVZU: O'LKAMIZ TARIXINI O'RGANISHDA TOPONIMIKA FANINING TUTGAN O'RNI

Reja:

1. Toponimika tushunchasi va uning maqsadi. Geografik joy nomlarini o'rganishda toponimikaning o'rni.

2. Toponimikaning bo'limlari: gidronimika, oykonimika, oronimika, urbanomika, etnonimlar, patronimlar, xronimlar, zoonimlar, religonimlar, teonimlar va boshqalar.

Darsning maqsadi: Talabalarni O'lkamiz tarixini o'rganishda toponimika fanining tutgan o'rnibilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering Toponimika tushunchasi va uning maqsadi. Geografik joy nomlarini o'rganishda toponimikaning o'ri. Toponimikaning bo'limlari: gidronimika, oykonimika, oronimika, urbanomika, etnonimlar, patronimlar, xronimlar, zoonimlar, religonimlar, teonimlar va boshqalar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

12-MAVZU: O'ZBEKISTON VILOYATLAR TOPONIMIKASI

Reja:

1. Toshkent vohasi shahri toponimlari.
2. Farg'ona vodiysi shaharlari toponimlari.
3. Zarafshon vodiysi shaharlari toponimlari.

Darsning maqsadi: Talabalarni Viloyatlar toponimikasi bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: O'zbekistonda toponimik tadqiqotlar tarixi. Toponimik ma'lumotlar to'plash uslublari. Toponimikada antroponimlarning o'ri. Respublika viloyatlari joylarining toponimikasi. Toponimikaning xronologik davrlarga bo'lib o'rganilishi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

13-MAVZU: ARAB MANBALARIDA O'LKASHUNOSLIGA OID MA'LUMOTLAR

Reja:

- 1 Arab manbalarida o'lkashunoslikga oid ma'lumotlar
- 2 Arab manbalarida ko'rsatilgan hududlarni joylashuv o'ri.

Darsning maqsadi: Talabalarni Arab manbalarida o'lkashunosliga oid ma'lumotlar bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: O'rta asrlar davri arab mualliflarining asarlari, ularda o'lkashunoslikga oid ma'lumotlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

14-MAVZU: O'ZBEKISTONNING MA'MURIY HUDUDIY TUZILISHI VA REL'EFI.

Reja

1. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi va uning o'rganilish.
2. Iqlim sharoitlari. Suv resurslari.
3. O'zbekiston va uning viloyatlarini ma'muriy-hududiy markazlari. Tumanlar, qishloq, ovullar va ularning tasnifi hamda reliefi.

Darsning maqsadi: Talabalarni O'zbekistonning ma'muriy hududiy tuzilishi va rel'efi. Mustaqillik davrida o'lkamizda olib borilgan ishlar bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi va rel'efi. Iqlim sharoitlari. Suv resurslari. Tabiiy o'simliklar qatlami va hayvonot olamining o'ziga xosligi. Tabiiy iqlim sharoitlari va landshaftlar tipi..

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

15-MAVZU: MUSTAQILLIK DAVRIDA O'LKAMIZDA OLIB BORILGAN ISHLAR

Reja

1. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi va rel'efi. Iqlim sharoitlari. Suv resurslari.

2. Mustaqillik davrida o'lkamizda olib borilgan ishlar

Darsning maqsadi: Talabalarni O'zbekistonning ma'muriy hududiy tuzilishi va rel'efi. Mustaqillik davrida o'lkamizda olib borilgan ishlar bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

E'tibor bering: O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi va rel'efi. Iqlim sharoitlari. Suv resurslari. Tabiiy o'simliklar qatlami va hayvonot olamining o'ziga xosligi. Tabiiy iqlim sharoitlari va landshaftlar tipi..

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

NAZORAT SAVOLNOMALARI

1. Tarixiy o'lkashunoslik fanining fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi.
2. Avesto va qadimgi manbalarda o'lkamizning nomlari.
3. Arab manbalarida o'lkamiz haqidagi ma'lumotlar va ularning ahamiyati.
4. IX–XII asrlarda o'lkadagi siyosiy va iqtisodiy hayot.
5. Amir Temur va temuriylar davrida o'lkamiz.
6. Shayboniylar davrida o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar.
7. Xonliklar davri o'lkashunosligi.
8. Tarixiy o'lkashunoslikning tarix fani tizimida tutgan o'rni.
9. Tarixiy o'lkashunoslik fanining tadqiqot ob'yektlari.
10. Turkistonda dastlabki ilmiy jamiyatlarning tashkil etilishi.
11. Tarixiy o'lkashunoslik fanining rivojlanishida ilmiy jamiyatlarning o'rni.
12. Rossiya imperiyasining o'lkani o'rganish masalasi.
13. Yevropa tadqiqotchilari tomonidan o'lkamizning o'rganilishi.
14. Shahar madaniyati vujudga kelish jarayonida Buyuk Ipak yo'li savdosining ta'siri.
15. Xitoy va arab manbalarida Farg'ona shaharlari.
16. O'rta asrlar davri shaharlari: Axsikat va Quva (Qubo),
17. Andijon XIV–XVI asrlarda.
18. Muzeylarning o'quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rni.
19. Muzeylarning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati.
20. Fan tizimida muzeyshunoslik.
21. O'zbekiston Respublikasidagi muzeylar va ularning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati.
22. Moddiy va ma'naviy merosni asrash hamda targ'ib etishda muzeylarning o'rni.
23. Muzey turlari, ilmiy tadqiqot, madaniy-ma'rifiy ishlar olib boriladigan muzeylar.
24. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar. Turkistonda tashkil etilgan ilk muzeylar faoliyati.
25. O'zbekistonda 1917–1990- yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati.
26. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati.
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvarda qabul qilingan "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni.
28. "Muzeylar to'g'risida»gi Qonun va qarorlarning qabul qilinishi va uning ahamiyati.

BAHOLASH MEZONLARI

Talabalarning har bir semestrda fanlarni o'zlashtirishi har bir baholash turlari bo'yicha: 5 (a'lo), 4 (yaxshi), 3 (qoniqarli) va 2 (qoniqarsiz) ko'rinishida baholanadi. 5, 4 va 3 baholar ijobiy hisoblanadi. Baholashda raqam va matn bir xil talqin etiladi.

Malakaviy amaliyot, kurs ishi (loyihasi), fan (fanlararo) davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, shuningdek magistraturada ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha talabalar o'zlashtirishi ham yuqoridagi baholash turlari bo'yicha baholanadi.

1. Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar tavsifa etiladi:

5 (a'lo) baho:

xulosa va qaror qabul qilish;

ijodiy fikrlay olish;
mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, ifodalash, aytib berish;
fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.

4 (yaxshi) baho:

mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, ifodalash, aytib berish;
fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.

3 (qoniqarli) baho:

mohiyatini tushunish;
bilish, ifodalash, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

2 (qoniqarsiz) baho:

fan dasturni o'zlashtirmaganlik;
fanning mohiyatini bilmaslik;
aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
mustaqil fikrlay olmaslik.

2. Baholash turlari bo'yicha tuzilgan savollar (topshiriqlar) mazmuni (oddiydan murakkabgacha) baholash mezonlariga muvofiq talabaning o'zlashtirishini xolis (ob'yektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi kerak.

Savollar (topshiriqlar)ning talab darajasida tuzilishi bo'yicha mas'uliyat fan professor-o'qituvchilari hamda kafedra mudiriga yuklatiladi. Savollar (topshiriqlar) tarkibiga ishchi fan dasturida ko'rsatilgan barcha materiallar, xususan nazariy materiallar bilan birga mustaqil ish, seminar mashg'ulotlari va boshqa materiallar ham kiritiladi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

“Tarixiy o'lkashunoslik” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Очилдиев Ф.Б. Тарихий ўлкашунослик. Ўқув-қўлланма. – Т.: «Университет», 2020.
2. Южин С. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. Инглиз тилидан таржима ва изоҳлар Саидбобоев З.А. – Тошкент, 2019.
3. Саидбобоев З.А. Тарихий география. Дарслик. – Т., 2010.
4. Эшов Б.Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи. Дарслик. – Тошкент, 2008.
5. Сагдуллаев А.С. Ўзбекистон тарихи (1- қисм). Дарслик – Т.: VNESHINVESTPROM, 2019.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: «Ўзбекистон», 2017.
7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: «Ўзбекистон», 2017.
8. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамыз. – Т.: «Ўзбекистон», 2017.
9. Алимов И., Эргашев Ф., Бутаев А. Архившунослик. – Т., 1997.
10. Анарбаев А.А. Благоустройство средневекового города Средней Азии (V- нач. XIII вв). – Т., 1981. pdf.
11. Аннаев Т.Ж., Шайдуллаев Ш.Б. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. – Самарқанд, 1997.
12. Мовлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Т., 2008.
13. Караматов Ҳ. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Т., 2009.
14. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. I - жилд. (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). – Т., 2013. pdf.
15. Saidov Sh. J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (Eng qadimgi davrlardan milodiy VII-VIII asrlargacha). O'quv qo'llanma. – Т.: ToshDSHI, 2010. pdf.
16. Асанова Г., Набиханов М., Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўғрофияси. – Т., 1994.
17. Древняя и средневековая культура Сурхандарёи. – Т., 2001. pdf
18. Чориев З., Аннаев Т. Ал-Ҳаким Ат- Термизий. – Т., 2008.
19. Кабиров А., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1990. pdf.
20. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 1996. pdf.
21. Жабборов И. М. Ўзбек халқи этнографияси. – Т., 1994.
22. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Т., 1988.
23. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1996. pdf.
23. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Ўқув қўлланма. – Т., 2004. pdf.
24. Сагдуллаев А.С., Аминов Б.Б., Якубов Б.С. Қашқадарё тарихидан лавҳалар. – Қарши, 1997.
25. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Т., 2000. Pdf
26. Хужайов Т., Хужайова Г. Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи. – Т., 1995.
27. Erica Hunt. Local History. Segue Foundation. – New York. 1993.
28. Хужайов Т. Қадимги аждодларимиз қиёфаси. – Т., 1992.

AXBOROT MANBAALARI

1. <https://new.tdpu.uz/>
2. <https://lex.uz/>
3. <http://e-library.namdu.uz/>
4. www.ziyouz.com

Nazorat savolnomalari:

1. Tarixiy o'lkashunoslik fanining fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi.
2. Avesto va qadimgi manbalarda o'lkamizning nomlari.
3. Arab manbalarida o'lkamiz haqidagi ma'lumotlar va ularning ahamiyati.
4. IX–XII asrlarda o'lkadagi siyosiy va iqtisodiy hayot.
5. Amir Temur va temuriylar davrida o'lkamiz.
6. Shayboniylar davrida o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar.
7. Xonliklar davri o'lkashunosligi.
8. Tarixiy o'lkashunoslikning tarix fani tizimida tutgan o'rni.
9. Tarixiy o'lkashunoslik fanining tadqiqot ob'yektlari.
10. Turkistonda dastlabki ilmiy jamiyatlarning tashkil etilishi.
11. Tarixiy o'lkashunoslik fanining rivojlanishida ilmiy jamiyatlarning o'rni.
12. Rossiya imperiyasining o'lkani o'rganish masalasi.
13. Yevropa tadqiqotchilari tomonidan o'lkamizning o'rganilishi.
14. Shahar madaniyati vujudga kelish jarayonida Buyuk Ipak yo'li savdosining ta'siri.
15. Xitoy va arab manbalarida Farg'ona shaharlari.
16. O'rta asrlar davri shaharlari: Axsikat va Quva (Qubo),
17. Andijon XIV–XVI asrlarda.
18. Muzeylarning o'quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rni.
19. Muzeylarning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati.
20. Fan tizimida muzeyshunoslik.
21. O'zbekiston Respublikasidagi muzeylar va ularning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati.
22. Moddiy va ma'naviy merosni asrash hamda targ'ib etishda muzeylarning o'rni.
23. Muzey turlari, ilmiy tadqiqot, madaniy-ma'rifiy ishlar olib boriladigan muzeylar.
24. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar. Turkistonda tashkil etilgan ilk muzeylar faoliyati.
25. O'zbekistonda 1917–1990- yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati.
26. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati.
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvarda qabul qilingan "Muзейlar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni.
28. "Muзейlar to'g'risida»gi Qonun va qarorlarning qabul qilinishi va uning ahamiyati.

TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH VA NAZORAT QILISH BO'YICHA Y O' R I Q N O M A

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlangan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib birilgan, masalaga oladigan ijodiy yondoshgan xolda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, taxlil qilib, sharoitga tez moslasha mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga etkazish qiyin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullanmasa va o'z ustida tinimsiz ishlagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri xisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoridan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

O'qishning boshlang'ich bochiqlarida TMI ni tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarning ta'limning navbatdagi turi-oliy ta'lim talablariga ko'nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta'lim olish jarayonida o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor bo'lishmaydi.

Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabadan o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini xisobga olgan xolda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. SHunda mustaqil ta'limga ko'nika boshlangan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb xisoblangan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda qo'yidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:

- o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrda – semestrda ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib borish kerak bo'ladi.

TMI ni tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda qo'yidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalar)ni bajarish;
- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to'plash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning echimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezis va ma'ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni echish va ijodiy ishlash;
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar;

Fan xususidan kelib chiqqan xolda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga hizmat qilish kerak.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mavzunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan xolda mavzuga taaluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur xollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar etishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va x.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha matn kafedrada ximoya qilinadi.

Referat tayyorlash. Talabalar qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va x.k.) foydalanib materiallar yig'adi, taxlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zurur xollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va x.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bo'nday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talabalar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Konsultatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan

vazifa va talabalarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin).

Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislari va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabani o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) harakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izoxlar kiritadi, o'z nuqtai nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan xamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki kafedrada himoya qilinadi.

Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni echish va ijodiy ishlash. Bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha nostandart, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi topshirilishi mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Talabani qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy harakterdagi topshiriqlar berish, o'qituvchi bilan xamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirishi mumkin.

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:

- tizimli yondoshish;
- barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun qo'yidagi talabalar bajarilishi lozim:

- maqsad (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va h. k) aniq asoslanishi;
- vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
- topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning etarli darajada xabardor bo'lishi;
- maslahat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi (yo'llanma va ko'rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo'yicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlarni birgalikda hal qilish va h.k.);
- hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, konsultatsiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma'ruza yo referat matni bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko'rgazmali jihozlar va ijodiy ishlar, savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va h.k.)

Talabalar mustaqil ishini shartli ikkiga ajratish mumkin:

a) auditoriyada amalga oshiriladigan TMlari. O'tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;

b) auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMlari, o'quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil xolda o'zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlar va x.k.

Birinchi tur ishlari talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o'zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg'ulotlarga (amaliyot, laboratoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida odatda, nazorat ishlari olish savol-javob,

suhbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib ko'rish va x.k. usullardan asosan amaliyot darslarida nazorat (joriy nazorat) qilinadi.

Joriy nazoratda talabanning dars paytida o'tilgan materiallarni o'zlashtirishi va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdagi faolligi, bajarish saviyasi va o'zlashtirish darajasi e'tiborga olinadi.

Ikkinchi tur ishlar fanning ishchi o'quv dasturida auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishi belgilangan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni mustaqil ravishda ishlab topish, taxlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o'zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko'rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o'zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgilangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi.

Talabalar mustaqil ishini baholash. TMI natijalari amaldagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilishi va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi.

Namuna

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha konsultatsiyalar tashkil etish tartibi

1. Talabalar mustaqil ishi (TMI) bo'yicha **konsultatsiya darsi** auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uni bajarilishini nazorat kilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

2. TMI bo'yicha konsultatsiya darsi fanning kalendar-tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

3. Konsultatsiya darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

4. Fan o'qituvchisi konsultatsiya darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

TMI topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi;

topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;

tegishli adabiyotlar va axborot manbalarini tavsiya qiladi;

TMI yuzasidan tayyorlangan ishlanma, xisobot, referat, xisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

5. TMI bo'yicha konsultatsiyalar o'quv jarayonining 1 yoki 2 semenada tashkil etilishiga qarab talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Nazariy va seminar mashg'ulotlari o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Badiiy asarlarni estetik-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni kuzatib borish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning muayyan xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

■ darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari va mavzularni o'rganish;

■ tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

■ maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

■ talabalarning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

■ faol va muammoli o'qitish uslublari qo'llanadigan o'quv mashg'ulotlari.

| MUSTAQIL ISHI MAVZULARINI TAQSIMLANISHI | |
|--|--|
| 1 | O'lkamiz tarixini o'rganishda arxeologik yodgorliklarning o'rni. |
| 2 | Turkistonda dastlabki ilmiy jamiyatlarning tashkil etilishi |
| 3 | O'zbekistonning Amir Temur va temuriylar davri me'morchiligi. |
| 4 | Toshkent vohasining qadimgi aholisi, Kushon Baqtriya aholisi. |
| 5 | O'rta Osiyoda shaharsozlik madaniyatining paydo bo'lishi. |
| 6 | XIV-XVI asrlarda o'lkamiz tarixiy geografiyasi. |
| 7 | Qadimgi diniy tasavvurlar, urf-odat va irimlar. |
| 8 | Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari va unda O'rta Osiyo toponimlari. |
| 9 | "Avesto" kitobi o'lkamiz tarixini o'rganishdagi muhim manba. |
| 10 | Respublika viloyatlari joylarining toponimikasi. |
| 11 | O'lka tarixini o'rganishda muzeylarning o'rni |
| 12 | Mustaqillik yillarda o'lkashunoslik |
| 13 | Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri me'morchiligi. |
| 14 | Abu Rayxon Beruniy asarlari va "Hudud ul-Olam" asari – muhim tarixiy manba. |
| 15 | Xiva xonligi me'moriy obidalari |
| 16 | XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi xo'jaligi va tarixiy geografiyasidagi o'zgarishlar. |
| 17 | Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida toponimik ma'lumotlar. |
| 18 | XI – XII asrlarda O'rta Osiyoda geografik bilimlar. |
| 19 | Yunon tarixchilarining asarlarida O'rta Osiyo haqidagi tarixiy-geografik ma'lumotlar |
| 20 | Ashtarxoniylar davri tarixiy geografiyasi va xo'jaligi |
| 21 | Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tarixiy geografiyasi. |
| 22 | O'zbekistonda 1917-1990 yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati. |
| 23 | Shayboniylar davrida Buxoro xonligi tarixiy geografiyasi |
| 24 | Rim tarixchilarining O'rta Osiyo tabiati haqidagi tarixiy geografik ma'lumotlari. |
| 25 | Qo'qon xonligining geografik o'rni. |
| 26 | O'lkamizda Antik davri me'morchiligi va san'ati. |
| 27 | O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi |
| 28 | Xiva xonligining geografik o'rni. Ilmiy bilimlar rivoji. |
| 29 | Buxoro Xalq Sovet Respublikasining va uning tarixiy geografiyasi |
| 30 | O'zbekiston tarixini yoritishda arxeologik va me'moriy yodgorliklarning o'lkashunoslikda tutgan o'rni. |
| 30 | Xiva xonligida yaratilgan tarixiy asarlar va ulardagi tarixiy-geografik bilimlar taraqqiyoti. |
| 31 | Tarixiy jarayonlarni yoritishda va o'lkashunoslikni o'rganishda arxiv hujjatlarining o'rni. |
| 32 | Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va unda tarixiy-geografik ma'lumotlar. |
| 33 | Buxoro amirligining geografik o'rni. |
| 34 | Xiva xonligining Qo'ng'irotlar davri tarixiy geografiyasi. |
| 35 | Antik davrida o'lkamizning qadimgi davr tarixiy geografik o'rni. |
| 36 | Kushonlar davri tarixiy geografiyasi. |
| 37 | Rossiyasiya imperiyasining o'lkamizdagi mustamlakachilik siyosati va o'lkani o'rganish masalasi. |
| 38 | O'lkamizning tarixiy-madaniy viloyatlari Baqtriya, Marg'iyona, Sug'diyona, Xorazmning geografik o'rni |
| 39 | Shayboniylar davrida o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. |

| | |
|----|--|
| 40 | O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini o'rganishga bo'lgan e'tibor. |
| 41 | Bronza va temir davrlari xususiyatlari |
| 42 | Xonliklar davri o'lkashunosligi. |
| 43 | O'zbekistonning XI-XIII asr boshlarime'moriy yodgorliklari va me'morchiligi. |
| 44 | Shayboniylar davrida o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. |
| 45 | Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati. |
| 46 | O'zbekistonning qadimgi odam tarqalgan hudud ekanligi (Teshiktosh, Samarqand topilmalari). |
| 47 | Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining etnik tarkibi. |
| 48 | Kushon Baqtriya aholisi, Zarafshon vohasi aholisi, Farg'ona vodiysining qadimgi aholisi. |
| 49 | Etnografik ma'lumotlarning o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati |
| 50 | Buxoro xonligining etnik tarkibi ularning turmish tarzi. |
| 51 | Arab manbalarida o'lkamiz haqidagi ma'lumotlar va ularning ahamiyati. |
| 52 | O'lkamizda Antik davri me'morchiligi va san'ati. |
| 53 | O'lkamizdagi qadimgi etnik guruhlar. (So'g'dlar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massagetlar) |
| 54 | O'rta asrlar davri arab va mahalliy mualliflarining asarlari, ularda o'lkashunoslikga oid ma'lumotlar. |
| 55 | Xiva xonligining etnik tarkibi ularning turmish tarzi. |
| 56 | Xonliklar davri tarixini yoritishda fors tilidagi asarlarning o'rni. |
| 57 | Toshkent viloyati toponimlari |
| 58 | Qo'qon xonligining etnik tarkibi ularning turmish tarzi.. |
| 59 | Tarixiy o'lkashunoslini organishda Farg'ona viloyati toponimlarining ahamiyati |
| 60 | Samarqand viloyati tarixiy yodgorliklari |
| 61 | XIV–XVII asrlarda yaratilgan manbalar va ularning tahlillari. |
| 62 | Mustaqillik yillarida Respublikamiz ma'muriy hududiy tuzilishidagi o'zgarishlar |
| 63 | O'zbekiston va uning viloyatlarini ma'muriy-hududiy markazlari. |
| 64 | Namangan viloyati tarixiy yodgorliklari. |
| 65 | O'zbekistonning XI–XIII asr boshlarime'moriy yodgorliklari va me'morchiligi. |
| 66 | O'lkamiz etnografiyasining o'rganilishi. |
| 67 | O'zbekistonning XI–XIII asr boshlarime'moriy yodgorliklari va me'morchiligi. |
| 68 | Tarixiy o'lkashunoslini organishda Namangan viloyati toponimlarining ahamiyati. |
| 69 | Kosonsoy tuman tarixi |
| 70 | Viloyat tarixini o'rganishda Munchoqtepa yodgorligining o'rni. |
| 71 | Farg'ona viloyati tarixiy yodgorliklari |
| 72 | Shayboniylar davlati tarixiy o'lkashunoslik va urbanizatsiyasi. |
| 73 | Ichan qal'a va Dishan qal'a me'moriy yodgorliklari |
| 74 | Namangan shahar tarixi |
| 75 | O'zbekistorming ilk o'rta asrlar davri me'morchiligi va me'moriy yodgoriiklari |
| 76 | Toshkent vohasi tarixiy yodgorliklari |
| 77 | Zarafshon vohasi qadimgi davr yodgorliklari |
| 78 | Axsikent tarixiy yodgorligi va uni o'rganilishi |
| 79 | IX-XII asrlara ilmiy bilimlarni rivojlanishi |
| 80 | Mustaqillik yillarida tarixiy yodgorliklarini asrab-avaylash va saqlash bilan bog'liq muammolar |
| 81 | O'zbekiston tarixini o'rganishda moddiy yodgorliklarini o'rni |
| 82 | Rossiya tadqiqotchilari tomonidan o'lkamiz etnografiyasini o'rganilishi |
| 83 | Somoniylar. qoraxoniylar va mo'g'ullar bosqini davri tarixiy geografiyasi |
| 84 | Farg'ona viloyati toponimlari |

| | |
|-----|---|
| 85 | Xorazmshohlar (anushteginlar) davlati va uning tarixiy geografiyasi. |
| 86 | O'rta Osiyoning hududlari aks ettirilgan tarixiy kartalar. O'rta Osiyolik olimlarning kartografik tadqiqotlari. |
| 87 | Namangan viloyati toponimlari |
| 88 | O'rta Osiyoni mug'ullar davri tarixiy geografiyasi |
| 89 | Qo'qon xonliklarining siyosiy-ma'muriy va ma'muriy-hududiy bo'linishlari, xo'jalik, xalqlar, savdo aloqalari va tarixiy demografiyasiga tavsif. |
| 90 | IX-XII asrlar tarixiga oid arab tilida yozilgan manbala |
| 91 | Qadimgi Xorazm, Sug'd va Baqtriyaning tarixiy geografiyasi. |
| 92 | O'lkamiz qadimgi yozma manbalarda |
| 93 | XIII-XIV asrlar tarixiga oid fors va turkiy o'zbek tilidagi tarixiy manbalar |
| 94 | Kidariylar, xioniylar, eftaliylar, Turk xoqonligi va arablar davri tarixiy geografiyasi |
| 95 | O'zbekistonda 1917-1990-yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati |
| 96 | 1917-1924 yillarda Turkiston tarixi |
| 97 | Registon me'moriy ansamblining o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati |
| 98 | 1917-1920 yillarda Buxoro va Xiva xonliklarining tarixiy geografiyasi |
| 99 | O'zbekistonning tarixiy geografiyasi (1924-1991 yillar) |
| 100 | O'rta Osiyo tabiiy geografiasining xususiyatli jihatlari; shaharlar, davlat birlashmalarining shakllanishi. |

GLOSSARIY

Tabiiy manbalar (paleozoologiya, poleobotanika) - inson va hayvon suyaklari, o'simliklar qoldiqlari va geologik qatlamlar bo'lib ularni asosan zoologlar, botaniklar va geologlar o'rganadilar.

Toponimika - geografik nomlar kishi ismlarini o'rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponimikani zamin tili deb atashimiz ham mumkin. Geografik nomlar va zamin qa'rida o'rganilmayotgan nomlar insonlarga qo'yiladigan ismlar toponomikaning asosiy manbai hisoblanadi.

Arxeologiya - «arxayos» - qadimgi, «logos» - fan degan ikkita grekcha so'zning birikishidan tashkil topgan.

Antropologiya - odam haqidagi fan bo'lib, inson suyaklari qoldiqlarini tosh davri odamidan tortib keyingi davr odamlarigacha bo'lgan ajdodlarning jismonan qiyofasini tiklash imkonini beradi.

«**Avesto**» **jamiyati** - uning asosini katta patriarxal oila tashkil etgan. U «nmana» deb atalgan. Shunday bir necha urug' jamoasi «vis» deb atalgan. «Varzana» deb esa hududiy qo'shnihilik jamoasining, qabilalar jamoasi esa — «zantu»ni tashkil qilgan.

Ahamoniylar — mil. av.gi 558—330 yillarda eronda hukmronlik qilgan sulola. Ahamoniylar sulolasiga mil. av.gi VIII asrda elam yaqinidagi Parsa hududida yashagan qadimgi fors qabilalarining boshlig'i Ahmon asos solgan. Kir I davrida O'rta Osiyo hududlari ham Ahamoniylar sulolasiga bo'sundirilgan. Uning davrida Qadimgi SHarqning katta qismi o'z hukmronligiga bo'sundiriladi va Ahamoniylarning buyuk imperiyasi tuziladi Ahamoniylar sulolasi vakillari: Ahmon (Xaxomanshi), CHish-pish, Kir I, Kambiz I, Kir II, Kambiz II, Doro I, Kserks I, Ortokseroks I, Kserks II, Sekudian II, Doro II, Ortokserks II, Ortokserks III, Arses, Doro III. Gerodotning yozishicha, Ahamoniylar bosib olgan hududlarni satrapliklarga bo'lib idora qilganlar. Ularning soni 20 ta bo'lgan. O'rta Osiyo hududi esa uchta satraplikka bo'lingan.

Amirlik — musulmon mamlakatlarida amir tomonidan boshqariladigan mamlakat XVIII asrning o'rtalaridan boshlab Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb yuritilgan.

Animizm — hayvon ruhlariга ishonish demakdir.

Baqtriya - Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoli, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan qadimgi davlat birlashmasi. Yozma manbalarda u Baxdi («Avesto»da), Baqtrish (Bexistun yozuvlarida) deb nomlangan. YUNon-rim mualliflarining asarlarida Baqtriana yoki Baqtriya deb atalgan

Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'rni, aholiey va tabiiy resurslari jixatidan muhim mavkega ega edi. XIX asrga kelib Buxoro amirligining hududi qariyib 200 ming kv.km.ni tashkil etdi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so'l qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik SHarqda Pomir tog'laridan g'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'lgan hududni egallardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnixon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, shuningdek, Turkmaniston hududiga kirgan Murg'ob daryosi voxalaridagi erlar ham Buxoro amirligiga qarar edi.

Day — mil. av.gi V — IV asrlarda Sirdaryoning quyi oqimlari atrofida yashagan sak (shak) qabilalaridan ayrim manbalarda ularning daxlar, toharlar deb ham atashgan. Spitamen Iskandarga qarshi kurashish uchun oxirgi marotaba day qabilasidan qo'shin to'plagan. Mil. av.gi IV asr oxiri — III asr boshlarida Sirdaryoning o'rta va quyi oqimida yashagan saklarning Qang' davlati vujudga keldi. Keyinchalik daylarning Qang' davlatiga kirgan qavmlar ittifoqi siqib kirishga majbur bo'lishgan. Mil. av.gi 250 yilda daylar mahalliy Baqtriya aholisi bilan birgalikda Baqtriyani salavkiylardan ajratib oldilar va yangi davlatda asos soldilar. Shundan so'ng bu o'lkaning nomi Tohariston deb atala boshlagan.

Ellinlashtirish — Sharqda yunon madaniyatining yoyildash jarayoni, aralash madaniyatining — yunon va mahalliy SHarq madaniyatining tashkil topish jarayoni.

Eftallar — Oʻrta Osiyo va oʻnga yaqin mamlakatlar xalqlarining etnogenezi va tarixida muhim rol oʻynagan yirik qabilalar uyushmasi. Ularning kelib chiqishi toʻgʻrisida turli fikrlar bayon etilgan. A. N. Bernshtamning fikricha, eftallar tarkib topgan erlar oʻrta va quyi, Sirdaryo hamda Amudaryoning yuqori havzasidir. S. P. Tolstov esa ularni Orol boʻylaridan kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Garchi eftallarning tarkib topgan joyi qatʼiy aniqlanmagan boʻlsada, ular etnik elementlar aralashgan Oʻrta Osiyolik qabilalar negizida shakllanganligi maʼlum eftallar otashparast boʻlganlar, lekin keyinchalik ular orasida buddizm va xristianlikka eʼtiqod qila boshlaganlar ham boʻlgan.

Fetishizm (fr. fetich — tumor soʻzidan olingan) — jonsiz predmetlarga eʼtiqod qilishni anglatadi. Fetishizm predmeti boʻlib munchiq, tumor kabilar asosiy oʻrinni egallagan. Hozirgi dinlarda ham baʼzi bir predmetlar fetishizmga misol boʻla oladi. Masalan, Makkadagi Qoratosh islom dinida, krest (xoch) xristianlik dinida muqaddas sanaladi.

Investitsiya – sarmoyaning biron–bir korxonaga, ishga uzoq muddatga joylashtirish.

Inflyatsiya — qogʻoz pullarning qadrsizlanish va real tovar taklifiga nisbatan muomalada ularning koʻpayib ketishi bilan bogʻliq boʻlgan qobiliyatning pasayish jarayoni.

Integratsiya (lot. Integratio, integer dan — butun) — biror bir qism va elementlarni bir butungaga birlashtirish, iqtisodda xoʻjalik hayotini internatsionalizatsiyalashning oliy formasi boʻlib, boʻnga xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashtirish obʼektiv ravishda sabab boʻladi. U turli mamlakatlarning oʻzaro yaqinlashuvida va ularning korxonalari, tarmoqlari va hatto milliy iqtisodning yagona xoʻjalik organizmiga birlashuvida ifodalanadi, hamda bu protsessni tartibga solib turuvchi iqtisodiy siyosatdir.

Ixshid — Sugʻd hokimlarining nasabi, unvoni. Tarixiy maʼlumotlarga Sugʻd arab halifaligi tomonidan istilo qilingunga qadar bu erda 13 ixshid hukmronlik qilib turgan.

Kushon podsholigi – milodiy 1 asrning boshi yoki oʻrtalarida Yuechjilarning Kushon (Xitoychada Guyshuan) podsholigining kuchayishi natijasida paydo boʻlgan. «**Kushon**» atamasi sulola yoki qabila nomidan kelib chiqqan. Kushonlarning ilk hududlari shimoliy Baqtriya, Tojikiston, Oʻzbekistonning janubida joylashgan. Podsholikni asoschisi YAbgʻu (qirol), keyinroq esa podsho nomini olgan Kudzula Kadfiz (Kadfiz I) davrida kushonlar hozirgi Afgʻoniston va Tojikistonning kattagina qismini bosib oldilar. Uning vorisi Vima Kadfiz davrida kushonlarga Xindistonning kattagina qismi buysunadigan boʻldi. Kanishka I davrida Kushon podsholigi oʻzining rivojlangan pallasini boshidan kechirdi. Oʻrta Osiyoda kushonlarning shimoliy chegaralari Oʻzbekiston janubidagi Xisor togʻ tizmalaridan oʻtgan, hamda togʻli dovon (Darband) da chegara devorlari qurilgan. Kushon podsholigi davrida turli eralar mavjud boʻlgan. (Salavkiylar, Vikroma, Saka eralari va boshqalar). SHuningdek, Kanishka I hukmronligi davrida Kanishka erasi boshlangan. Ushbu era dlvrda quyidagi podsholar hukmronlik qilgan:

Kanishka I — 1—23 yillar,

Vasishka — 24—28 yillar,

Xuvishka — 28—60 yillar,

Kanishka II — 41—44 yil;

Vasudeva (Kanishka III) – 64—98 yillar.

Maroqanda — Samarqandning yunoncha nomi. Mil. av. gi VII — VI asrlarda Maroqanda oʻrnida mudofaa devorlar bilan oʻralgan qishloq boʻlgan. YUnon tarixchilari Arrian, Kvint Kurtsiy Ruf, Strabonning maʼlumotlariga koʻra mil. av. gi 329 yildada A.Makedonskiy Soʻgʻdiyona poytaxti Maroqandni zabt etib, vayron qilgan, soʻngra oʻzining harbiy garnizoni uchun qalʼani qayta tiklagan. Soʻgʻdiylar Spitamen boshchiligida bu bosqinchilarga qarshi kurashgan, qoʻzgʻolon bostirilgach, Makedonskiy Marokandni yana vayron qilishni buyurgan. Maroqand keyinchalik Semizkent, Samarqand nomini olgan.

Massagetlar – Kaspiyorti va Orol dengizi yaqinida va Sirdaryoning quyi oqimida mil. av. VI – IV asrlarda yashagan qabilalar guruhining umumiy nomi. Massagetlar haqida fanda har xil qarashlar mavjud. Ayrim olimlarning fikricha, Massagetlar nomi «muso» — «baliq» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, «baliqxoʻrlar» maʼnosini bildiradi. Keyingi tekshirishlar natijasida massagetlarning «mae», «saka» va «ta» soʻzlaridan iborat boʻlganligi va saklarning katta

uyushmasi degan ma`noni bildirishi aniqlangan. Yunon tarixchisi Gerodotning ta`riflashicha, massagetlar piyoda va otda jang qilganlar, otlarning ko`kraklariga sovut kiydirganlar. Massagetlar o`z podshosi To`maris boshchiligida eron bosqinchilariga qarshi kurashganlar. Mil. av.gi VI asrda ular o`z erlarini boshqa qabilalar xujumidan himoya qilish maqsadida harbiy qabila ittifoqiga birlashganlar

Movarounnahr – **arabcha** so`z bo`lib, lug`aviy ma`nosi daryo ortidagi er, degan ma`noni bildiradi. Arablar O`rta Osiyoni bosib olgandan keyin Amudaryodan shimolgacha qarab cho`zilgan O`rta Osiyo erlarini Movarounnahr deb atashgan.

Ossuariy — «**suyakdon, ostadon**». Zardo`shtiylik urf—odatiga ko`ra o`lgan kishi dafn qilinmagan. Jasadni qushlarga yem bo`lishi uchun maxsus baland joyga quyilgan. Suyaklari tozalanib, qushlarga yem bo`lmasligi uchun maxsus idish «**ossuariy**» larda saqlaganlar. Ular **nous** deb ataluvchi maxsus binolarga qo`yilgan.

Parkana (Dovon) davlati - Fargona vodiysida vujudga kelgan. Miloddan avvalgi II asrda Parkana mustaqil davlat edi. Eramizdan avvalgi 104-101 yillarda Parkana 2 marta Xitoyliklar hujumiga uchragan. Lekin Xitoyliklar muhim natijaga erisha olmaganlar. Parkanada 70 ta katta va kichik shaharlar bo`lgan. Ularning umumiy hukmdori Guyshan deb atalgan.

Qang`li — turkiy qabilalar uyushmasi O`rxun—Enisey yozuvlarida «**kanharas**» deb atalgan, xitoy manbalarida Qang` davlati Qang`yuy deb atalgan. Qang`lilar mil. av.gi III asr oxirlarida Sirdaryo bo`ylarida yirik Qang` davlatini tuzganlar Poytaxti — Qang`dez bo`lib, mil. av.gi III asrda asos solingan. Xitoy tarixchilari bu shaharni Bityan deb atashgan. X asr oxirlarida ularning katta bir qismi shimoliy — g`arbga siljib, emba va Ural (YOyik) daryolari oralig`ida joylashgan. XI asrda ularning ko`pchiligi Kichik Osiyo, Bolgariya va Vengriya erlariga o`tib mahalliy aholiga, ayrim guruhleri esa Volga bo`ylariga kelib boshqird, tatar xalqlariga qo`shilib kelgan. XI asrning oxiri — XII asrning boshlarida Qang`lilarning katta guruhi Sirdaryo bo`ylariga qaytib kelganlar. O`rta asrlarda qang`lilar O`rta Osiyo davlatlarining ichki siyosatida faol ishtirok etganlar. Qang`lilar yarim o`troq holda yashab dehqonchilik bilan shug`ullanishgan. Ular bir necha urug`larga bo`linishgan Jumladan, sariq — qang`li, qora—Qang`li, qizil— Qang`li, bobo—Qang`li, olmish—qang`li, bo`ka—qang`li va hokazo.

Qang` - miloddan avvalgi II asr urtalarida va I asr oxiriga gullab yashnagan davlat. Qang` davlati Xorazm hududlarida tashqil topdi va miloddan avvalgi 170 yilda unga So`gdiyona, Choch qo`shib olindi.

Qo`qon xonligi XIX asrning birinchi yarmida hududiy jixatdan O`rta Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik Sharqda Sharqiy Turkiston, g`arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo`lgan. Qo`qon xonligi bilan Rossiya o`rtasida Mirzachul va Muyunkul chullari yastanib etgan. Xonlikning janubiy chegaralari Korategin, Kulob, Darvoz, Shug`non singari tog`li o`lkalarni o`z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez — tez to`qnashuvlar bo`lib turgan. Qo`qon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o`laroq, sersuv daryolar, sulim vodiylar, serhosil erlarga boy edi. Xonlikning markazi Qo`qon, Marg`ilon, O`zgan, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar joylashgan Farrona vodiysi edi. Toshkent, Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Pishpak, So`zak, Okmachit kabi yirik shaharlar ham Qo`qon xonligi tasarrufida edi.

Saklar — milodan avvalgi I ming yillik va milodning boshlarida O`rta Osiyo va SHarqiy Turkistonning shimoliy — SHarqiy hududlarida yashagan chorvador qabilalar. Qadimgi fors manbalarida saklar uch guruhga bo`linganligi ko`rsatilgan:

- 1) saka — xaumovarka;
- 2) saka — tigraxauda;
- 3) saka — tiaytaradarayya.

Saklar forslar armiyasi tarkibida yunon—fors urushlarida qatnashgan. Aleksandr Makedonskiy, so`ngra salavkiylar o`zlarining O`rta Osiyodagi mulklariga xavf solgan saklarga qarshi kurash olib borganligi manbalarda qayd qilingan. Mil. avv. II asr o`rtalarida saklar boshqa ko`chmanchi qabilalar bilan birga Parfiya podsholigi erlariga bostirib kirganlar. Ammo ular qattiq qarshilikka

uchrab Darang'iyonga siqib chiqarilgan. Saklar Darang'iyonada o'troq joylashganligi uchun unga Sakiston, ya'ni Saklar mamlakati deb nom berilgan.

Satraplik — Ahamoniylar, salavkiylar, Parfiya va sosoniylar davlatlaridagi ma'muriy — hududiy tuzilma. Forscha «Xshatra» — «viloyat» so'zidan kelib chiqqan. Har bir satraplik belgilangan miqdorda soliq to'lashga majbur bo'lgan.

Somoniylar davlati - IX asrning oxirgi choragida Movarounnahrning barcha viloyatlari Somoniylar tasarrufiga o'tdi. Somohiylar sulolasi asoschisi Somomxudot edi. Bu paytda Nasr ibn Ahmad bilan uning ukasi Buxoro noibi Ismoil o'rtasida ziddiyat kuchayib, 888 yilda jangga olib keldi. Bu jangda Ismoil golib keldi va u butun Movarounnahrni birlashtirib, uning yagona hukmdori bo'lib qoldi. Ismoil Somoniy Movarounnahrni birlashtirgach, mustahkam feodal davlat tuzishga intildi. 900 yilda butun Xuroson somoniylar qo'li ostiga o'tdi. Somoniylar poytaxti Buxoro islom dinining markazlaridan biriga aylandi

Tohariston - mil.av. II-I asrlarda mustaqil davlat sifatida maydonga keldi. Bu davlat Yunon-Baqtriya davlati o'rnida paydo bo'ldi.

Turk hoqonligi - VI asrning 2-yarmida Oltoydagi turkiy xalqlar Yettisuv xalqlari bilan Turk hoqonligiga birlashgan. Hoqonlikni ilk bor aka-uka Ilixon, Bumin va Istemilar boshqargan. Hoqonlik markazi Oltoy edi. 560-570 yillarda hoqonlik qudratli davlatga aylandi. Bu davrda turklar Xitoyga bir necha bor harbiy yurishlar qilgan. 580 yillarda hoqonlik 2 qismga sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib ketadi. 630 yildan g'arbiy turk hoqonligi yuksala boshlaydi. Uning chegaralari Hind daryosi qirg'oklarigacha borgan.

Turkiston muxtoriyati - Turkiston jadidlarining va milliy vatanparvarlarning sa'y-harakati bilan 1917 yil noyabr oyida Turkiston muxtoriyati - Qo'qon muxtoriyati Qo'qon shaxrida tashqil qilindi va davlatning nomi Turkiston muxtoriyati deb nomlandi. Muxtoriyat 1917 yil 28 noyabrdan e'tiboran hokimiyatni muvaqqat Turkiston Soveti va «Turkiston xalq majlisi»ga topshirdi. Sovetlarning Muxtoriyatga qarshi qurolli harakati 1918 yil fevral oyida boshlandi va fevral oyi o'rtalarida muxtoriyat tamoman yo'q qilindi.

Xiva xonligi janubda Eron, sharada Buxoro amirligi, G'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh bo'lgan Suvsiz va poensiz Korakum, qizilkum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Amudaryo soxillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko'hna Urganch, Xazorasp, Ko'ng'irot, Xo'jayli, Kurdar (hozirgi CHimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. Xiva shaxri O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'lib, 1598 yildan boshlab xonlikning poytaxti bo'lgan. Qoraqalpoklar yashaydigan Amudaryoning quyi xavzasi va Orol dengizining janubiy qirg'oqlari ham Xiva xonligi tasarrufida edi.

Xorazm Amudaryoning quyi oqimida yashagan o'troq dehqon elatlari xorazmliklarning yurti Xvariazm («Avesto»da), Xvarizmish (Bexistun yozuvlarida), Xorasmiya (Arrian, Strabon) asarlarida yozib qoldirilgan.

Shayboniylar davlati – XVI asrda Temuriylarga tegishli yerlarni zabt etish natijasida Shayboniylar davlati vujudga keldi. Dastlabki davrlarda Shayboniylar davlati ancha keng hududlarni qamrab olgan edi. Movarounnahr uning uzagini tashqil qilgan. Uning tarkibiga Xorazm, Sirdaryo sohilidagi shaharlar, Toshkent va uning atrofidagi hamda Turkmanistonning Marv shahrigacha bo'lgan hududlar kirgan.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori

D.Xolmatov

“ _____ ” _____ 2023-yil

**TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK
FANINING**

O‘QUV DASTURI

II kurs, kunduzgi

| | |
|--------------------|---|
| Bilim sohasi: | 200000 – San`at va gumanitar soha |
| Ta`lim sohasi: | 220000 – Gumanitar fanlar |
| Ta`lim yo`nalishi: | 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo`nalishlar bo`yicha) |

Namangan-2023

“Tarixiy o’lkashunoslik” fanining ishchi o’quv dasturi namunaviy o’quv reja va namunaviy fan dasturi (O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining 2018- yil 25- avgustdagi 744- sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan)ga muvofiq tuzilgan.

Tuzuvchi:

A. A. Erqo’ziyev

Fanning ishchi o’quv dasturi Tarix kafedrasining 2023 yil ___ - _____dagi ___ - sonli yig’ilishida muhokamadan o’tgan va fakultet Kengashida ko’rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

A. A. Erqo’ziyev

Ishchi o’quv dastur Ijtimoiy-iqtisodiy fakultetining 2023-yil ___ _____dagi ___ - sonli Kengashida ko’rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Fakultet Kengashi raisi:

Sh.A. Xaydaraliyev

Kelishildi:

O’quv- uslubiy boshqarma boshlig’i:

H. Mirzaahmedov

O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu ishchi dastur “**Tarixiy o'lkashunoslik**” fanining tarix fani tizimida tutgan o'rni, fanning maqsadi, vazifalari va predmeti, tadqiqot ob'yektlari, fanning shakllanishi va rivojlanishi, dastlabki ilmiy jamiyatlarning tashkil qilinishi hamda ularning faoliyati, jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, tarixiy o'lkashunoslikning turlari, ilmiy ya'ni davlat o'lkashunosligi, jamoat o'lkashunosligi, maktab o'lkashunosligi, Vatanimizning geografik o'rni va tabiati, tarixiy o'lkashunoslikda arxeologik, me'morchilik, etnologik, antropologik, toponimik, yozma va arxiv manbalarining ahamiyati, muzey manbalaridan foydalanish va ularning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati haqidagi ma'lumotlarni beradi.

O'lkamizda shaharsozlik urbanizatsiyasi va davlatchilikning qaror topishi. O'lkamizda qadimgi davlatlar va shaharlar to'g'risidagi yozma manbalar, Vatanimizning janubiy hududlarida qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti, o'rta asrlar davrida yaratilgan manbalarda “shahar” tushunchasi, X–XII asrlarda shahar madaniyatining ravnaqi, Amir Temur va temuriylar davrida shaharsozlikning rivojlanishi, so'nggi o'rta asrlarda o'lkamizda urbanizatsiya jarayonlarining taraqqiy etishi kabi jihatlarni o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, har bir yosh avlodda o'z o'lkasi tarixini o'rganish va vatanni sevish hissini uyg'otish, bugungi kunda o'lkamizda olib borilayotgan barcha xayrli ishlarni yoshlar ongiga singdirish, o'z tuprog'i, Ona zamin va o'lkasini qadrlashga undash kabi masalalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari:

Fanni o'qitishning maqsadi – tarixning davlat va jamiyat taraqqiyoti natijasi ekanligi, jamiyat rivojlanishida davlatchilikning muhim voqea hisoblanishi, tarixning keyingi taraqqiyoti bosqichida fuqarolik jamiyatining paydo bo'lishi bilan fan, texnika, madaniyat, axborotlar o'zlashtira borish, ularni jamiyatga bog'liq bo'lgan xodisalarni ko'rsatishdir;

Fanni o'qitishning vazifalari – jamiyat va davlatchilik taraqqiyotidagi uyg'unlik farqlarini ajratish, tarix fanidagi yangi nazariyalarni taxlil etish, tarixning xarakatlantiruvchi omillarini talablarga ko'rsatib berish, tarix fanining asosiy yo'nalishlarini taxlil va tadqiq qilish malakasini xosil qilish, davlat va jamiyat taraqqiyotining rivojlanish omillarini taxlil qilishda tarix fanining o'rnini tushuntirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Talaba:

